


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**



«Liboslar dizayni» kafedrasi

**5320900 – “Yengil sanoat buyumlarini konstruksiyasini ishlash va
texnologiyasi (tikuv buyumlari)” yo’nalishi bo’yicha
ta’lim olayotgan bakalavrlar uchun**

**"Kostyum kompozitsiyasi "
fanidan**

M A ‘ R U Z A L A R M A T N I

Toshkent - 2015

Annotasiya

Ijodkor mutaxassis o'z yo'nalishi va uslubini topishda, ayniqsa badiiy loyihani yechimi, kostyum kompozitsiyasini mazmun va mohiyati jihatidan mukammal shakl yaratishda kompozitsiya asoslarini bilishi zaruriyati juda katta.

Kostyumni yaratish – bu kostyum elementlarining xilma xil shakl va konstruksiyalarini doimo izlash jarayonidir. Kostyum yaratilishida qo'llanadigan manbalar turlichadir. Xalq kostyumi zamonaviy kostyum turlarini yaratish jarayoni uchun shakl va bichim nuqtai nazaridan boy xazina hisoblanadi.

Ushbu ma'ruza matnida turli davr va badiiy uslublar tarixi va rivojlanish tendensiyalari, to'qimachilik va tikuv mahsulotlarini, kiyim va poyafzalni badiiy bezash, modellash va konstruktiv-dekorativ yechimini shakllantirish masalalarini qamraydi.

Tuzuvchi:

Vaxidova U.A. – «Liboslar dizayni » kafedrasini mudiri
Mirtalipova N.X. – «Liboslar dizayni » kafedrasini katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Raxmatullayeva U.S. – «Liboslar dizayni » kafedrasini dosenti, f.f.n.
Ataxanova F.Z. – MRDI «Liboslar dizayni » kafedrasini mudiri

«Liboslar dizayni» kafedrasining majlisida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. Bayonnoma № ____ «____» _____ 2015y.

TTYESI ilmiy uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.
«____» _____ 2015 yil _____ - sonli bayonnoma

Ma'ruza № 1 (2 soat)

Mavzu: **KOMPOZISIYA ASOSIY TUSHUNCHALARI. KOMPOZISIYADA USLUB VA USLUBLASH**

Reja:

1. Kompozisiya tushunchasi
2. Kostyum kompozitsiyasi asosiy atamalari
3. Uslub tushunchasi
4. Katta badiiy uslublar
5. Mikrouslublar rivojlanishi
6. Zamonaviy liboslar uslubiy echimlari
7. Uslublash tushunchasi

Adabiyotlar:

1. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды. - М.: Академия, 2000.
2. Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В. Композиция костюма. - М.: Академия 2003
3. Xasanboeva G.K., Shomansurova M. Maxsus kompozisiya asoslari. - T.: Yangi asr avlodi, 2008.
4. Пармон Ф.М. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. - М.: «Триада плюс», 2002.

1. **Kompozisiya** lot. «composito» - qurish, tuzish. Kompozisiya - badiiy asar shaklining barcha elementlarini, mazkur asarning obrazli g'oyaviy - badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirish.

Kiyim kompozitsiyasi - kiyim shaklining barcha elementlarini, uning mazmunini ifoda etadigan birlikni barpo etish vositalari yordamida tuzib chiqish.

Har qanday badiiy asarda uni tashkil etgan barcha elementlar o'rinli bo'lishi kerak. Ortiqcha, yoki muallif fikrini yetarlicha yaxshi ifoda etmaydigan nimaiki bo'lsa, olib tashlanishi zarur. Kompozisiya mahsus badiiy tildan iborat bo'lib, uning yordamida san'atkor borliqni aks ettiruvchi g'oya va tuyg'ularni tasvirlab beradi. Badiiy obraz borliq in'ikosi sifatida estetik shakli hisoblanadi. Kiyimning badiiy obrazi - bu kiyimning konkret vazifasini va borliqni aks ettiruvchi asosiy g'oyani ifodalovchi modelning umumiy qiyofasi.

Kostyumning mazmuni uning nimaga mo'ljallanganiga qarab belgilanadi.

Har qanday badiiy asar uyg'un bo'lishi kerak. Uyg'unlik (*garmoniya* yunon. «*harmonia*») - san'at asarning ayrim bo'limlarni biri biriga mosligi, muntazamligi, bog'lanishi, turli-tumanlikda spesifik birligi. San'atda esa uyg'unlik - badiiy asarning barcha bo'limlarni (tarkibiy qismlarini) organik aloqadorligi.

Shunga ko'ra sanoat badiiy asarni garmonik shakli shunday shaklki, qayerda ichki va tashqi, bo'lak va yaxlitni, odam, material negizi va muxit bilan xar tomonlama uyg'unlikka erishganligi.

Asarning badiiy boyligi uning majmui bilan tavsiflanadi.

Badiiy konstruksiyalashni (dizaynni) ikki tomoni bor: sezgi-emosional va mantiqiy-ilmiy tomonlari. Sezgi-emosional tomoni muallifga, uning didiga, tuyg'usiga, dunyo qarashiga va qiziqishlariga bog'liq. Shular barchasi ijodiy jarayonga va san'at asariga mislsiz ta'sir etadi. Mantiqiy-ilmiy tomoni esa muallifdan buyumni funksional, texnik va texnologik tomonlaridan takomillashgan shakl yaratishni ko'zda tutadi.

Kompozision qonuniyatlarini bilish - ijodni cheklamay, balki, aksincha, uni aniq bir maqsadni ko'zda tutadigan qiladi, muallifni adashishdan, tasodifiy xatolardan ogohlantiradi va ijodni ilmiy va erkin qiladi.

Kompozision nazariyasi umumiy kategoriyalari bilan asoslanadi: tektonika va xajmiy-fazoviy struktura.

Kostyum kompozisiyasi uyg'un bir butunlik sifatida shaklning yaxlitligi, simmetriya va asimmetriya, statiklik va dinamiklik, kompozision muvozanati kabi bir qator hususiyatlarga ega.

Kompozisiyaning zaruriy hususiyatlari ijodiy jarayonda munosib kompozision vositalar bilan ta'minlanadi: nisbatlar va mutanosibliklar, qarama-qarshilik, nyuans va o'xshashlik, metrik va ritmik tuzilishlar, rang, materiallar, bezaklar va shakl plastikasi.

2. K o s t y u m - bu muayyan obrazli badiiy-sistema, kostyum qismlarni insonning individual siymosini yoki ijtimoiy tabaqasini ifodalovchi, qaror topgan yoki tashkil topgan prinsiplarga asosan yaratilgan, muayyan tarixiy bosqichda erishilgan ma'lum texnik, ilmiy va madaniy yutuqlarni aks ettiruvchi kiyimning tarzi.

Kiyim, bosh kiyim, poyabzal, kiyim qo'shimchalari, bezaklar, grim, soch turmagi, tanani bo'yash, uning shaklini o'zgartirish - bularning hammasi birgalikda kostyumni tashkil etadi.

K i y i m - bu materialning odam tanasidagi qobiq sistemasi bo'lib, tanani iqlim ta'siridan va korxona sharoitidan saqlaydi va odamning o'ziga xos ba'zi hususiyatlarini namoyon etib estetik vazifani bajaradi.

O y o q k i y i m - bu tashqi muxitdan saqlaydigan, yurganda qulaylik beradigan va estetik funksiyani bajaradigan oyoq kaftini va boldirni qobig'i.

Q o' s h i m c h a l a r g a sharf, sumka, xassa, soyabon, qo'lqop, buyin ro'mol, mufta, ko'zoynak, lornet va monokllar va b.q. kiradi. Ular kostyumda utilitar funksiyani bajarish qatorida, estetik vazifani bajarib, kostyumga yaxlitlik beradi.

L i b o s - bunga yelka va bel kiyimlar kiradi.

G a r n i t u r - bu odatda aynan bir tur materialdan tayyorlanib, ma'lum bir nimaga mo'ljallangan bir sidra buyumlar yig'indisi (ich kiyim garnituri, zargarlik buyumlari garnituri va b.q.).

G a r d e r o b - bu bir qator xollarda zarur bo'lgan bir sidra kiyim komplektlari va kostyumga kiruvchi boshqa qo'shimcha buyumlar, ya'ni bir

kishining va butun oila a'zolari hamma kiyimlarining yig'indisi. Birga kiyiladigan buyumlarga qarab, garderob, odatda, baxorgi-kuzgi, yozgi va qishki bo'ladi. Mohirlik bilan sinchiklab tanlangan shaxsiy garderob turli xollarga mo'ljallangan komplektlar va ansambllarning butun bir qator uyg'unlashgan mujassamligini tuzish imkonini beradi.

K o m p l e k t - bir xil, yoki xar xil materiallardan tayyorlangan, ma'lum uslub va mo'ljalga mos buyumlar to'plami. Komplekt - ochiq sistema bo'lib, ayrim buyumlarni unga qo'shish va undan olish mumkin. Bu xolda kostyum kompozitsiyasini yaxlitligi buzilmaydi.

A n s a m b l - kostyumning muayyan badiiy uslub birligiga ega bo'lgan barcha qismlarning yig'indisidir. Ansambl o'zaro mustahkam birlikni bo'linmaslikni bildiradi. Ansambl qismlarining o'zaro qat'iyyan bo'ysunganligi sababli inson siymosini va davrni eng to'liq ifoda etishdek mahsus hususiyatga ega bo'ladi. Ansambl yagona kompozision mo'ljalga binoan yaratilib, undagi hamma qismlar o'zaro moslangan va yagona maqsadga itoat etgan bo'ladi. Ko'p qismlilik va ko'p qavatlik, o'zaro bog'liqlikning qat'iy sistemasi va hamma qismlarni kiyish shart ekanligi ansambl uchun xarakterlidir. Ansambl - bu birorta buyumini olib tashlab yoki biror boshqa buyumni qo'shib bo'lmaydigan yopiq sistema.

T o' p l a m - umumiy vazifa ado etuvchi bir necha buyumlar yig'indisi. Unda material bilan uslub birligi bo'lishi shart emas (bolalar ich kiyim to'plami).

K o l l e k s i ya - obrazi va konstruktiv yechimi, uslubi, bazaviy shakli, materiali va boshqa yagona asosida yaratilgan, vazifasi turlicha bo'lgan modellar seriyasi.

M o d e l - turi, shakli, matosi va boshqa sifatlari bo'yicha yangi namuna.

F a s o n - nomdosh guruhda shakli, bichimi va boshqa hususiyatlari farqlari. San'atda uslub asosiy tushunchalarnidan biri bo'lib, vaqt mobaynida va jamiyatda kostyum evolyusiyasi bilan bog'liq. Davr uslubi, tarixiy kostyum uslubi, moda uslubi, dizayner uslubi, firma uslubi tushunchalar ham uchraydi.

3.Uslub - badiiy fikrlashning umumiy kategoriyasi; san'atda muayyan davr yoki asarning tasviriy vositalarning g'oyaviy birligi; buyum muhitining badiiy-plastik o'xshashligi. Uslubda har bir davrni dunyoqarashlar, g'oya va qarashlari aks etiladi. Uslub - davrning badiiy tili, davrning badiiy ifodasi. Unda muayyan tarixiy davrning estetik ideali namoyon bo'ladi.

4. Uslub barcha san'at turlariga o'zgacha ta'sir etadi, uni "davrning katta badiiy uslubi" deb atashadi. San'at tarixida davrga mansub "katta uslublar" birin ketin bo'lgan: Qadimiy Misr, Antik, Roman, Gotik, Renessans, Uyg'onish, Barokko, Rokoko, Klassisizm, Ampir, Modern. Ushbu uslublar kostyum turini, shaklini, proporsiyalarini, qo'llagan matolarini, kiyish usulini va h.k. belgilagan.

Xar bir uslub rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlardan iborat: paydo bo'lishi, avjga etishi, inqirozga uchrashi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, har bir davrda bir necha uslublar birgalikda mavjud bo'lgan: oldin bo'lgan, ayni shu vaqtda xukmronlik qilgan va kelajak uslubning elementlari. Har bir mamlakatda badiiy madaniyati rivojlanish darajasi, siyosiy va ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti, boshqa mamlakatlar madaniyati bilan aloqaligi bilan bog'liq badiiy uslublarni evolyusiya dinamikasi o'ziga xos bo'lgan:

masalan, XV asrda Italiyada Renessans uslubi avjiga chiqqan bo'lsa, Fransiya - kech Gotika, Germaniyada esa - Gotika XVI asrni o'rtasigacha bo'lgan, O'rta Osiyoda esa - Renessans uslubi IX asrdan boshlab to XVII asrga qadar rivojlangan.

5. "Katta uslub" doirasida **"mikrouslublar"** rivojlanishi mumkin. Masalan, Rokoko uslubi doirasida (1730-1750 yy.) "shinuazri" (xitoy uslubiga o'xshash) va "tyurkeri" (turkcha uslub); modern uslubi doirasida 1890-1900 yy.) "neogotika", "neorus" va geometrik uslublari; "art deko" uslubda (1920 yy.), Misr, rus, afrika, geometrik va boshqa mikrouslublar mavjud bo'lgan.

Ammo, tarixiy davrlar o'tishi bilan "katta uslub"lar o'tmishda qoldi: jamoa va insonni turmush sur'ati tezlashishi, informasion jarayonlarni rivojlanishi, yangi texnologiyalar va ommabop bozorni ta'siri, yagona uslubga emas, balki ko'p uslubiy shakllar va plastik siymolarni mavjud bo'lishiga olib keldi.

XIX asrda ilgari bo'lgan uslublarga asoslangan uslubiy yo'nalishlar paydo bo'la boshladi (eklektizm, o'tmishga berilish va b.).

Eklektika - bu har xil uslublarni aralashmasi, bir necha uslubni baravariga mavjudligi. XX asrda eklektika madaniyatini muhim hususiyatlaridan biri bo'ldi, ayniqsa asrni oxirida - postmodernizm madaniyati modaga ta'sir etgandi.

Har bir mavsumiy nashrlar yangi uslublarni targ'ibot etadi, dizaynerlar esa o'z uslubini yaratishga intilishadi. Ammo, barcha uslublar tasodifiy paydo bo'lmaydi. Siyosiy voqealar, ijtimoiy muammolar va b. uslubni shakllanishiga ta'sir etib, uni aktual qiladi. Modali uslublarda insonning siymosi va turmush tarzini o'zgarishi hozirgi zamonda uni o'rni va roli bo'yicha tasavvuri ifodalanadi. Yangi uslublarni paydo bo'lishiga yangi materiallar va ularga ishlov berish usullari ta'sir etadi.

Ko'p uslublar orasida klassik uslubni ajratish mumkin: ular uzoq vaqt davomida aktualligini saqlab, modada bo'ladi. Klassik uslub muayyan hususiyatlarga ega bo'lishi mumkin: universallik, ko'pfunksiyalik, shakl yaxlitligi va oddiyligi, odamni talablarini qondiradigan. Klassik uslubga, masalan, ingliz, Shanel uslublari kirishi mumkin.

"Katta badiiy uslub"lar va "mikrouslub"lardan tashqari "muallif uslub" yoki "ustaning individual uslub" degan tushunchalar bor. Bu uslub turida muallifning mavzulari, g'oyalari, qo'llagan tasviriy vositalari va badiiy usullari namoyon etiladi. K.Shanel, K.Dior, A.Kurrej, Dj.Versache, K.Lakrua, V.Zaysev, V.Yudashkin va b. ijodi muallif uslub bilan ajralib turadi.

Zamonaviy buyum muhitni badiiy - plastik bir xilligi "dizayn -uslub" deb ataladi. Bu uslub texnikaviy taraqqiyotni o'zlashtirish natijasini namoyon etadi. U yangi mato va texnologiyalar bilan bog'liq bo'lib, buyumlarni tashqi ko'rinishini faqat o'zgartirmasdan, insonni hayotiga yangi xossalarni baxsh etadi va buyum va insonni o'zaro aloqasiga ta'sir etadi.

Dizaynda *"firma uslub"* degan tushuncha ham bor - bu firmami ishlab chiqargan mahsulotiga uslubiy birlik mansub. Firma uslub konkret mualliflar tomonidan yaratiladi va sub'ektiv xossaga egadir.

6. Zamonaviy liboslar uslubiy echimlari

Klassik uslub. Klassik (odmiy, ishbilarmon, elegant) uslubiga modaga deyarli sig'inmaydigan, turg'un vaqt davomida tanlangan, deyarli o'zgarmaydigan uslub. Klassik uslub – chiziqlarni sipoligi va oddiyligi, bichimni mantiqaligi.

Odatda, klassik uslubdagi buyumlar – bu ko'zga tashlanmaydigan juda oddiy siymo, e'tiborni o'ziga sifati bilan tortadi. Klassik uslubini asosida, uni ba'zi elementlarini kombinasiya qilib, har xil mikrouslublar shakllanadi. Klassik uslubga libosning barcha elementlarini kiritish mumkin. Yangi klassika odatiy shakllarning sipoligini yuqotdi – modellar yumshoq, tabiiy va oliyjanob. Ammo, avalgiday klassika detallarni minimumligii bilan farqlanadi. Ko'pincha materiallar erkaklar modasida o'zlashtirilgan – bu reps, gabardin, poplin va flanel, yupqa klassik yo'l –yo'l va "yolochka", yumshoq jun gazlamalari. Uslub favoriti – shim va yubka, nimcha bilan klassik kostyum.

Romantik uslub – bu fantaziya, izlanish, xotira sohasi, u tarixiy kostyumga intiladi va undan shakl, bichim va dekorativ bezak o'zlashtiriladi. Romantik libos qomatni go'zalligini va ayollarninig an'anaviy suzilmoqligini, sentimentalligini, sezuvchanligini namoyon etishi lozim. Bu uslubning asosiy silueti – X-simon, yumshoq va mayin chiziqlar bilan. Minimalistik uslub man etgan bezaklar – drapirovkalar, dekolte, koketkalar, qo'sh burmalar, volanlar, ryushlar, jabo, bantlar, to'rlar, buflar, manjetlar rulikdan izmalar romantik liboslarda keng qo'llanadi. Bu uslubda yorqin ranglar libosda qo'llanadi. Poyabzal laklangan charmda va kimxobdan baland poshnali "kemacha" tuflilar. Uzun yoki kalta qo'lqoplar. Murakkab soch turmagi. Vualli shlyapalar, nozik taqinchoqlar, shifondan sharflar. Bu uslub kechi va bayramona kiyimlarida qo'llanadi.

Sport uslubi. Sport uslubi qulay va go'zal sport liboslarni modaga ta'sir etdi. Xozir sport uslubida libosning barcha elementlari qilinishi mumkin: uy kiyimidan bashang kostyumigacha. Eng oddiy sport usubining varianti kiyimda qoplama cho'ntaklar, pogonlar, furnitura, koketkalar, xlyastik va patalar va b. Sport uslubiga bir necha mikrouslublar kiradi.

Folklor uslubi. Folklor uslubi – bu milliy kostyumlarning elementlarini qo'llaydigan uslub. 1950 yillardan boshlab qishloq uslubi "*kantri uslub*" ommabop bo'lgandi, 1990 yillarda bu uslub etno–miks shaklida tarqalgandi. Folklor uslubi bugun – bu faqat kiyimni bezagigina emas, balki elementlarni, shaklni, buyumlarni zamonaviy modada o'zlashtirish. Folklor uslubida kiyim yaratish – bu milliy kiyimni nusxasini yaratish emas. Gazlamani tanlash, uning rangini, merejka kashtasi, naqshli tasma, atlas lentalar, bichim va detallarni qo'llanishi buyumni folk uslubiga mansubligini ko'rsatadi. Shartli folklor uslubiga ingliz kantri, amerikalik vestern va turli etno–mikslar kiradi.

"Uslub" tushuncha bilan "uslublash" tushunchasi chambarchas bog'liq. Yangi san'at asrlari yaratilganda uslublash badiiy usul sifatida qo'llanadi.

7. **Uslublash** - ma'lum uslubning siymosi va formal belgilarini yangi, unga monand emas baddiy kontekstda g'arazli maqsad bilan qo'llash.

Bu usul timsol bilan erkin foydalanishni, transformasiya etishni ko'zda tutadi, asos qilib olingan uslub bilan aloqani uzmasdan. Bu holda ijodiy manbaa doimo tanish bo'ladi. Badiiy vosita sifatida uslublash klassisizm, neoklassisizm va b. qo'llangan.

Zamonaviy dizaynda ommabop iste'molchiga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishda bu usul o'z ahamiyatini saqlab qolgan, ayniqsa, kommersiyachilik dizaynida ("korporativ" dizaynda).

Dizaynda uslublash - bu birinchidan buyumni loyihalashda muayyan uslub xossalarini ongli qo'llash (bu ma'noda ko'pincha "stayling" tushunchasi qo'llanadi); ikkinchidan - madaniy namunani ko'rinarli xossalarini to'ldiridan - to'ldiriga loyihalayotgan buyumga ko'chirmoq, ko'pincha bezakda; uchinchidan - tabiiy shakllar yoki muayyan buyumlarga taqlid etib, shartli dekorativ shakl yaratish.

Uslublash usulda ajoyib kolleksiyalarini Iv Sen-Loran 1960-1980 yy. ("Afrikanka", "Rus balet-operalar", "Xitoy ayoli", "Ispan ayoli", "Pikasso xotirasiga" va b.) yaratgan.

Modaga nisbatan uslub-og'ishmasi ijtimoiy fenomen. K.Shanel etishi bo'yicha: "Moda o'zgaradi, xaqiqiy uslub esa - hech qachon".

Dizaynerlar, moda jurnallari, televidenie va Internet tavsiya etgan ko'p uslublar orasida zamonaviy kostyum dizaynida asosiy yo'nalishni aniqlash mumkin.

Bu yo'nalishlardan biri - modani demokratizasiyalanishi, o'ziga xos «modani xukmdorligidan ozod bo'lish», barchaga majburiy yagona modali namunani yo'qligi, turli mo'ljall kiyimlarni farqlanmasligi, "yaxshi did" qonunlarni, turli buyumlarni birikmalarini, ranglar va materiallarni qo'llash qoidalarni muqarrar emasligi.

Ikkinchi yo'nalishi - buyum muhitini industrializasiyalanishi, har bir insonga o'z fikrini erkin ifodalashga sharoit yaratish.

Jamoani oldida turgan muammolarni yechishda ko'mak berishda dizaynni insonparvar roli kuchaymoqda, chunki u jamiyatda ekologik qiymatini tasdiqlashga imkon tug'dirib turmush tarzini shakllanishiga insonning talablar tarkibini aniqlashga ta'sir etishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Kompozisiya tushunchasi san'atda nimani aniqlaydi?
2. Uyg'unlik tushunchasi.
3. Dizaynning sezgi – emosional tomoni.
4. Dizaynning mantiqiy-ilmiy tomoni.
5. Kostyumga qanday bo'limlar kiradi?
6. Kostyum va kiyim tushunchalari farqi nimada?
7. Kostyumni bo'limlar to'plamlari qanday farqlanadi?
8. Kiyim modellari kolleksiyalarga qanday talablar qo'yiladi?
9. Uslub tushunchasi.
10. Katta tarixiy uslublar nomini ayting.
11. Katta uslublar doirasida «mikrouslublar» rivojlanishi.
12. XIX asrda qanday uslubiy yo'nalishlar paydo bo'lgan?
13. Klassik uslubdagi mikrouslublarni tavsiflang.
14. Romantik uslubdagi mikrouslublarni tavsiflang.
15. Sport uslubdagi mikrouslublarni tavsiflang.
16. Folklor uslubdagi mikrouslublarni tavsiflang.

Ma'ruza № 2 (2 soat)

MODANING TARKIBI, FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

Reja:

1. Modaning ta'rifi va uning tarkibi
2. Modani rivojlanish asosiy qonuniyatlari
3. Moda funksiyasi
4. Modani bashorat qilish

Adabiyotlar:

1. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды. - М.: Академия, 2000.
2. Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В. Композиция костюма. - М.: Академия 2003
3. Xasanboeva G.K., Shomansurova M. Maxsus kompozisiya asoslari. - T.: Yangi asr avlodi, 2008.
4. Пармон Ф.М. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. - М.: «Триада плюс», 2002.

1. XVII asrni oxirida moda inson madaniyatining o'ziga xos fenomeni sifatida san'at sohasida va kostyumda estetik ideal va didni o'zgarish bilan bog'liq estetik hodisa sifatida tahlil etildi. XIX-XX asrlarda moda tadqiqotchilari modani ijtimoiy va psixologik fenomen sifatida tahlil etishgan, uni paydo bo'lishiga va rivojlanishiga sabablarni va uni ta'sirida ro'y beradigan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlarini ko'rib chiqishgan.

Modani har xil nuqtai nazardan, ijtimoiy psixologiya va psixotahlil, bozor iqtisodi va madaniyatshunos, zamonaviy jamiyatda uni dinamikasini belgilaydigan muhim komponenti sifatida o'rganishgan.

Moda lot. *Todus* - me'yor, qoida: fransuzcha - *toda*; italian - *toda*; nemis - *moda*, ingliz - *moda* (ko'pincha *fashion* atamasi qo'llanadi).

Zamonaviy jamiyatda moda ommabop xulq shakllaridan biridir. Demak, *moda* atamasini quyidagicha ta'riflash mumkin:

- moda bu o'ziga xos usul, siymo, ijtimoiy axborotni ishlash uchun me'yor (psixolog L.Petrovning ta'rifi);
- moda bu ko'p insonlarga oid sezish turi (amerikan ijtimoiy psixolog E.Bogardusning ta'rifi);
- moda ijtimoiy guruhlar afzal ko'rgan takrorlanadigan o'zgarishlar seriyasi (amerikan ijtimoiy psixolog E. Rossning ta'rifi).

Moda o'zgarish jarayonda bo'lgan moddiy va ruhiy qiymatlarga kiradigan barcha madaniyat turlariga mansub: san'at (rangtasvir, adabiyot, musiqa, teatr, kino,

dizayn), fan, texnika, siyosat, sport. Dizayn - moda mexanizmini faol ta'sir ztadigan madaniyat sohasidir.

Moda insonni atrofida barcha buyum muhitiga, ya'ni interer va magazin vitrinalari bezagiga, maishiy buyumlarni, ommabop bayramlarni va sayr tomosha industriya dizayniga ta'sir etadi, ammo, ko'pincha moda insonning tashqi ko'rinishida liboslarida, soch turmagida, makiyajida, muamola tarzida, buyumlar doirasida aks etadi.

Kostyumda insonning tilaklari va intilishlari, o'zi to'g'risida va atrofida insonlarga ijtimoiy munosabati va ijtimoiy holini aks etgani bois, kanadalik jamiyatshunos M.Maklyuen insonning uyini va libosini "bizning terimizni davomi" deb aytishga asos bo'lgan.

Moda kostyumga, buyumlar xossasiga, g'oyalarga, so'zlarga va b., ya'ni moda namunasi bo'ladigan buyumlarga (mini yubka, soch rangi va turmagi, avtomobil markasi, tog'da dam olishga va b.) ta'sir etadi.

Modaning tarkibi quyidagi elementlaridan iborat:

- modali standartlar – muamola va hatti - harakat namunalari yoki usullari;
- modali ob'ektlar, ular moddiy va moddiy emas bo'lishi mumkin: buyumlar, g'oyalar, so'zlar, ob'ektlarning xossalari;
- modaning qiymati;
- moda muxlislarining hatti - harakati modali standartlar, ob'ektlar va qiymatlarga orientlashgan.

Modaning har bir namunasi uni muxlislariga muayyan maqsadga erishishga, intilishga; zamonaviy ko'rinib turishiga yoki ommalar orasida ajralib turishiga, atrofida insonlarga o'zi to'g'risida ma'lum ma'lumot berishiga imkon beradi.

Zamonaviy yirik shahar-megapolisda munosabat vositasi sifatida modaning roli juda katta, u yerda insonlar orasidagi munosabatlar qisqa muddatli (ko'chada, transportda, jamoat joylarida va b.). Shuning uchun o'zi to'g'risida inson bermoqchi bo'lgan ma'lumotni kostyum beradi.

Moda tarkibining qiymatlarini orasida birinchisi (atributiv yoki ichki) va ikkinchisi mavjud.

Modani birinchi qiymatlariga zamonaviylik, universallik, demonstrativlik va o'yin k kiradi.

Zamonaviylik – modaning tarkibida fundamental qiymatidir. Har qanday yangiliklar modali bo'la olmaydi, va har qanday modali standartlar va namunalar ham yangi bo'lmaydi (masalan, "retro" uslubi). Ekologik uslub modada yangi yuqori texnologik sintetik materiallarni ishlatishni inkor etib, ming yillar mobaynida ma'lum an'anaviy zig'ir, ip, shoyi va jun gazlamalarni kiritdi.

Modada yangilik - bu avvalgi modaga nisbatan yangi g'oyalardir. Zamonaviylikning qiymati modani muxlisiga "vaqt bilan yuruvchi" deb o'zini his qilishga va tez o'zgarayotgan zamonga moslashishga imkon beradi.

Universallik (diffuzlik) vaqtdan tashqari hech qanday cheklashni e'tirof etmaydi.

2. Kostyum tarixida modaning universalligi XIX asrda yuz berdi, XVI asrda esa Evropada avval italian, keyin ispan modalari keng tarqalgandi. Modaning rivojlanishi jamiyatni barcha o'zgarishlarini aks etadi: sanoatning gurkirab

rivojlanishini, yangi transport va kommunikasiya vositalarini paydo bo'lishini, xalqlararo madaniy aloqalarni kuchayishini. Madaniy namunalarni bir ijtimoiy guruhdan ikkinchisiga, bir mamlakatdan boshqa mamlakatga o'tishida modaning muhim qiymatlaridan biri universallik xisoblanadi.

Qisqa vaqt davomida ommabop bo'lgan hodisalarni "moda doirasida ichki oqimlar" deb amerikalik jamiyatshunos E. Bogardus nomlagan. Ularga *fad* (injiqlik, tentaklik, tez o'tar ishqivozlik barcha jamiyatni emas, balki ayrim ijtimoiy guruhlarni og'ushiga olgan), *sraze* yoki fetish (moda bilan ommabop ishqivoz etilish, moyillik).

Demonstrativlik moda kommunikasiyasini bir shaklidir, u moda muxlislariga o'z to'g'risida boshqalarga ma'lumot berishiga imkon beradi. Eng avvalo moda o'z ijtimoiy maqomini yoki undan ham yuqori illyuziyasini namoyish etishga imkon beradi.

Modaning o'yin qiymati evristik ijodiy faoliyati bilan bog'liq va u yangilikni izlashni, yangini yaratishni, eskilikni yangi sifatida tavsiya etishni rag'batlantiradi. XX asr o'yinni inson madaniyatini universal elementi sifatida hisoblaydi. Zamonaviy dizaynda o'yin elementlari muhim rol o'ynaydi, chunki o'yin insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga qaratilgan, unda natijasi emas, balki jarayon muhim (dizayner va iste'molchining hammuallifligi konsepsiyasi bilan bog'liqligi). O'yin dunyo tushunish shakli bo'lsa, moda esa o'ziga xos qoidalariga ega o'yin muamolasining shakllaridan biridir. Modaga asosiy o'yin xususiyatlari mansub: fazoda emas, vaqt mobaynida cheklanish, ixtiyorlik, odatiy hayot chegarasidan chiqish, muayyan "o'yin qoidalarini" mavjudligi.

Modaning ikkinchi (sirtqi) - qiymati konkret vaziyat va moda muxlislarning kategoriyasi bilan bog'liq, ular qarama - qarshi qiymatlarni ko'zlaydi: ijtimoiy tenglikni yoki elitarlikni, go'zallik yoki faqat qulaylikni va b. Bir xil moda namunalari har xil maqsadga erishishga imkon beradi. Masalan, sitilgan djins buyum bittalar uchun prestij marka bilan maqtanish imkoniyati bo'lsa, boshqalar uchun esa o'z demokratiyligini, iste'molda odamligini namoyon etishdir.

Ikkikchi qiymatlar insonni dunyoga va o'ziga, jamiyatga va ijtimoiy guruhlarga, tabiatga munosabatini namoyish etadi. U yoki bu modali namunalarni tanlaganda odam shularni faraz qiladi: "Men hammadek", "Menda boshqalarda yo'q narsalarim bor", "Menda hohlagan narsalarim bor". Ma'lum modani tanlaganda inson modaga o'z munosabatini namoyish etadi.

3. Modada o'z funksiyalari va omillashtirish qonuniyatlari bor.

Yetakchi funksiyalaridan biri - **biostimulyasiya** va **yangilanishdir**. Bu funksiya inson qiyofasini faqat mavsum, iqlim va jug'rofik sharoitlarga mos yangilanmasdan, hayotiy jarayonlarni stimullashtirib, ularni normal bo'lishiga imkon beradi. Uning ritmi tabiiy ritmlariga mos bo'ladi.

Hamma tan olgan modaning funksiyasi - **ijtimoiy**. G.Dj. Blyummer modaning ijtimoiy funksiyasini quyidagicha taqsimlaydi :

- moda - fantaziyaning beg'araz o'yini, odamlarning injiqligini natijasi;
- moda - odatlarni xukmronligidan halos bo'lishiga imkoniyat beradigan vosita;
- moda - sanksiyalangan tavakkalning bir turi;

- moda - shaxs o'z o'zini namoyon etish vositasi;
- moda - yordamida sinflar ajralib turadi.

Moda demokratlashsa ham (shakl oddiylashadi va haddan tashqari utilitarlashadi), kostyum muayyan ijtimoiy sinf belgisini namoyish etadi.

Kostyum tarixi barcha davrlarida **erotik** funksiyani bajargan. Ayollarning uzun yumshoq va yupqa kiyimlari harakatda tana shakllarini ko'rsatardi. Asosiy qoyida: tana qanchalik berk bo'lsa, shunchalik erotik ta'sir etadi, ya'ni libos ko'rish uchun emas, balki tasavvur etish uchun imkon berishi lozim. O'tgan davrlar ko'ylaklarida chuqur dekolte bo'lardi; agar dekolte kichiraysa, bo'lsa shaklini kattaytiradigan turnyurni (sun'iy moslama) kiyishardi. Bu ham erotik ta'sir etardi.

Ammo, kostyumda erotik funksiya faqat jins tomonlarini ko'rsatmagan, zamonaviy kostyumda uni inkor qilib, uniseks kostyumi (ma'lum jinsga mo'ljallanmagan liboslar) yaratilgan. Masalan, djins shimlar, krossovkalar, beysbolkalar, futbolkalar va b. Modada erotik funksiyasi asosiy bo'lsa, bu ijtimoiy inqiroz bo'lgani belgisidir.

Belgi - bu moddiy, his qilinadigan elementdir. Kostyumda belgi - bu tizim, chunki uni barcha elementlari muayyan ma'noga ega. Masalan, tugma faqat taqilma vositasigina emas, balki tizim belgisidir. Kostyum yoqasining muayyan geometrik shakli - bu individuallik va konkret modani belgisidir. Shunday yoqa shakli davr xossalarini, ijtimoiy yoki uslubiy belgilarini ifodalaydi. Masalan, "freza" shakldagi yoqa - Ispan Uyg'onishni; "Mariya Styuart" nomli yoqa - Ingliz Uyg'onishni; marjon yoqa - Misr fir'avn belgisi bo'lgan.

Moda tadqiqotchilari modada quyidagi sikllarini aniqlashdi:

- yangi moda paydo bo'lishi bir necha bosqichlardan iborat: yangi modani ixtiro etilishi, unga nom berilishi, moda peshqadamlarni paydo bo'lishi;
- modani ommabop tarqalishi (taqlid bosqichi, "chuqqi", adaptasiyasi) ikki bosqichdan iborat: modaga norasmiy peshqadamlari va so'ng ko'pchilik qo'shiladi; buyum ommabop ishlab chiqarilganda moda o'ziga xosligimi yo'qotadi, peshqadamlar yangi modani qidirib topadi;
- moda inqiroz bo'lganda bu kiyimlarni odatda "konservatorlar" (modadan ortda qolganlar) kiyishadi.

Bozor iqtisodida modani o'ziga xos roli - iste'mol sikllarini qisqarishiga sabab bo'ladi. Buyumlar imidjini ongli ravishda tez o'zgartiriladi, buyumlar dizayni loyihalaganda estetik va fizik eskirishini nazarda tutadi. Shu bilan, ishlab chiqaruvchi buyumlar bilan foydalanish muddatini kamaytirib, yangilarni sotib olishga majbur etadi.

4. Modami siklsimon rivojlanish qonuniyati uni bashoratlashga imkon beradi. Bashorat (prognoz) - bu kelajakda ob'ektning xolatini ilmiy asoslangan mulohazasi.

Prognozlar vaqt davomiga ko'ra quyidagicha farqlanadi:

- operativ – bir oygacha;
- qisqa muddatli - bir oydan bir yilgacha;
- o'rta muddatli - bir yildan besh yilgacha;
- uzoq muddatli - besh yildan 15 yilgacha;
- cheksiz muddatli - 15 yildan ko'proq.

Shunisi ayonki, modani prognozlash mahsulotni ommabop ishlab chiqaradigan korxonalarning talablari bilan bog'liq: uni ishlab chiqarishni rejalashtirish zarurligi, yangi modali namunalarni paydo bo'lishini rejalashtirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, yangi konstruksiyalarni yaratish zarurligi bilan asoslangan.

Yangi kiyimlar kolleksiyasi taxminan yarim yildan oldin namoyish etiladi, loyiha esa 1-1,5 yildan oldin qilinadi. Ko'pincha qisqa va o'rta muddatli prognoz qilinadi.

Prognozlash asosida kelajak to'g'risida uch o'zaro bog'liq manbaalar mavjud:

1) prognozlanadigan ob'ektni taraqqiyot istiqbolini ma'lum jarayonlar va voqealar analoglari bilan solishtirish. Modani prognozlaganda san'at asarning yangi rag'batlarini taqqoslash: me'morchilikda formal-estetik tilini, haykaltaroshni, rangtasvirni, kompyuter grafikani va b. o'rganish;

2) o'tmishida va hozirgi vaqtda rivojlanish qonuniyatlari ma'lum rag'batlarni kelajakda shartli davomlash (ekstrapolyasiyalash). Modani siksimon rivojlanishi shunday prognoz qilish uchun imkon beradi;

3) kutayotgan yoki hohlayotgan shartlarga mos, ularni istiqboli ayon bo'lgan modellarni yaratish. Dizaynda shunday modelni futuroloyiha deyishadi. Ularga avangard dizaynerlar kiyim kolleksiyalarini kiritish mumkin.

Moda prognozi ijtimoiy prognozlarga asoslanadi, ya'ni ijtimoiy ehtiyojlarga, turmush tarziga, demografik va ta'minlaganlik darajasiga va h.k. Ijtimoiy prognozlar aholi va ekspertlarni anketa so'rovi, insonning yoki ijtimoiy guruhni, insonni yashayotgan buyum muhiti, yashash sharoiti va h.k. asosida prognoz qilinadi. Aynan shunday ma'lumotlar kelajak modani prognozlashga imkon beradi. Prognoz bilan shug'ullanadigan mutaxassislar - "trend-skaut"lar, ular tasodifiy modani o'rganishadi, diskoteka, prem'eralar, ko'p odamlar yig'ilgan joylarga (rok-konsertlar, stadionlar, savdo markazlar va h.k.) borib, yangi tamoyillarni aniqlaydi. Masalan, kiyimni noan'anaviy kiyish usulini, elementlar birikmasini, muayyan uslublarni. Bundan tashqari ular modada dizayner - avangardistlarning so'nggi kolleksiyalaridan kelajak modaning elementlarini ular anglashi mumkin. Yirik kompaniyalarda albatta shunday tadqiqot bo'limlari bo'lishi lozim.

Modaga umuman orientasiya etish faqat modani e'tiborga olishinigina nazarda tutmaydi, balki unga ta'sir etish, uni boshqarishga imkon beradi. Modani effektiv boshqarish uchun faqat muayyan ko'p g'oyalarni mavjudligi emas, balki uni paydo bo'lish va o'zgarish ijtimoiy sabablarini tushinish kerak.

Nazorat savollari

1. Moda tushunchasini ta'riflab bering.
2. Modaning tarkibi.
3. Moda funksiyalari.
4. Moda rivojlanishining asosiy qonuniyatlari.
5. Modani siksimon rivojlanishi.
6. Prognozlar vaqt davomiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
7. Moda prognozi bilan shug'ullanadigan mutahassislar qanday nomlanadilar?

Ma'ruza № 3 (2 soat)

Mavzu: KOMPOZISION KATEGORIYALAR.

Reja:

1. Material hususiyatlari va tektonika
2. Shakl va tektonika
3. Notektoniklik sabablari
4. Kompozision shakllantirish tushunchasi
5. Shaklning xajmdorlik darajasi
6. Kostyum silueti
7. Kostyumdagi chiziqlar
8. Shaklning katta-kichikligi va vazni

Adabiyotlar:


1. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды. - М.: Академия, 2000.
2. Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В. Композиция костюма. - М.: Академия 2003
3. Хасанбоева Г.К., Шомансурова М. Maxsus kompozisiya asoslari. - T.: Yangi asr avlodi, 2008.
4. Пармон Ф.М. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. - М.: «Триада плюс», 2002.

1. Kompozisiya nazariyasi kuzatilayotgan xodisalar orasidagi umumiy va muhim aloqalar va munosabatlarni aks ettiruvchi kategoriyalarga asoslangan bo'ladi. Kostyum kompozisiyasida tektonika bilan xajmiy-fazoviy struktura asos hisoblanadi.

Архитекtonика – грекча so'z bo'lib, me'morchilik, qurilish san'ati, bino loyihalari sistemasida qurilish qonunchiligini badiiy ifodalanishidir.

T e k t o n i k a - bu buyum shaklida material va konstruksiyani to'g'ri aks ettirilishi.

Shakl ifodalilikning estetik vositalaridan biri bo'lib, tektonika buyumni material-konstruktiv asosi va ishlab chiqarish texnologiyasi bilan uzviy bog'langan. Bu bog'lanish turli darajada ko'rinishi mumkin. Ba'zan, tektonik usul ustunlik qilib, kompozision echimni belgilaydi.




Rassom ongli ravishda materialni tanlaydi, hususiyatlarini aniqlaydi, konstruksiyada uni aks ettiradi va buyumga texnologik ishlov berib umumiy g'oyaga, ya'ni badiiy va kompozision g'oyaga bo'ysundiradi.

Estetik ifodalilik nuqtai nazaridan shaklni afzalligi bu - texnologik to'g'ri ishlov berish, shaklda qo'llanadigan materiallar va konstruksiyalarning o'ziga xos muhim va xarakterli hususiyatlarini aniqlashdir.

Materialning barcha imkoniyatlarini, ularning texnologik hususiyatlari bilan bog'liq tashqi ko'rinishni to'liq bilish, kompozision jarayonida materialni keng va erkin qo'llashda dizaynerga yordam beradi.

Har bir materialni o'ziga xos hususiyatlari bo'lib, ana shu hususiyatlar muayyan shaklga asos qilib olinadi. Masalan, gazlama, trikotaj, noto'qima va plenkali materiyallar mahsus plastik hususiyatlarga ega. Ular shaklning xarakterini, ya'ni yumshoqligini, oqib turganligini, qattiqligini va b. shaklni konstruktiv echimini aniqlaydi.



Masalan, shifondan bo'laklari minimal miqdorda bo'lgan mayin, plastik, yyengil shakl yasalsa, parchadan, qattiq, «quruq», geometrik shakl yasaladi. Yupqa harir kapron matolar birmuncha taranglikka ega, shuning uchun buyum shakli keng bo'lib, choklari minimal bo'lishi kerak. «Yog'li» to'kilib turadigan yaltiroq gazmollar (krep-satin, krep-atlas) yaxshi drapirovkalanadi va kerakli darajada shakl yaratishga yordam beradi, ular gavdada plastik sirg'anib tovlanadi.

«Quruq» gazmollar (lavsanli jun, zig'ir) odmi, aniq shakllarni hosil qiladi. Trikotaj matolarni plastikasi yumshoq, gavdada sirg'anadigan shaklni yaratishga yordam beradi, ammo trikotajni texnologik hususiyatlari buyumda kam chokli bo'lishiga majbur qiladi.

2. Kostyum shaklini plastikligi to'g'risida gapirganda (uning geometrik aniqligi, ovallikligi, yumshoqligi, qattiqligi va x.), biz doimo materialni plastik

hususiyatlarini ko'zda tutamiz. Shuning uchun ma'lum geometrik turli shaklni yaratganda, g'oyat katta xilma-xillikdan faqat o'z plastik hususiyatlari bilan shu shaklni turg'unligini saqlaydigani tanlanadi.

Kompozision yechimi va ishlash texnologiyasi bilan bog'liq mahsus tanlangan material hususiyatlari har xil, ba'zan, kontrast yechimlarni yaratishga imkon beradi. Masalan, jun gazmoldan ko'ylakning yoqasiga va bortiga qotirma qo'yilsa, yubkasi esa klyosh bo'lsa, bu xolda gazmol qattiq va plastik yumshoq ko'rinadi. Demak, bir xil materialdan har xil shakl yaratishga turli texnologiya imkon beradi.

Boshqa badiiy vositalarga nisbatan ITning yutuqlari tektonikaning o'ziga xos xususiyatlariga ta'sir etadi. Fan va texnikani jiddiy aloqasi oldin yaratilgan tektonik sistemalarga o'zgarish kiritadi. Yangi material yangi shakl talab etadi. Lekin hozirgi zamonda sun'iy va sintetik materiallarga tabiiy materiallarning hususiyatlari beriladi. Agar materialni o'ziga xos hususiyatlari qo'llanmasa, unda estetik zo'ravonlik yuz berib, notektonik bo'ladi.

Tektonikaga bog'liq savollarni echganda muallif buyumni maqsadga muvofiqligini, mustaxkamlikni, oddiy tayyorlashlikni va tejamlilikni hisobga olish kerak.

Badiiy konstruktsiya shakl buyumlarini o'zaro funksional bog'lanishlarni aks etadi, uning roli - birlik va muvozanat taassurotni yaratishdir.

3. Materialdan buyumning qanday ishlash nuqtai nazaridan foydalanish, har qanday buyumning chinakam tektonikligiga erishishning muhim shartidir. Agar muayyan materialning potensial-konstruktiv imkoniyatlaridan foydalanmasa yoki bundan ham yomoni, uni g'ayritabiiy tarzda ishlashga majbur etilsa (masalan, zich to'qilgan, dag'al materialdan drapirovka qilinsa, yoki plastik gazmoldan aniq geometrik siluet loyixalashtirilsa), unda tektonika buzilishidan qutilib bo'lmaydi. Odamning xarakatlari natijasida chinakam zo'r kelishlar hisobga olinmasa, shakl konstruktsiyasini ishlayotganda notektoniklik yuzaga keladi.

Qachonki tektonika muayyan badiiy yaxlitlikning uzviy qismi bo'lsa, shundagina u aniq va ifodali bo'lib chiqadi.

Nima uchun tektonika kompozisiyasining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi? Gap shundaki, konstruktsiya va shaklning konkret materialda ifoda topgan o'zaro bog'liqligi - bu eng muxim jixat bo'lib, u butun buyumning kompozisiyasini va kompozisiya ustida olib borilgan ishni, ya'ni kompozision vositalardan boshlab, shakl xarakterini hamda uning nyuanslarini topishga qadar ishni belgilab beradi.

4. Buyumni tashqi ko'rinishini va chegarasini ifodalaydigan geometrik moxiyati-shakl deb hisoblanadi.

Sh a k l (lot. *Forma*) - tashqi ko'rinish, chegara.

Shaklni tanlash va uni tuzilishidan san'at boshlanadi deyishadi.

Shakl - buyumning mavjudligini usuli, texnik va estetik zarurligi bilan ta'riflanadi.

Shakl ma'lum psixologik ma'noni ifodalaydi va ma'lum obrazli mazmunni ifodalovchi ramz sistemasi bo'ladi.

Har bir buyum shakliga uning hamma elementlarining bir-biri bilan va fazo bilan o'zaro muayyan ta'sir etish nuqtai nazaridan qarash xajmiy-fazoviy struktura deb hisoblash mumkin. Bu struktura ba'zan oddiy va ixcham, ba'zan esa juda marakkab bo'ladi. Hajmiy-fazoviy stukturaning murakkablik darajasi qandayligidan qat'iy nazar undagi barcha elementlarning o'zaro aloqadorlik sistemasi tektonika bilan bir qatorda chinakam uyg'unlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Kompozitsiyaning ikkita asosiy kategoriyalari o'zaro mustahkam bog'liqdir. Tektonikaning buzilishi sanoat buyum strukturasi elementlarining uzviy aloqadorligiga albatta ta'sir etadi, shuningdek xajmiy-fazoviy echimning prinsip jixatidan noto'g'ri hal etilishi tektonik xarakterdagi xatoliklarga olib keladi.

Kostyum yaratayotganda uning nimaga mo'ljallanganligini va qanday sharoitda ishlatilishini bilish kerak. Kostyum qulay, ishbob va chiroyli bo'lishi kerak. Shuning uchun kostyumning shakli, konstruktiv hal etilishi, materiallarning tanlanishi, bezaklari va rangi uning asosiy vazifalariga, ya'ni estetik va amaliy vazifalariga itoat etgan bo'ladi.

Qismlarning muayyan tartibda tashkil topganligi, ya'ni strukturasi kostyumni xarakterlab beradi. Struktura deganda obrazli, funksional va texnik yechimga bog'liq bo'lgan geometrik shakl elementlarining muayyan fazoviy sistemasini tushunish kerak.

Kostyumni ma'lum s t r u k t u r a ifodalaydi. Struktura elementi - bu eng oddiy geometrik shakl, ya'ni shakl yaratish uchun material. Kostyum strukturasi aniqlash uchun xajmlarning geometrik asoslarini ajratib olish kerak. Bu holda, albatta, bezak elementlari hisobga olinmaydi. Kostyumda asosan uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, trapesiya va oval kabi geometrik shakllar struktura elementlarida uchraydi.

Kostyum shaklini quyidagi xususiyatlari ifodalaydi: shaklning geometrik turi, uning xajmdorlik darajasi, silueti, chiziqlari; shaklning katta kichikligi; shaklning vazni.

Sh a k l n i n g g e o m e t r i k t u r i shaklning fazoviy koordinatlaridagi o'lcham miqdorlarining nisbati bilan, umuman shakl yuzasining xarakteri bilan belgilanadi.

Kostyum shaklini ko'rib chiqayotganimizdagi dastlabki taassurot shaklning xajmdorlik darajasidan, siluet va chiziqlaridan chiqib keladi.

5. H a j m d o r l i k d a r a j a s i - bu uchta fazoviy koordinata bo'ylab shakl o'lchamlarining nisbatidir. Shaklning xajmdorlik darajasi bitta (vertikal bo'ylab) o'lchami ustunlik qilsa, shkal chiziqli xarakterda bo'ladi; ikki (bo'y va eni) o'lchamlari ustunlik qilsa, shakl tekislik xarakterda bo'ladi va shaklda uch o'lchami ustunlik qilsa, u xajm xarakterida bo'ladi.

Buyumni xajmdorlik darajasini tanlash kostyumning nimaga mo'ljallanganligi va gavidani tuzulishi bilan bog'liq. Masalan, chiziqli xarakterdagi shakl bashang kiyimlar uchun tavsiya etiladi; tekislik xarakterdagisi har qanday ishga mo'ljallangan kostyum uchun va barcha turdagi gavidalar uchun tavsiya etilish mumkin; xajm xarakterdagi shakl esa asosan bo'ychan, ozg'in gavidalarga mo'ljallangan bashang kiyimlar uchun tavsiya etilishi mumkin.

6. Kostyum shaklini eng ifodali proeksiyasi (yoki proeksiyalari) **s i l u e t** deb ataladi. Odatda kostyum shaklini asosan frontal (oldi ko'rinishi) va ayrim payitlarda profil (yon ko'rinishi) proeksiyasi ifodalaydi.

Kostyum siluetini turlarini quyidagicha tasniflash mumkin: shaklning geometrik turi, shaklda bel chizig'ini joylanishi, shaklni gavdaga yopishib turish darajasi.

Avval ko'rsatilganday kostyumda uchraydigan asosiy geometrik shakllar bu to'g'ri to'rtburchak, trapesiya va oval. Lekin shaklni aniqroq tasavvur etish uchun uni ba'zi buyumlarga (bo'chkacha, urchuq, yashchik, penal va x.), o'simliklarga (lola, chuchmo'ma, banan va x.) va harflarga (X-simon, U-simon, A, D, T va x.) taqqoslanadi.

Gavdaga yopishib turish darajasiga binoan kiyim silueta yopishib turadigan, nim yopishib turadigan va to'g'ri bo'ladi.

Bel chizig'i xolatiga binoan siluetlar quyidagi bo'lishi mumkin: bel chizig'i tabiiy xoldan yuqoriroqda, tabiiy joyida, pastroq tushgan va sezilmaydigan.

Kostyum siluetini ifodalaydigan qo'shimcha xususiyatlari:

- etak chizig'ini tizzaga nisbatan xolatiga binoan - mikromini, mini, midi, balet uzunligi, maxi, supermaxi;
- yelka chizig'ini xolatiga binoan - elkalari ko'tarilgan, kengaytirilgan, tabiiy joyida;
- bo'ksa chizig'ini xolatiga binoan;
- ko'krak chizig'ini xolatiga binoan.

7. Shaklning ifodalovchi siluet chegaralardan iborat bo'lsa, kostyumning yechimlari esa shu chegara doirasida hal qilinadi. Kiyimning chegaralari, alohida qismlarining, detallarining chegaralari, choklar, bezaklar, drapirovkalar va x. **ch i z i q l a r** deb hisoblanadi.

Kostyum kompozitsiyasida ikki guruh chiziqlar uchraydi:

- o'zgarmas radiusli chiziqlar;
- o'zgaruvchan radiusli chiziqlar.

Chiziqlar turi odamga har xil ta'sir etadi. o'zgarmas radiusli chiziqlar statiklik, osoishtalik va turg'unlikni aks etadi; o'zgaruvchan radiusli chiziqlar esa, dinamiklik beradi va ko'zga yaqqol tashlanadi.

Kostyumdagi chiziqlar uzuliksiz va uzulikli bo'lishi mumkin, sinq chiziqlar ham kostyumda uchraydi.

Bajarayotgan vazifasiga ko'ra, kostyumda quyidagi asosiy chiziq guruhlariga bo'linadi:

- siluet chiziqlari - shaklni tashqi konturlarini chegaralovchi chiziqlar;
- konstruktiv chiziqlar - kiyim shaklini hosil qiluvchi chiziqlar (yelka va yon choklar, vitochkalar, yeng o'tkazish choklari va x.);
- konstruktiv - dekorativ chiziqlar - kiyim shaklini hosil qiluvchi ham dekorativ vazifalarni bajaruvchi chiziqlar (bo'rtmalar, koketkalar ulash choklari, qirqimlar, taxlamalar, drapirovkalar, releflar, buflar va x.);
- dekorativ chiziqlar - shaklni bezatuvchi chiziqlar (qo'yma burmalar, tasmalar, kashata, furnitura, bezak detallar va x.).

Chiziqlar kostyumda katta rol o'ynaydi, chunki ular nazarimizni shaklning yuzasi bo'ylab yetaklab, dinamika hosil qiladi va gavdani ma'lum ko'rinishda idrok etilishiga ta'sir etadi.

8. Sh a k l n i n g k a t t a k i c h i g l i g i. Shaklning bu hususiyatiga kiyim shakli katta-kichigligi bilan odam gavdasining nisbati tariqasida, shuningdek ikki yoki uch shaklning bir-biriga taqqoslayotgandagi nisbati tariqasida qaraladi. Faqat ko'rinishi o'xshash kiyimlarga katta-kichiklik jixatidan taqqoslash mumkin.

Shaklning katta-kichigligi kostyumni nimaga mo'ljallanganiga va gavdani tuzilishiga ko'ra tanlanadi va moda yo'nalishida belgilanadi.

V a z n (massa) - bu umuman kiyim shaklini yoki undagi alohida qismlarining ko'rinishdagi og'irlik miqdori.

Shakl vaznini ko'rib idrok etilishiga quyidagilar ta'sir etadi:

- shaklning xajmdorlik darajasi - xajm xarakterdagi shaklning vazni og'irroq, maksimal; chiziqli xarakterdagi shakl vazni esa yyengil, minimal bo'lib ko'rinadi;
- shaklning katta-kichigligi - kattarok shaklning vazni og'irroq tuyuladi;
- shaklning o'z chegarasi doirasida konstruktiv, konstruktiv - dekorativ, dekorativ chiziq'larga qanchalik to'lganlik darajasi shaklni vaznini har xil ko'rsatadi. Masalan, kiyim shaklida chiziqlar siyrak bo'lsa, vazni yyengil, ko'p bo'lsa - vazni og'ir bo'lib tuyuladi;
- materialning rangi, strukturasi, tola turi, fakturasi va naqshi shaklni og'irligini har xil qilib ko'rsatadi. Masalan, siyrak strukturalar, ipak va paxta gazmollar, fonni siyrak to'ldirgan mayda naqshlar shaklni yengil qilib ko'rsatadi; to'q ranglar, zich to'lgan rasmlar, katta rasmlar, yaltiroq faktura va b. shaklni og'ir qilib ko'rsatadi;
- kiyimni chap tomonida jolashgan detallar yengilroq seziladi, o'ng tomonidagilari esa og'irroq tuyuladi;
- kiyimni belidan pastroq joylashgan detallar yengilroq, belidan yuqori joylashganlari esa – og'irroq tuyuladi;
- markazda joylangan detallar pereferiyada joylangan detallarga nisbatan yengilroq tuyuladi.

Kostyumni loyixalayotganda uning vazni mavsumga, odamni yoshga, gavdani tuzilishiga, kiyimni nimaga mo'ljallaniga asoslanib echiladi.

Nazorat savollari

1. Tektonika tushunchasi nimani anglatadi?
2. Tektonik hususiyatlari bo'yicha materiallar qanday guruhlariga bo'linadi?
3. Shakl tektonikasiga nima ta'sir etadi?
4. Konstruksiya va tektonikani o'zaro bog'liqligi.
5. Figura tuzilishi va tektonika.
6. Buyumni vazifasi va tektonika.
7. Notektoniklik paydo bo'lishiga nima sabab bo'ladi?
8. Nima uchun tektonika kompozitsiyasining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi?

9. Shakl tarkibi va uning elementlari.
10. Qanday hususiyatlar shaklni tavsiflaydi?
11. Shaklning xnmдорlik darajasiga nima ta'sir etadi?
12. Siluetni nima ifodalaydi?
13. Shaklning geometrik turi bo'yicha kostyum silueti turlari.
14. Chiziqlar buyum shaklida qanday funksiyani bajaradi?
15. Bajaryotgan vazifasiga ko'ra kostyumdagi chiziqlar guruhi.
16. Shaklning katta-kichikligiga nima ta'sir etadi?
17. Shakl vazni deganda nima tushuniladi?
18. Kostyum materiali shakl vazniga qanday ta'sir etadi?

Ma'ruza № 4 (2 soat)

Mavzu: KOMPOZISIYANING ASOSIY QONUNIYATLARI VA HUSUSIYATLARI

Reja:

1. Kompozision yaxlitligi
2. Statiklik va dinamiklik
3. Simmetriya va asimmetriya
4. Kompozision muvozanat

Adabiyotlar:

1. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды. - М.: Академия, 2000.
2. Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В. Композиция костюма. - М.: Академия 2003
3. Хасанбоева Г.К., Шомансурова М. Махсус композиция асослари. - Т.: Янги аср авлоди, 2008.
4. Пармон Ф.М. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. - М.: «Триада плюс», 2002.

1. Har qanday kompozisiyani asosiy elementlari bilan ahamiyati kamroq va ikkinchi darajali elementlarning bir-biriga bo'ysunganligiga asoslangan muayyan sistema deb qaralsa bo'ladi. Bunda asosiy va bo'ysungan qismlar bir butunlikni tashkil etib, bir-birini kuchaytiradi.

Kompozision tuzilgan shaklda, shu jumladan kostyumda ham, asosiy qism yoki kompozision markaz mavjud bo'lib, boshqa qismlar unga bo'ysundirilishi zarur. Asosiy qism yaxlit kompozisiyada hukmron bo'lib turadi.

Kompozision markaz gavdani istalgan qismida joylanishi mumkin. Masalan, yuzida, belda, bo'ksada, ko'krakda, oyog'ida, va boshqa joylarida bo'lishi mumkin. Kostyumning istalgan qismi - masalan, bosh kiyim, ust kiyim, oyoq kiyim, sumka, bezak va b. kompozision markaz bo'lishi mumkin.

Bosh kompozision markazni joylanishi jins-yosh alomatlariga, gavda tuzilish turiga, modaga va kiyimni nimaga mo'ljallanganligiga bog'liq. Kompozision markazni bo'rttirib ko'rsatish uchun shakl elementlarini o'zaro tengsizligi bo'lishi lozim. Shakl elementlarining o'zaro tengsizligini belgilagach, kompozision markazning boshqa qismlaridan ustunligini ta'kidlab, qonuniyatlar asosida kompozision markazni bo'rttirib ko'rsatishga erishiladi. Kompozision markazni bo'rttirib ko'rsatish qonuniyatlari quyidagicha:

M i q d o r qonuni. Yaxlit shakl qismlarining orasida detallarni katta-kichikligi, hajmi, vazni yoki bir xil bezaklarni miqdori, boshqa hususiyatlari teng bo'lgan holda, eng kattasi ustunlik qiladi.

M a r k a z d a j o y l a s h qonuni. Bo'rttirib ko'rsatiladigan qismning nisbatan markaziy joyda joylanishi, boshqa barcha jihatlari teng bo'lgan holda, shu qismni asosiy kompozision markaz sifatida ko'rsatadi.

S i f a t qonuni. Hususiyati yoki bir guruh hususiyatlari jihatidan ko'proq bo'lgan qism ustun bo'lib turadi. Rasmiy xarakterda bo'lgan har qanday turli bezaklarning har xil aktivligidan va sifatidan foydalanish asosiy qismni bir butundan ajratib ko'rsatish usullaridan biri bo'ladi.

M a ' n o o m i l i qonuni. Bir butunning ma'nosi bor bezakli qismi (emblema, aktiv bezaklar, daraja belgilari va b.) rasmiy xarakterdagi bezakli qismlardan ustunlik qiladi.

Murakkab kompozisiyalarda kostyumda bir necha bir biriga bo'ysungan kompozision markazlar bo'lishi mumkin. Ammo, har biri o'z kompozision qismida ustunlik qilgan holda, ular boshqa kompozision markazlar bilan bog'lanib bosh kompozision markazga bo'ysunishi kerak.

2. Kompozisiyaning ifodaliligi, uning tushunishga qulayligi shaklning bo'ysungan qismlardan bosh kompozision markaz tomon harakatda bo'lib ko'rinishi (**d i n a m i k a s i**) qay darajada hosil qilganligiga bog'liq. Nimaiki bo'rttirilayotgani aniq bo'lishi uchun, dinamika kostyumning qaysi qismiga qaralsa ham, u dizayner tomonidan bo'rttirib qo'yilgan qismni ko'rsatadigan bo'lishi lozim.

S t a t i k l i k - Shakl turg'unligining, osoyishtalik holatining bo'rttirib ifoda etilganidir. Shaklning statikligi o'lchamlar tengligi yoki nyuansini xarakterlaydi.

D i n a m i k a - bu shakl yuzasida ko'z ilg'aydigan harakat. Shaklda dinamika hosil bo'lishi uchun shakl hususiyatlarini birortasini tengsizligi bo'lishi kerak.

Shaklda dinamika paydo bo'lishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- Shaklning o'lchamlarida tengsizlik bo'lsa, harakat ko'p miqdordan kam tomoniga yo'nalgan bo'ladi;
- Shakl kontrast qismlarga bo'linganda kattaroq qismdan kichikroq qism tomon harakat-dinamika paydo bo'ladi;
- Shakl ichidagi chiziqlar yonalishining xarakteri qandayligiga ko'ra shaklda turli yonalishda dinamika hosil bo'ladi va shaklning dinamikligi kuchayadi;
- Shaklda bir necha rang qo'llansa, och, yorqin ranglar o'z tomoniga dinamikani hosil qiladi;

- Shaklning kompozitsiyasida qo'llangan ritmik tuzilishlar ham dinamikani hosil qilish mumkin.

Kostyum kompozitsiyasida shakl ifodali, tushinishga qulay bo'lishi uchun dinamika kompozitsion markaz tomoni yo'nalishi kerak. Agar dinamika yonalishi kompozitsion markaz tomoni bo'lmasa, kompozitsion markazni kuchaytirish zarur yoki harakat yo'nalishini o'zgartirish lozim.

Dinamikani hususiyatlarini inobatga olib, gavdani tashqi ko'rinishini o'zgartirish mumkin. Masalan, figurani balandroq ko'rinishi uchun dinamikani yuqoriga yonaltirish lozim, ozginroq ko'rsatish uchun esa - dinamika gorizontal yonalishda markaz tomoniga bo'lishi kerak.

3. S i m m e t r i y a - kompozitsiyaning yeng yorqin va ko'zga tashlanib turadigan hususiyatlaridan biri.

«Simmetriya ... uning yordamida inson bir necha asrlardan beri tartibga, go'zallikka va kamolotga yetishmoqchi va buni yaratmoqchi bo'lib kelgan o'sha g'oyadir» (G.Veyl. Simmetriya- M.: Nauka, 1968, 37b.). Demak, simmetriya oddiy bir takrorlanish emas, balki o'ziga xos go'zallik normasi.

Antik san'at nazariyasida simmetriya - bu faqat oynali aks emas, balki bu jiddiy proporsionallik deb tushintirilgan.

Shaklni va uning bo'limlarini to'g'ri tuzilishini keng ma'noda simmetriya deyiladi.

San'atda simmetriya - ob'ektiv dunyoni real qonuniyatlarini ifodalanishidir.

Simmetriya qonunlari o'simlik va xayvon dunyosini tuzilishida, kristall va atomlarda, me'morchilikda, dekorativ - amaliy san'atda, musiqada, raqsda va x. uchraydi.

Simmetriyani umumiy tariflanishi - bu kompozitsiya elementlarini fazoda qonuniy taqsimlanishi.

Kostyum kompozitsiyasida simmetriya muhim rol o'ynaydi. U bilan kostyumni detallari va qismlarni taqsimlanishi aniqlanadi.

Kostyum simmetriyasi gavdani tabiiy simmetriyasi va funktsionalligi bilan aniqlanadi. Odam figurasi - bu qavatli murakkab simmetriya turi. Masalan, yuz tuzilish, yelka va qo'l, bo'ksa simmetriyalari kostyum shakli simmetriyasining asosi bo'ladi. Buyumlarni har bir qavati oynali simmetriya usulida bo'lgani kostyum shaklini simmetriyasiga sabab bo'ladi.

Ammo odamning figurasi mutlaqo simmetrik emas. Shuning uchun odam faqat simmetriya bilan yashamaydi.

Asimmetriya faqat odamni tuzilish vazminida muhim rol o'ynamasdan, balki tana funksiyasiga va odamning figura tuzilishi bilan bog'liq. Vazminlik simmetriya shaklga asimmetriklikni kirg'izish bilan erishiladi.

Asimmetrik usul simmetrik kompozitsiyada rang, bichim, har xil materiallar, chiziqlar, bezaklar, detallar joylanishi bilan erishiladi.

Asimmetriya simmetriya singari go'zallikka intilish kerak va uyg'un yaxlitlikni yaratishi lozim.

Shakl bilan ishlaganda simmetriya va asimmetriya oralig'ida kompozitsion muvozanatiga erishish kerak va qachonki unga erishilsa, umumiy yechim rasional va go'zal bo'ladi.

Agar simmetrik kompozisiya darhol tushinilsa, asimmetrik kompozisiya esa asta-sekin ochiladi. Uning ustida ishlash murakkabroq va sezgirlik saviyani va kompozision muvozanatga erishish uchun nozik hisni talab qiladi.

Asimmetriya prinsiplari kostyum kompozisiyasida murakkabroq usullarni talab etadi.

Simmetrik kompozisiyaga asimmetrik elementlarni kiritish kompozisiyani ifodalirok qiladi. Assimmetrik yechim faqat aniq simmetriya o'qi yo'qligida mumkin. Kostyumni funktsionalligi kompozisiyaning ikkita asosini qo'llaydi. Simmetriya figura tuzilishi bilan asoslanadi, asimmetriya esa - funktsionalligi va estetikligi bilan asoslanadi.

Kostyum - odam qobigi bo'lgani bois, simmetriya elementlari figura - shakl sistemasida aniqlanadi.

Shu holda eng oddiy elementlaridan biri *simmetriya tekisligi*. U old proeksiya markazidan o'tib, uni ikki morfologik bo'lakka bo'ladi (*morfa* - tuzilish, *logik* - bilim).

Simmetriya tekisligida joylashgan asosga perpendikulyar vertikal chiziq *simmetriya o'qi* deyiladi.

O'qqa nisbatan sistema ma'lum bir burchakka aylanganda u o'z o'zi bilan qoplanadi. *Tartib* - bu ko'rsatkich shakl o'z-o'zi bilan necha marotaba qoplanganligini ko'rsatadi. *Tartib o'q* simmetriyasi bor shakl necha marotaba teng geometrik bo'limlarga bo'linish mumkinligini ko'rsatadi. Misol uchun, 1 tartibli o'q - bu sistema 360^0 aylanganda o'z o'zi bilan qoplanadi, 2 tartibli o'q - 180^0 va x. Asimmetrik sistemada faqat 1 tartibli o'qi bo'ladi.

Simmetriya guruhlarini tavsifi.

Klassik simmetriya. Klassik simmetriya tuzilishlarda kompozisiya elementlarni fazoviy joylanishi o'zgartiriladi, metrik xususiyatlari esa o'zgarmaydi.

Klassik simmetriya kompozisiyalarni ikki tur geometrik tengliklar tavsiflaydi: oynali va qoplanma.

Oynali tenglik - fizik xususiyatlari teng shakl yoki shakl bo'limlarni fazoda tengsiz joylanishi. Elementlar fazoda burilib bir birini oynali aksini ifodalaydi.

Qoplanma yoki *ko'chirma* tenglik shakl elementlarini tekislikda ko'chishi nazarda tutiladi. Bu holda elementlar barcha nuqtalari bilan bir biri bilan qoplanadi. Bu tenglikning zaruriy sharti - elementlarni belgilangan yonalish bo'yicha qo'yish kerak.

Oynali simmetriya (aks) - tabiatda va inson yaratgan badiiy ijodida eng ko'p uchraydi. Bu simmetriya turi kristallar shaklida va o'simliklarda, odam tuzilishida, naqsh san'atida, haykaltaroshlikda uchraydi. Oynali simmetriyada o'ng va chap tomonlari bir-biri bilan almashadi.

Klassik simmetriyani yana bir turi - *ko'chirish*. Bu simmetriya turida shakl elementlari fizik xususiyatlari o'zgarmagan holda fazoda yoki tekislikda ko'chiriladi. Bu operatsiya naqshda ko'proq uchraydi.

T e k s l i k d a b u r i l i s h - parallel holatga va ma'lum burchakka ketma-ket burilish.

F a z o d a b u r i l i s h - tik o'q atrofida Shakl elementini burilishi. Bu simmetriya turi o'simliklarni gullarida uchraydi.

A f i n s i m m e t r i y a s i . Afin simmetriya tuzilishlar dastlabki shakl elementini bir xil deformasiya bo'lgan holda fazoviy joiyini o'zgarishi. Cho'zilish, siqish va surilish o'zgarishlarga nisbatan shakllar o'zgarmagan deb hisoblanadi.

C h o' z i l i s h - bu shaklni shunday o'zgarishiki, qachonki o'z oldingi holatini bitta tekislik saqlab qoladi. Ushbu tekislik cho'zilish tekisligi deb ataladi. Barcha boshqa parallel tekisliklar cho'zilish yonalishida suriladi. Cho'zilish satxlari gavdani gorizontall konstruktiv kamarlariga mos keladi.

S i q i s h - bu operatsiya cho'zilish operatsiyasiga qarama - qarshi. Siqish darajasi siqish tekislikdan masofaga proporsional. Siqish o'zgartirishlar kiyim bo'laklarini qisqartirishga olib keladi. Ushbu operatsiyani bajarish uchun Shaklni vertikal o'qini, uning geometriyasini, siqish tekisligini va o'zgartirmoqlik yonalishini belgilamoq shart.

S i l j i s h - bu Shaklni shunday o'zgarishi qachonki siljish tekisligi o'zgarmastan qoladi. Boshqa unga parallel tekisliklar o'z o'zida siljish yo'nalishi bo'yicha siljidi. Bu operatsiyani farqlovchi xususiyati - shaklni plastikasi o'zgargan holda, uning hajmi o'zgarmaydi. Siljish darajasi siljish tekislik masofasiga proporsional. Siljish o'qini belgilash uchun o'qni yonalishi bo'yicha va siljish tekisligiga normal orasidagi burchakni siljish darajasi va yo'nalishini aniqlash kerak.

Yubkada siljish tekislik sifatida figurani turish tekisligi olinadi, lifda esa bel kamaridan o'tadigan tekislik olinadi. Siljish yonalishi chapdan o'unga bo'lib, uning miqdori kiyimni nimaga mo'ljallanganiga asoslanib olinadi. Bashang kostyumlarda u maksimal bo'lishi mumkin; kundaliklarda – o'rta bo'ladi.

O' x s h a s h l i k s i m m e t r i y a . Bu simmetriya afin simmetriyani ayrim bir turi. Bir xil shakldagi figuralar o'xshash deb hisoblanadi. Asosiy o'zgartirish operatsiyalari - "K" va "L".

O p e r a s i y a "K" - shu simmetriyani eng oddiy turi deb hisoblanadi. Bu simmetriya turida shaklning o'xshash bo'limlarini «n» masshtablikda qattaytirib yoki kichraytirib parallel joylanadi. Mahsus nuqtalardan o'tadigan to'g'ri chiziq ma'lum bir nuqtaga boradi va mahsus nuqta deyiladi.

"L"-o p e r a s i y a murakkabroq. Bu operatsiya element o'qni atrofida ketma-ket burilishidan va operatsiya «K»dan iborat. O'qni harakati logarifm spiral bo'yicha yonaltiriladi. Burilish burchagi har xil bo'lishi mumkin. Bu simmetriya turida drapirovkalar, bichim chiziqlari, volanlar va b. tuzilishi mumkin. Bu simmetriya turi yaratish uchun vertikal o'q o'tqazilib, garmonik nisbatlar bo'yicha gorizontall yonalishda bo'linadi va nuqtalar vintsimon chiziqlar bilan birlashtiriladi. O'xshash vintli simmetriya tirik (chig'anoq) va jonsiz tabiatda uchraydi.

E g r i c h i z i q l i s i m m e t r i y a biologik shakllarda uchraydi. Uning ma'nosi - ma'lum deformasiya yordamida tog'ri shaklni egri shaklga aylantirish. Asosiy o'zgartirish operatsiyalari: dastlabki simmetriya shaklni egish, siqish, sindirish va eshish.

Eshish - bu dastlabki simmetrik shakl deformasiya qilinish natijasida egri o'q va egri yuzaga ega bo'ladi. Plastik egilishlar oddiy va murakkab bo'lishi mumkin.

Oddiy egish geometrik modelni yaratish uchun vertikal o'qni egilish yo'nalishini va egish darajasini belgilash kerak. Bu egish shaklni ikki proeksiyasi tavsiflaydi: frontal va sagital proeksiyalari.

Murakkab plastik egishni yaratish uchun dastlabki shaklni vertikal o'qni mo'ljallanadi va chap yoki o'ng tomonga murakkab yonalishda harakat beriladi. Bu o'zgarishni frontal va sagital silueta tavsiflaydi.

Siqish - bu dastlabki simmetrik shaklda deformasiya qilingan joyida shakl vazni saqlanib qolgan holda plastikasini jiddiy o'zgarishi. Shaklni siqish operatsiya yordamida o'zgarishi tarixda ikki xil bo'lgan: ingichka bel va yon ko'rinishini ingichka qilish. Birinchisi korset yordamida qilinsa, ikkinchisi esa kiyim yordamida yon ko'rinishini toraytirish.

Sindirish - bu operatsiyada dastlabki simmetrik shaklni shunday deformasiya qilish, qachonki shaklning o'qlari va yuzasi sindiriladi. O'qni harakatiga ko'ra ular bir necha bo'lishi mumkin. Maydalangan silueta bo'lak-bo'lak plastikasi-sindirish operatsiyaning o'zgartirish funksiyasi. Bu turdagi geometrik model simmetrisini yaratish uchun vertikal o'qni yonalishini aniqlash kerak.

Eshish - bu dastlabki simmetrik shaklni chap yoki o'ng tomonga eshish natijasida deformasiya qilish. Natijada shakl yangi fazoviy orientatsiyaga ega bo'lib, shunga moslangan plastikasi erishiladi.

Simmetriyani almashtirish mexanizmi. Kostyumda navbatdagi simmetriya turi o'zgarishi quyidagicha bo'ladi: avval shaklni fazoviy tashkil etishi o'zgaradi, ya'ni ayolning harakatlari o'zgaradi va yangi silueta olib keladi. Keyin kompozitsion aksentlarni taqsimlanishi, dekorativ va psixologik aksentlarni joylanishini o'zgarishi bilan qomati belgilangan silueta mustahkamlanadi.

4. **Kompozitsion muvozanati** kompozitsiyaning muhim xususiyatlaridan biri - bu shaklni barcha elementlari o'zaro balanslangan bo'lishidir.

Kompozitsion muvozanati - bu faqat miqdorlarni tengligi emas. U kompozitsion markazga nisbatan asosiy vaznlarni joylanishi va shunday darajada fazoni tashkil xarakteri, proporsional, asosiy va ikkinchi darajali o'qlar, shaklni plastikasi, rang va ton nisbatlari bilan bog'liq.

Kompozitsion muvozanati simmetrik va asimmetrik kompozitsiyalarida har xil erishiladi. Simmetriya ko'pincha muvozanatni sinonimi deb hisoblanadi. Ammo, bu doimo muvozanatni yaratmaydi. Bo'limlarni va yaxlitni proporsionalligi va masshtabligi to'g'ri kelmaganda muvozzanat buziladi. Simmetrik kompozitsiyalarda muvozanat oddiy vositalar yordamida erishiladi.

Funksional kostyumlarda shakl bo'limlari odam shaklini takrorlaydi, kostyum tektonikasi odam tektonikasi bilan bir biriga mos bo'ladi. Kompozitsion muvozanatining muammolari geometrik usulida echiladi, kiyimning chegaralari figuraning chegaralarini takrorlash bilan erishiladi.

Bashang kiyimda esa kostyumni ifodali bo'lishi uchun kompozision muvazonat kostyumning shakllarini figuraning shakllariga qarama-qarshiligi bilan erishiladi.

Kompozision muvozanati kostyumning vazni va figurani oldi va yon turg'unligi bilan doimo tekshiriladi.

Rang kompozision muvozanatiga ta'sir etadi. Aktiv rangli siluetlar yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun ranglarni aktivligini va ularning miqdorini kostyum kompozisiyasida to'g'ri ishlatish lozim. Kostyumni tepa tomonida yorqin ranglarni ko'pligi shaklni turg'unligini buzadi.

Nazorat savollari

1. Kostyumda kompozision markazning roli.
2. Kompozision markazni bo'rtirib ko'rsatish uchun qonuniyatlar.
3. Dinamika paydo bo'lishiga nima sabab bo'ladi?
4. Statik shakl nimani ifodalaydi?
5. Shaklni qaysi elementlarini simmetrik yoki asimmetrik joylash mumkin?
6. Simmetriya elementlari.
7. Qanday simmetriya guruhlari mavjud?
8. Klassik simmetriyani nima ifodalaydi?
9. Kompozision muvozanatini yaratishga nima sabab bo'ladi?
10. Asimmetrik kompozisiyalarda kompozision muvozanati qanday erilishadi?

Ma'ruza № 5 (2 soat)

PROPORSIYALAR. METRIK VA RITMIK TUZILISHLAR.

Reja:

1. Proporsiya va nisbatlar
2. Metrik va ritmik tuzilishlar

Adabiyotlar:

1. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды. - М.: Академия, 2000.
2. Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В. Композиция костюма. - М.: Академия 2003
3. Xasanboeva G.K., Shomansurova M. Maxsus kompozisiya asoslari. - T.: Yangi asr avlodi, 2008.
4. Пармон Ф.М. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. - М.: «Триада плюс», 2002.

1. **Proporsiya va nisbatlar.** Kostyumdagi shakl ko'pincha yaxlit emas, balki bir necha bo'laklardan iborat. Kostyumni qismlarga bo'linishiga gavdaning

tuzilishining murakkabligi, qo'llangan materialning hususiyatlari, buyumni ishlab chiqarish texnologiyasi, kostyumga qo'yilgan talablar va uni nimaga mo'ljallanganligi sabab bo'ladi.

Kostyumga umuman qaraganda, biz uning bo'laklarini taqqoslaymiz. Shaklning xajmini, yuzasini, eni va uzunligini, materiallar, fakturasini va ranglar miqdorini va b. taqqoslash mumkin.

Ikki o'xshash o'lchamni solishtirish natijasi **n i s b a t** deyiladi.

P r o p o r s i y a l a r - bu kiyim alohida qismlarning mos o'lchamlarini bir-biriga hamda odam gavdasiga mos o'lchamlariga bo'lgan nisbatidir.

Kostyum kompozitsiyasida ikki xil asosiy nisbatlar - oddiy va irrasionali uchraydi.

O d d i y nisbatlar - bu butun sonlar nisbati. 1 dan 8 gacha bo'lgan sonlar oddiy nisbatlarning chegarasi xisoblanadi, chunki ularni amalda inson idrok etadigan miqdorlar mosligini aniq idrok etish chegarasi deyish mumkin. Kiyim tadqiqoti ko'rsatishicha $7/8$, $3/4$, $1/3$, $2/3$ nisbatlari yeng ko'p uchrab turadi.

I r r a s i o n a l nisbatlar - bu ko'pincha geometrik tuzilma yordamida tuziladigan kasr sonlar nisbati.

Quyidagilar irrasional nisbatlarning proporsionalligiga misol bo'la oladi:

- kvadrat tomonning uning diagonaliga nisbati

$$a : v = 1 : \sqrt{2} = 1 : 1,42 ;$$

- teng tomonli uchburchak asosi yarmining shu uchburchak balandligiga nisbati

$$a : v = 1 : \sqrt{3} = 1 : 1,74 ;$$

- "oltin kesim" deb ataladigan geometrik proporsiya

$$a : v = v : (a + v).$$

«Oltin kesim» proporsiyalari irrasional sonlarni ishlatish qulayroq bo'lishi uchun sonlar qatori tarzida **F i b b o n a c c h i q a t o r i n i** qo'llash mumkin. Bu qatordagi raqamlar o'zidan oldingi ikkita son yig'indisi tarzida hosil bo'ladi: 0, 1, 1, 2, 3, 5, 8, 13, 21, 34, 55 va x. Har qaysi juftdagi sonlar nisbati $3/5$, $5/8$, $8/13$, $13/21$ va x. esa "oltin kesim" nisbatiga yaqin.

2. R i t m bu fazoda va vaqt davomida kompozitsiya elementini qonuniy takrorlanishidir.

Kostyum kompozitsiyasida ritm kostyum shaklini barcha qismlarini bir-biriga bog'lovchi vositalaridan biri hisoblanadi. Ritm elementlarni boshlash kuchi boshqa kompozitsion vositalarga ko'ra muhimroq bo'lib, faqat kiyimgagina ta'sir etmasdan, kostyumni boshqa qismlariga, ya'ni qo'shimchalarga, bosh va oyoq kiyimga ham ta'sir etadi.

Ritm har qanday asarga musiqalik baxsh etadi, unga dinamiklik beradi. Ritm yordamida bosh kompozitsion g'oya yaqqol ko'rinadi, muayyan tartib va ravonlik kiritiladi.

Shakl elementlarining va ular orasidagi **i n t e r v a l n i n g** takrorriyligi ritmning xarakterli alomati hisoblanadi.

Kostyum shaklining barcha **e l e m e n t l a r i** - xajm, chiziqlar, rang, faktura, detallar bezak va b. ritmik tuzalishi mumkin.

Kostyum elementlarining birlashish sxemasiga binoan ritmik tuzilish vertikal, gorizontal, diogonal, spiral, nursimon, radial, bir tomonlama, qarama-qarshi va aralash yo'nalishli bo'ladi.

Aksentli elementlar (e'tibor tortadigan) aktiv elementlar deyiladi, aksentsizlari esa - passiv elementlar deb yuritiladi. Aktiv elementlar o'rtasidagi oraliq, (interval) dinamik odim deb ataladi. Elementlar harakatining orta borish tezligi sur'at deyiladi.

Oddiy metrik qator, ya'ni bir xil shakllarning teng intervallarda takrorlanishi kompozisiya tuzishga asos qilib olinadigan eng oddiy qonuniyatdir.

Metrik takrorlanishlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- hususiyatlari teng shakl elementlarni teng intervallarda takrorlanishi;
- hususiyatlari bir xil shakl elementlarni intervalsiz, ya'ni intervali 0-ga teng, takrorlanishi;
- teng shakl elementlarini radial yo'nalishda joylanishi.

Ikki yoki undan ortiq oddiy metrik qatorlarining birga qo'shilganidan iborat qator murakkab metrik qator deb ataladi. Biroq metrik qatorni xaddan tashqari ko'p ishlatib bo'lmasligini yodda tutish kerak, chunki bir turli elementlarning ko'p takrorlanishi zerikarli bir xillikka olib keladi.

Shakl elementlarining va ular orasidagi intervallarning birin-ketin qonuniy o'zgara borishi (kattala yoki kichraya borishi) shakllar joylashining ritmik tartibi deyiladi.

Ritmik qator arifmetik yoki geometrik progressiya qonuniyatlariga asoslanadi.

Ritmik tuzilishlar quyidagi sxemalarda bo'lishi mumkin:

- hususiyatlari teng elementlar orasidagi intervallar qonuniy o'zgargan xolda takrorlanishi;
- shakl elementlari qonuniy o'zgargan xolda intervallar o'zgarmaydi;
- shakl elementlari va ular o'rtasidagi intervallar qonuniy o'zgarishi;
- shakl elementlarni radial yo'nalishda takrorlanishi.

Ritm tuzilishi kamaya yoki orta boradigan bo'ladi. Bundagi sur'at sekin, o'rtacha va tez bo'lib, shaklda dinamikani hosil qiladi.

Odam gavdasining simmetriya o'qiga nisbatan shakl elementlarini ritmik joylash mumkin.

Kostyum kompozisiyasida ritmik tuzilishning birgina turidan foydalanish kamdan-kam uchraydi. Shakl elementlarining metro-ritmik (murakkab) tuzilishlari ko'prok uchraydi.

Shakl elementlarining rivojlana borishida o'z qonuniyat borligi kompozisiyani ritmik xal qilishning xarakterli hususiyatidir. Bu qonuniyatning buzilishi, ya'ni noritmik, kompozisiyani yaxlit idrok etilishiga putur etkazadi. Noritmik paydo bo'lishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- kostyum ishlab chiqarilganda texnologik nuqson ro'y berishi (intervalni buzilishi, shakllar tengligi buzilishi va b.);
- kompozisiyaning echimi noto'g'ri fikrga asoslangan;
- shakl elementlari xaddan tashqari ko'p takrorlangan.

Nazorat savollari

1. Oddiy nisbatlarni kompozitsiyada o'rni.
2. Irrasional nisbatlarni tuzish qonunlari.
3. Masshtablik kostyum qacda inobatga olinadi?
4. Ritmni kompozitsiyada o'rni.
5. Metrik qonuniyatlarni qanday turlari uchraydi?
6. Ritmik qonuniyatlarni qanday turlari uchraydi?
7. Noritmik kostyumda paydo bo'lishiga nima sabab bo'ladi?

Ma'ruza № 6 (2 soat)

RANGNI KOSTYUM KOMPOZISIYASIDAGI O'RNI. KOSTYUM SHAKLI VA MATERIAL

Reja:

1. Rangning hususiyatlari
2. Ranglar doirasi
3. Xromatik va axromatik ranglarni birikmalari
4. Kontrast, nyuans va o'xshashlik
5. Kostyumda qo'llanadigan materiallar turlari
6. Materiallar fakturasi
7. Naqsh turlari
8. Kostyumdagi dekorativ bezaklar

Adabiyotlar:

1. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды. - М.: Академия, 2000.
2. Г.М. Гусейнов, Ермилова В.В. Композиция костюма. - М.: Академия 2003
3. Xasanboeva G.K., Shomansurova M. Maxsus kompozisiya asoslari. - T.: Yangi asr avlodi, 2008.
4. Пармон Ф.М. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. - М.: «Триада плюс», 2002.

1. Buyumlarning eng muhim sifatlaridan biri - **rang** hisoblanadi. Amaliy san'at buyumlarda rangning vazifasi turlicha. Bular psixofiziologik, ijtimoiy va estetik.

Rang xayot va mamot ramzi, quvonch va xafalik ifodasi bo'lib kelgan: u iliqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik, yengillik va vazminlik xissini berish mumkin; bizning xis – tuyg'ularimizda ham rang ta'siri bor: "qora kun", "oq ko'ngil", "yorqin niyatlar", "qora niyat", "oq yo'l" - bularning barchasi rangning psixologik vazifasini bildiradi.

Turli tarixiy davrlarda rangga, rang ramzlariga munosabat turlicha bo'lgan. Masalan, ko'chmanchilar yorqin to'q ranglarni ma'qul ko'rgan bo'lsa, o'troq

xalqlar och, murakkab ranglarni yoqtirgan. Rang ma'lum ijtimoiy tabaqalanishni ifoda etgan. Masalan, qadimiy Rimda qirmizi toga plashshni faqat imperator kiyish mumkin edi. Diniy mansublik qaysi rangli kostyum kiyishni belgilab berardi. Masalan, ingliz puritanlar qora kiyinsalar, katoliklar, aksincha, olachipor kostyum kiyar edilar.

Urushlar, epidemiya, ocharchilik odmi kiyimlar tarqalishga sabab bo'lsa, ulardan keyin yorqin rangli kiyinish an'ana tusiga kirar edi.

Rang doimo jins - yosh farqini bildiradigan vosita bo'lgan. Bolalar kiyimi nozikroq tusli bo'ladi, o'smirlar kontrast ranglarni ma'qulroq ko'radi, katta yoshlarga to'qroq rang tuslari yoqadi. Ayollar kiyimi erkaklarnikiga nisbatan yorqinroq va ko'p rangliroq bo'ladi.

Tabiatdagi barcha ranglar xromatik (spektr ranglar) va axromatik (oq, qora va kul ranglar) ranglarga bo'linadi.

X r o m a t i k ranglarni fizik xususiyatlari quyidagilar :

- r a n g t u s i - rangning shartli belgisi (qizil, ko'k, sariq xavo rang va x.). Ranglar nomi shartli yoki bironta buyum, o'simlik nomiga yaqinlashtirib beriladi. Masalan, limonrang, apelsinrang, shoftoli rang va x.;
- r a n g t o' q l i g i - rang kuchining va xromatik rangga axromatik rang aralashgani bilan tavsiflanadi va rang tusini qanchalik sofligining ko'rsatadi;
- o q i s h l i k - xromatik rangning oq rangga yaqinlik darajasi.

A x r o m a t i k ranglar faqat o q s h l i k xususiyati bo'yicha farqlanadi.

Spektr ranglar eng sof rang hisoblanadi. Oq aralash ranglar (pushti, xavorang va b.) *pastel* ranglar deyiladi.

2. Agar spektr ranglarga qirmizi rang qo'shib ularni doira bo'ylab joylashtirilsa, **r a n g l a r d o i r a s i** hosil bo'ladi. *Sariq ko'k, qizil va yashil* ranglar shu doiradagi a s o s i y ranglari hisoblanadi, chunki ularda ranglar doirasidagi o'zlariga qo'shni ranglar tusi ham aralashmasi ham bo'lmaydi. Doiradagi qolgan ranglar oraliq ranglar hisoblanib, ular bir-biriga qo'shni asosiy ranglarni aralashtirishdan kelib chiqadi.

Diametrlarning qarama - qarshi uchlaridagi ranglar *qo'shimcha* ranglar deyiladi. Optik aralashish natijasida ular oq rang hosil qiladi. Bu ranglarda bir-birini to'qroq yorqinroq ko'rsatish qobiliyati bor. Masalan, yashil rang qizil rang yonida yashilroq qizil rang esa qizilroq ko'rinadi (yashil o'tloqdagi lola qizg'aldoq bunga misol bo'ladi).

Kostyum kompozitsiyasini yaratishda ranglar uyg'unligi (garmoniyasi) katta ahamiyatga ega.

Kostyumda ko'pincha *monoxrom* rang birikmalari uchraydi - bu rang tusi bir xil oqishligi esa har xil ranglarning birikmasi.

3. Xromatik ranglarning garmonik birikmalari ikki va uch rangli, kamroq to'rt rangli birikmalari uchraydi. Ular rang doirasi asosida tuziladi.

Ikki rangli birikmalar quyidagicha tuziladi:

- o' x s h a s h ranglar - bu bir xil asosiy ranglardan hosil bo'lgan, ya'ni ranglar doirasining bir choragidagi ranglar birikmasi;

- k o n t r a s t ranglar - har xil asosiy ranglardan hosil bo'lgan va ranglar doiraning qarama-qarshi turgan choraklardagi ranglarning birikmasi; bu ranglar rang doirasini diametri bo'yicha joylashadi ;
- o' x s h a s h - k o n t r a s t ranglar - bu bitta mushtarak asosiy rangi va ranglar doirasining yonma-yon choraklardagi kontrast asosiy ranglari bor ranglar birikmasi, bu ranglar xorda bo'yicha joylashadi.

Uch rangli rang birikmalar uchburchak asosida tuziladi :

- teng tomonli uchburchak asosida - bitta asosiy rang va ikkita o'xshash - kontrast ranglar, qaerdagi asosiy rang aralashmagan ;
- teng yon tomonli uchburchak asosida - bitta asosiy rang va ikkita o'xshash - kontrast ranglar, qaerdagi asosiy rang shu ranglarga kiradi;
- teng yon tomonli uchburchak - ikkita o'xshash ranglar va bitta kontrast oralik rang;
- to'g'ri uchburchak asosida - ikkita gurux o'xshash-kontrast ranglar (katetlar bo'yicha) va bitta gurux kontrast ranglar (gipotenuza bo'yicha).

To'rt rangli monadli rang birikmalari to'g'ri to'rtburchak asosida tuziladi - to'rt guruh o'xshash - kontrast ranglar birikmasi.

Axromatik ranglarni ikki rangli birikmalari quyidagicha tuziladi:

- k o n t r a s t birikmalari - axromatik ranglar qatorida biri biridan uzoq joylashgan ranglar birikmasi;
- n y u a n s b i r i k m a s i - axromatik ranglar qatorida bir biriga yaqin joylashgan ranglar birikmasi.

Uch rangli axromatik ranglarning birikmalari esa miqdor va sifat (oqishlik) jihatidan o'zaro turli nisbatlar asosida tuziladi.

Kostyumda ko'pincha *xromatik* va *axromatik* ranglarning birikmasi uchraydi, ular juda ifodali bo'lib chiqadi.

Ranglar birikmalarini uyg'unligi ranglar sifati va miqdoriga bog'liq. Kostyum yaratishda turli materiallar qo'llanadi: to'qima gazlamalar, trikotaj, noto'qima materiallar, mo'yna, charm, zamsha, yog'och, shisha, plastmassa va b. (1-sxema)

Bu materiallar har biri o'z plastik hususiyatlarga (mayinlik, osiluvchanlik, dag'allik va shu kabilar), dekorativligi (faktura, rang, naqsh, tarkibi), fizik-mexanik hususiyatlariga (zichlik, qayishqoqlik, cho'ziluvchanlik, kirishuvchanlik, titiluvchanlik va b) va gigienik hususiyatlarga (havo, nam, chang, issiq o'tkazuvchanlik va b.) ega va shaklning xarakteri va konstruktiv echimini qanday hal etilishini ushbu hususiyatlar belgilab beradi.

Masalan, harir shifon gazlamalar mayin osiluvchan drapirovkabop bo'ladi, shuning uchun ulardan choklari minimal darajada, yumshoq ovalsimon shakl yaratilishi kerak, bunda drapirovkalar, burmalar, mayin taxlamalar klyosh bichim yordamida shakl hosil qilinadi; yaltiroq, to'kilib turadigan (krep-satin, krep-atlas va b.) matolar drapirovkabop ekanligiga ko'ra, etarli darajada hajmli, gavda bo'ylab "oqib" turadigan kiyim tikish imkonini beradi, matoning jimirlashi uning yuqoridagi hususiyatlarini kuchaytirib ko'rsatadi; sintetik aralash jun matolardan aniq geometrik shakldagi buyumlar tikiladi.

Kostyumda qo'llangan matolarning fizik-mexanik xususiyatlari ham inobatga olinishi kerak, chunki ular matoning, masalan, cho'ziluvchanligi, tez sitilishi, kirishuvchanligi va boshqa xususiyatlari shaklning geometrik turini belgilaydi va konstruktiv yechimlarini aniqlaydi. Ba'zan matoning fizik-mexanik xususiyati unga dastlabki texnologik ishlov berishni talab qiladi (namlab-isitib ishlov berish va b.).

Materiallarning dekorativ xususiyatlari (rangi, fakturasi, naqshi) shaklni geometrik turini tanlashga va uning kompozision yechimiga ta'sir etadi. Masalan, material sidirg'a rangli bo'lsa, barcha kiyimdagi choklar va detallar yaqqol ko'rinadi, demak, konstruktiv yechimga e'tibor berish kerak; agar mato mayda naqshli bo'lsa, unda choklar va detallar ko'rinmaydi, demak, choklar faqat shakllantirish funksiyasini bajarishi lozim; yo'l-yo'l va katak-katak matolar mahsus yechimni talab qiladi va h.k.

4. Shaklning elementlarning o'zaro mosligi kontrast (qarama-qarshlik), nyuans va o'xshashlik asosida yaratiladi.

K o n t r a s t - bu o'zaro keskin farqlanadigan shakl elementlari asosida kompozisiya tuzish.

N y u a n s - bu xususiyatlari bir biriga yaqin shakl elementlari asosida kompozisiya tuzish.

O'x sh a sh l i k - bu xususiyatlari bir xil shakl elementlari asosida kompozisiya tuzish.

Xajm chiziqlar, yo'nalishlar, shakl miqdori rang, faktura, struktura va b. shakl elementlari ushbu kompozision vositalar bo'yicha yaratilishi mumkin.

Kontrast kompozisiyadagi turli yo'nalishlarning kurashi, bir-biriga qarama-qarshiligi bo'lib, rassomlarning yeng keng foydalanadigan vositalaridan biri. Kostyum tarixida kontrast mavzusi asar xarakteri, davr uslubi, muallifning individualligiga ko'ra asrlar davomida o'zgarib kelgan.

Kontrastga asoslanib tuzilgan kompozisiyaning mohiyati uning ko'rinish ta'siri aktivligida. Nyuans nisbatlaridan kontrast nisbatlarning farqi shundaki, kontrast darhol ko'zga tashlanadi, nyuans esa asta-sekin «ochiladi». Odatda, zerikarli geometrik shaklning ifodaliligini undagi ichki chiziqlar, rang yoki fakturaning bir-biriga ta'siri kontrastligidan oshirsa bo'ladi.

Shuni g'alatiki, kontrastning kuchliligi uning zaif tomoni bo'lib chiqadi. Idrok etishga aktiv ta'sir etuvchi vosita bo'la turib, unda salbiy tomonlari ham bor: u odamni tez charchatadi va tez jonga tegadi, chunki u doimo odamning e'tiborini o'ziga tortib turadi. Har qanday kuchli ta'sir etuvchi vosita extiyot bo'lishni talab qiladi - bunday vositani xaddan tashqari ortiqqligi har qanday taassurotni buzub yuboradi. Kontrast bilan kompozisiyada foydalanganda, muayyan darajadan oshmaslik, kontrast me'yorini saqlash kerak.

Kontrast kompozision vositasi asosan bashang sport va tomoshaga oid kostyumlarda qo'llaniladi.

O'xshashlik prinsipi - bu asos qilib olingan elementning kostyum kompozisiyasida taraqqiy topib turli variantlarda rivojlana borishi. Ko'p xollarda kostyumda bitta shakl xukmronlik qilib, boshqa asosiy qismlarning hammasi unga

buysunggan bo'ladi, lekin kostyum ko'p xollarda qavatli, murakkablashgan strukturadek taassurot qoldiradi.

Kontrast bilan o'xshashlik kostyumning asosiy strukturasi belgilab beradi, lekin ayni vaqtda mayinroq «ko'rkamlilik samarasi» beradigan qo'shimcha bo'lish zaruriyatini tug'diradi; kompozisiyadagi kontrast nozik akkomponiment, jo'rlik qiladigan nyuanslar bo'lishi zaruratini keltirib chiqaradi - busiz kompozisiya odatda qo'pol, primitiv bo'lib qoladi. Nyuans kompozisiyalar proporsiyalarda, rangda, nisbatlarida, bezakda, murakkab egri chiziqlar yordamida shakllar tuzilishda ko'rinadi.

Plastik nyuanslar avvalo shakl xarakterida ko'rinib, unga san'atga xos, alohida iliqlik beradi. Nyuans - eng nozik vosita.

Kostyum kompozisiyasini nyuansli hal etilishi barcha yoshlarga, qomat turlariga va har qanday kostyum mo'ljaliga to'g'ri kelaveradi.

Kostyum kompozisiyasida baravariga kontrast, nyuans va o'xshashlik qo'llanishi mumkin. Masalan, shakllar kontrasti, chiziqlar nyuansi va rang o'xshashligi.

5. Faktura materialning ifodali hususiyatlaridan biri hisoblanadi. Faktura - bu material yuzasining tuzilishini ifodalovchi hususiyatidir.

Faktura tabiiy va hosila bo'ladi. Tabiiy fakturaga mo'yna, charm, yog'och, tosh, metall va boshqalar kiradi. Tabiiy fakturani hosila fakturaga nisbatan ritmik tuzilishi, siymosi, sezuvchanligi va tashqi ko'rinishi butunlay boshqa bo'ladi.

Materiallar silliq, g'adir-budir, yaltiroq, hira, tukli va h.k. fakturali bo'lishi mumkin. Hosila materiallar fakturasining xarakteri matoni ishlab chiqarilgan usuli bilan bog'liq (to'qimachilik, to'r to'qishda va b.).

Har bir faktura badiiy siymoni belgilaydi. Faktura sovuqlik (metall) va iliqlik (mo'yna, yog'och), yengillik (shifon), vazminlik (krep- atlas) va boshqa taassurotlar hosil qilishi mumkin.

Faktura tanlashda mavsum, kostyumning nimaga mo'ljallanganligi, odamning yoshi, gavda tuzilishi turi hisobga olinishi kerak. Matoning fakturasi, uning hususiyatlari, umuman shakli va uning qismlarini idrok qilishda ko'z aldanishi (illyuziya) paydo bo'lishiga ta'sir etishi mumkin.

Faktura hususiyatlariga yetarli darajada e'tibor bermaslik ko'pincha kostyumda turli materiallarni noqulay qo'llanishiga olib keladi, shakl yaxshi ko'rinmasdan nomonand ko'rinadi. Badiiy g'oya va kompozision yechimlar turlicha bo'lgani sababli ekspluatasion, texnologik yoki iqtisodiy zaruriyat boisdan bir kostyumda har xil fakturali materiallar ishlatilishi mumkin. Bu holda fakturalarning sifati va miqdoriga asoslanib, kostyum nimaga mo'ljallanganiga ko'ra ishlatilgani ma'qul.


6. Kostyum kompozisiyasida naqshning muhim ahamiyati bor. Shaklni naqshdan ajratib bo'lmaydi. Shaklda naqsh bor ekan, demak, naqsh - shaklning zarur komponenti, bir qismi bo'lib qoladi. Naqsh ham kostyum singari ko'p asrli tarixga, xalqlarga, millatlarga mansubligi bor. U xalqning tarixiy taqdirini, turmush tarzini, tashqi muhitni, iqlimni, fan va texnikaning rivojlanishini aks ettiradi. Naqsh turli xalqlarda va tarixiy davrlarda turli usulda hosil qilinadi. Bu quyidagi

usullar: eshish, o'yma, to'qima, o'rish, bosma, ikat, batik, trafaret yordamida, kashta qilish, erkin tasvir solish va boshqalar.

Naqsh - jamiyat moddiy madaniyatining bir qismidir. Naqsh (ornamentum-lotincha bezak) - bu turli buyumlarni bezatish uchun ritmik tartibda joylashtirilgan elementlardan tasvir, ibtidoiy xalqlarda esa- tatuirovka.

Naqshning asosiy tasnif alomatlari: uning kelib chiqishi, nimaga mo'ljallanganligi va ma'nosi.

Bularni inobatga olgan holda, barcha naqsh elementlari bir necha guruhga yoki turga birlashtirilishi mumkin. (1-sxema)



Texnikaviy naqsh. Naqsh odamni mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan. Masalan, kulolchilik tarixida loydan yasalgan buyumlarning fakturasi, qo'l dastgohida to'qilgan gazlama naqshi, arqon eshilganda spiralsimon o'ramalari hosil bo'lgan.

Ramziy naqsh Naqsh san'ati asarlarining shartli-ramzli tasvirlarga yaqinligi ramziy naqshning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Azalda naqsh siymolari ko'pincha ramzlar yoki ramzlar tizimi bo'lgan.

Geometrik naqsh. Bora-bora texnikaviy va ramziy naqshda chiziqlar va dog'larning murakkabroq kombinasiyalari, konkret mazmunidan va hikoya ma'nosidan mahrim etilib, yaratiladigan bo'ldi Natijada geometrik naqsh paydo bo'ldi. U har xil davrlarda va xalqlarda turlicha bo'lgan. Bu naqsh mavzu asosini yo'qotdi, ammo estetik qiymatini saqlab qoldi.

O'simlik naqshi. Geometrik naqshdan keyin eng keng tarqalgan naqsh turi bo'lib, uning tasviriy mavzulari har xil xalqlar va davrlarda turlicha bo'lgan. Masalan, Xitoy va Yaponiyada keng qo'llangan tasviriy mavzu - xrizantema,

Eronda - chinni gul, Rossiya va Ukrainada - kungaboqar, moychechak va boshqalar.

Tasviriy mavzularning xilma-xilligi bo'yicha o'simlik naqshi katta imkoniyatlarga va tasvirlash usullariga ega. Mavzular realistik, hajmiy, yassi yoki stilizasiyalashgan bo'ladi.

Hattot (kalligraf) naqshning plastik tasviri va ritm bo'yicha ifodali harf yoki matn elementlaridan tuziladi. Hattot san'ati Xitoy, Yaponiya va bir qator arab mamlakatlarida muayyan uslubda tasviriy san'at o'rnida bo'lgan.

Fantastik naqshning asosida ramziy va mifologik ma'nolar yotadi.

Astral naqsh (lotincha astra - yulduz) osmonga sig'inishni joriy etgan. Astral naqsh Xitoy, Yaponiya va Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan.

Peyzaj naqshi ko'pincha Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Fors to'qimachilik matolarida qo'llangan.

Zoomorf naqsh - bu realistik va shartli, stilizasiyalashgan qushlar, hayvonlar va boshqa tirik jonlar tasvirlaridir. Zoomorf naqshga fantastik naqsh yaqin.

Antropomorf naqsh - bu realistik yoki stilizasiyalangan odamning tasviri.

Buyumli naqsh antik Rimda paydo bo'lib, keyin keng qo'llangandi. Xarbiy, maishiy va teatral buyumlar, o'yinchoqlar va boshqalar buyumli naqshning elementlari bo'lgan.

Abstrakt naqsh - real mavzuga asoslanmagan rangli dog'lar va chiziqlardan tasvirlangan naqsh.

Insoniyat rivojlanishining ilk qadamlarida va hozir yaratilgan naqshlarda realistik asosning mavjudligi muhim bo'lgan. Naqshning o'ziga hos "tili", tabiatning ob'ektiv shakllaridan, eng tipik va antiqasini tanlab, o'zgacha ifodalaydi va shu bilan unga yangi siymo ma'nosini beradi.

Rasm tasviri naturalistik yoki stilizasiyalangan; yassi yoki hajmli bo'lishi mumkin.

7. Naqsh material yuzasini bir tekis rapportli to'ldirib turishi mumkin yohud muayyan joylarlarida qilinishi mumkin (kupon yoki hoshiya hoida).

Rasmning kattaligi mayda, o'rtacha va yirik bo'lishi mumkin.

Naqsh turi kostyumni ishlab chiqarish texnologiyasiga ta'sir etadi. Bu tomondan naqshlar murakkab va oddiy turlarga bo'linadi.

Texnologik jihatdan murakkab naqshlarga quyidagilar kiradi: yirik rasmlar, yo'l-yo'l va katak-katak rasmlar, bir tomonlama yoki tepa va past bor rasmlar, kupon va hoshiyali joylangan naqshli matolar.

Materialga naqsh quyidagi usullarda solinishi mumkin:

- eshish - ip eshilib turli naqshli tasma qilinadi;
- o'rish - ip yoki tasmani har xil usulda o'rib naqsh hosil qilinadi;
- to'qish - qo'l yoki mexanik dastgohda naqsh ishlanadi;
- bosma - mahsus qoliplar bilan gazlamaga naqsh bosiladi;
- ikat - tanda yoki arqoq ipiga dastlabki naqsh solingan (masalan, abr gazmollari: beqasam va xon-atlas);
- batik - gazlamada bo'yashdan oldin naqsh chizilib, ranglarni chegarasiga zahira qilinadi va so'ng bo'yaladi;
- trafaret yordamida naqsh solinadi;

- gazlama kashta usulida qilinadi;
- mahsus moddalar yordamida dastlab bo'yalgan gazlamada naqsh o'yma usulda qilinadi;

- gazlamada erkin rasm solinadi.

Gazlama yuzasida naqsh quyidagicha taqsimlanishi mumkin:

- rapportli – naqsh muayyan tartib bo'yicha gazlama yuzasiga tekis solinadi;
- hoshiyali – tanda ipi yo'nalishi bo'yicha naqsh hoshiya turida solinadi;
- kuponli – naqsh ma'lum kupon kabi solinadi (masalan, xon-atlas);
- rapportsiz – ko'pincha naqsh erkin solinsa qat'iy rapport bo'lmaydi.

Naqshda bir necha rang qo'llansa ularni quyidagicha nomlanadi:

- melodiy – naqshda bir rang hususiyati bo'yicha va ko'p joy egallab, ustunlik qiladi;

- akkordli – naqshda ikki yoki uch rang boshqalariga nasbatan ustunlik qiladi;

- polifonik – naqshdagi barcha ranglar teng huquqli.

Kostyumga mato tanlaganda naqshga jiddiy munosabatda bo'lish kerak. Uni yoshga, gavda tuzilishiga, kostyum nimaga mo'ljallanganiga, mavsumga, ishlab chiqarish usuliga qarab olish kerak.

Naqshli materiallarda turli chiziqlar, bo'rtma choklar, drapirovkalar, mayda detallar kam seziladigan bo'lgani uchun, ular ifodali chiqmasligini yodda tutish kerak. Ularni ko'rinarli qilish uchun sidirg'a materiallardan kant, tasma va b. qo'yib bezash kerak bo'ladi.

8. Bezak kompozisiyaning mustaqil elementi emas - bu qo'shimcha, ziynat bo'lib, kiyimda ishlatilmasligi ham mumkin.

Kostyum tarixining har qaysi bosqichida o'z bezak turlari va ularni ishlatish usullari bo'lgan.

Kostyumni yaratish tajribasida ishlatiladigan bezak turlari xilma-xil bo'lib, ular kompozisiyadagi asosiy g'oya bo'lishi yoki kostyumlardagi mo'ljallangan badiiy - obrazli niyatni kuchaytiradigan va boyitadigan bo'lishi mumkin. Bezak yordamida kostyum shaklini yoki uning bir qismini bo'rttirib ko'rsatish mumkin, shakllarni bo'laklarga ajratib ham ko'rsatish mumkin. Bezakni dekorativ va konstruktiv ahamiyati bo'lishi mumkin (drapirovka, bo'rtma burma, mayda taxlama, gofre, plisse va h.k), dekorativ-utilitar ahamiyati (belbog'lar, cho'ntaklar, tugmalar, furnitura va shu kabilar) va faqat dekorativ ahamiyati (kashta, qo'yma burmalar, boshqa material bilan bezash va b.) bo'lishi mumkin.

Hozirgi son-sanoqsiz bezaklarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- barcha turdagi bo'rtirma choklar, taxlamalar, bo'rtma burmalar, drapirovkalar, plisse, gofre;

- asosiy yoki bezak materiallardan yasalgan detallar: qo'yma burmalar, mag'izlar ;

- mahsus bezak materiallari: to'r, tasma, popuk, munchoq, steklyarus, lentalar va b.

- furnitura (tugmalar, to'qalar, pistonlar va b.);

- kashta, qoplama bezak va b.

- bezak materiallar: mo'yna, charm, zamsha va b.

- kostyum detallariga bosma naqsh solib bezash

Bezak turini, uning joyini tanlash kostyum turi va nimaga mo'ljallanganiga, uning shakliga, materialning fakturasiga, jins-yoshiga, odamning gavda turiga, odamning gavda tuzilishiga va xarakteriga, modaga, faslga va boshqalarga bog'liq.

Mato bezak sifatida barcha kiyim turlarida vaqtlar aro keng qo'llangan. Bezak sifatida materialni qo'llanishida asosiy gazlama bilan bog'lanish uch turda bo'lishi mumkin:

- asosiy va astar gazlamasi bir fakturali va har xil rangli;
- har xil fakturali gazlamalar, rangi esa bir xil;
- har xil fakturali va rangli gazlamalar.

Kashta mashina yoki qo'lda har xil iplar, munchoqlar, steklyarus, payetka, dur, zar ip va b. vositalar bilan ishlanishi mumkin.

Kashta har xil usulda qilinishi mumkin: zardo'zi, yo'rmado'zi, guldo'zi, iroqi, applikasiya va b. Kashta xalq kiyimlarida keng qo'llanilgan.

Furnitura kostyumda faqat utilitar funksiyani bajarmasdan, bezak rolini ham o'ynaydi.

Kostyum eng keng qo'llangan furnitura - tugmalardir. Ular suyak, metall, yog'och, sadaf, tosh, chinni, shisha, charm, tasma, gazlama, plastmassa va boshqa materiallardan ishlangan.

Tashqi ko'rinishi bo'yicha tugmalar har xil bo'lgan:

- kattaligi bo'yicha (mayda, o'rta, katta);
- geometrik turi bo'yicha (doira, kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak, oval, figurali, stilizatsiyalangan hayvonlar, hashoratlar va b.);
- rangi bo'yicha;
- yassi yoki hajmiy.

Tugma tanlanganda asosiy matoni rangi, fakturasi, tarkibi, kiyimni nimaga mo'ljallanganligi va chiziqlar turi inobatga olinishi lozim.

Har xil shaklli to'qalar ko'pincha belbog'larda, xlyastik va patlarda qo'llanadi. Ular suyak, metall, yog'och va plastmassadan tayyorlanadi; geometrik shakli va kattaligi esa har xil bo'ladi.

To'qa buyum detallarining funksional vazifasini, shaklni transformatsiyalash yoki faqat bezak funksiyasini bajaradi.

Metall va plastmassadan tayyorlangan ilgaklar dekorativ va funksional rolni bajaradi.

«Molniya» tasmasi taqilma, buyum detalining shaklni transformatsiyalash va bezak funksiyasini bajarish mumkin. «Molniya» tasmasi metal yoki plastmassadan qilinib, kattaligi va uzunligi buyum kompozitsiyasiga ko'ra har xil bo'ladi.

Mashina baxya choki kostyumda keng qo'llaniladi. Ular bir necha qator, yirik yoki mayda, asosiy matoni rangida yoki boshqa rangda, to'g'ri yoki figurali bo'lishi mumkin. Bezak choklar chiziqlarni, choklarni, releflarni, detallarni ko'rindigan qiladi.

Zamonaviy buyumlarda bezak choklar, ayniqsa djins buyumlarda keng qo'llanadi baravariga texnologik (chokni maxkamlaydi) va estetik (kontrast rangli iplardan qilingani bois) funksiyalarni bajaradi.

XX asrdan boshlab liboslarda trikotaj bezak sifatida keng qo'llana boshladi.

Tabiiy va sun'iy mo'yna, charm va zamsha ustki kiyimda bezak sifatida azaldan qo'llanib keladi.

Tasmalar («vyunchik», sutaj, lenta, tasma, shnur, kant, shokila, popuk va boshqalar) kompozisiyaning asosiy g'oyasini ifodalash vositasi bo'libgina emas, balki ular kompozision yechimini boyitadi. Masalan, kant kiyim detalini ifodali va ko'rinarli qiladi.

Nazorat savollari

1. Rangning fizik hususiyatlari.
2. Rangning psixofiziologik va ijtimoiy hususiyatlari.
3. Rangli doirasini tuzish qoidalari.
4. Qanday ranglar asosiy, oraliq va qo'shimcha ranglar xisoblanadi?
5. Ikki rangli xromatik va axromatik ranglar birikmalarini tuzish qoidalari.
6. Uch rangli xromatik va axromatik ranglar birikmalarini tuzish qoidalari.
7. Ranglarning baravar kontrast xodisi kostyum tuzilishida qanday rol o'ynaydi.
8. Qanday ranglar neytral deb ataladi?
9. Materiallarning shakl hosil qilish hususiyatlari
10. Materiallarga qanday talablar qo'yiladi?
11. Faktura nima?
12. Qanday tasviriy mavzular naqshda uchraydi?
13. Naqsh material yuzasida qanday joilanishi mumkin?
14. Bezaklar turlari?
15. Libosda bezakni o'rni?

Ma'ruza № 7 (2 soat)

Mavzu: QADIMIY DUNYO KOSTYUMLARI

Reja

1. Qadimiy Misr kostyumi
2. Bobil - Ossuriya Kostyumi
3. Fors kostyumi

Adabiyotlar:

- 1.Хасанбоева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. Т.: 2002
- 2.Мерцалова М.Н. История костюма. М.: - Искусство, 1972.
- 3.Пармон Ф.М. Композиция костюма. М.: - Легпромбытиздат, 2002.

1.Miloddan avvalgi to'rt inchi ming yillikning oxirlarida Qadimiy Misr yirik markazlashgan quldorlik mamlakati bo'lib, davlatni fir'avn boshqargan. Uning hukmronligi cheksiz edi. Misrliklarning tasavvurida fir'avn Xudoning yerdagi

soyasi hisoblangan. Kohinlar, din ruhoniylari, fir'avnning cheksiz huquqini himoya qilib ijtimoiy tengsizlik va zulmga imkon yaratishgan.

Nil daryosi vodiysining tabiiy sharoiti Qadimiy Misr ho'jaligining rivojiga sabab bo'lgan. Misrliklar, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va har xil hunarmandchilik, to'quvchilik, zargarlik, kulollik, bilan shug'ullanganlar. Mamlakat aholisi har xil tabaqalardan, ya'ni quldorlar, aslzodalar, shaharliklar, erkin dehqonlar va qullardan iborat edi. Misr-zig'irining vatani hisoblanadi.

Qadimiy Podshoxlik kostyumi, miloddan oldingi 2000-2400 y.

Bu davrda, asosan, erkaklar faqat bir kiyim-peshband "*sxenti*"ni kiyganlar. Ular shakli to'rt burchak yoki trapesiyasimon bo'lib o'lchamlari har xil edi. *Sxenti* belga ingichka charm kamar yoki tasma bilan biriktirilardi. *Sxenti* gavdaning orqasida burmalanardi, oldida esa qator ritmik taxlamalar qilinardi. *Sxentining* ustidan yoki tanani ustiga to'rt burchakli peshband kiyishgan. Boylar kiyimi zig'ir tolali matodan, qullarniki esa dag'al teridan qilinardi. Faqat fir'avn, vazirlar, kohinlar va boy yer egalari kiyimlari bezatilardi.

Fir'avnning saltanat belgisi ilon "*urey*" va lochin bilan bezatilgan toj edi. Uning ikkinchi bosh kiyimi "*plat*" bo'lgan. U trapesiyasimon shaklli bo'lib, yo'l-yo'l matodan qilinardi, peshonasida esa tor tasma yoki metall chamberak bilan mahkamlanardi.

Bo'yinga taqiladigan yumaloq marjon yoqa yerdagi turmush manbai - quyosh ramzini ifodalardi. Yoqa bir necha qavat yelimlangan matodan tayyorlanib, tasvirlar bilan bezatilardi yoki to'rsimon to'qilib, qimmatbaho toshlar bilan bezatilardi.

Cho'pon hassasi va sun'iy oltin soqol ibtidoiy qabilalardan qolgan ramziy belgidir. Soqolni tasma yordamida ko'zoynakga o'xshatib qulog'iga mahkamlanardi. Fir'avnning soqolida ham "*urey*" qilinardi.

Misrliklar sochini butunlay olib tashlab, boshiga o'simlik tolalaridan yoki jundan yasalgan parik kiyishardi. Bu pariklar ham bosh kiyim hisoblanib, boshni issiqdan saqlardi. Parikning katta-kichikligi va uning shakli shaxsning ijtimoiy holini ifodalardi. Yirik yer egalari bir necha kokildan iborat bo'lgan parikni kiyishardi, mayda yer egalari va qullar esa kichikinasini kiyishgan.

Kohinlarning kiyimi qimmatbaho kamar bilan bezatilgan. Ibodat qilish paytida ular qoplon terisini yoki kalhat va boshqa niqoblarni kiyishgan.

Ayollar kiyimining shakli oddiy bo'lgan. U ikkita to'rt burchak matodan tikilgan ko'ylak "*kalaziris*" edi. *Kalaziris* ko'krakning pastidan boshlanib tovongacha yetardi va bitta yoki ikkita keng tasma yordamida yelkada mahkamlanardi. Bu kiyimni barcha ayollar, hattoki fir'avn oila a'zolari va qullar ham kiyishgan. Ijtimoiy farqi faqat matoda bo'lgan: boylar - yupqa gazmoldan, qullar va dehqonlar esa dag'al matodan kiyganlar.

Bu davrning ohirida kiyimlar shakli o'zgara boshlaydi. Yangi mukammalroq *sxenti* paydo bo'lgandi. Burmalar va plissirovka bilan bezashga intilish boshlandi. Kiyimlarning rangi qizil, zangori, yashil bo'lgan. Duradgorlik rivoj topishi bilan sariq, jigar rang va feruza ranglar kirdi. Oyoq kiyimi qamishdan to'qilgan shippaklar edi.

O'rta Podshoxlik kostyum, miloddan oldingi 2400-1700 y.

Bu davrda viloyatlarning bir-biridan ajralib ketishi o'z-o'zi bilan ovora bo'lib qolgan hayotga olib keldi va shunga qaramasdan fir'avnning xuquqini bir muncha oshishi bilan belgilanadi. Bu davr san'at yodgorliklarida sxentini ustidan yupqa matodan qilingan peshbandlar tasvirlangan. Ular to'rt burchak shaklli bo'lib sal-pal burmalangandi.

Ayollarning kiyimi erkaklarnikiga o'xshash bo'lib, burmalari hali bir xil, didsiz qilingandi. Oddiy aholida oddiy sxenti va kalaziris saqlanib qolgandi.

Yangi Podshoxlik kostyumi, miloddan avval 1580-1090 y.

Bu vaqtda erkak va ayollar kiyimlarining bir-biriga o'xshashi qayd qilingandi. Erkaklarning kiyimi plissirovka qilingan yubka va yopinchoqdan iborat edi. Katta yumaloq yoqa - marjonni faqat fir'avn va uning oila a'zolari kiyibgina qolmay, balki, boy tabaqalar ham kiyishgandi. Marosim kiyimlarida qadimiy kiyim turlari: sxenti, uch burchakli peshband va boshqa qohinlik anjomlari saqlanib qolgandi. Kambag'al aholi tabaqalarining kiyimlari oddiyligicha qoldi. Ayollarning kiyimi erkaklarnikiga o'xshash bo'lsa ham, tor ko'ylak kalaziris saqlanib qolgandi.

Misrliklar bosib olgan Suriyadan erkak va ayollarning kiyimiga plash-naramnik kirdi. Bu ikki bukilgan to'g'ri to'rt burchak shaklli matodan qilingan va boshi uchun kesim qilingan, yoni tikilgan uzun kiyim edi.

Misrliklar oyoq kiyimi juda oddiy bo'lgan. Bu charm yoki qamishdan ishlangan shippak edi.

Ularning kostyumlarida har xil bezaklar bo'lgan: qo'l va oyoq bilaguzuklari, uzuklar, marjonlar, sirg'alar, tilla va sirdan yasalgan tillaqoshlar va b. Kambag'allar esa chinni pasta va sirlangan loydan yasalgan bezaklarni taqishgan.

Erkak va ayollarning bosh kiyimlari juda xilma-xil va murakkab bo'lgan. Ularning shakli va bezagi shaxsning ijtimoiy holini ifodalardi. Ayollar yuziga pushti-qizil yog' upani surgan, qosh va kipriklarini qoraga bo'yashgan. Erkaklar esa kipriklarini yashil ranga bo'yar edilar. Qo'l va oyoq tirnoqlarini esa mahsus o'simlik, *genna*, bilan qizqish sariq rangga bo'yar edilar.

Misrda paydo bo'lgan badiiy elementlar keyinchalik boshqa madaniyatlarga ham ta'sir etib, rivojlanib, Yevropa kostyumiga ham kirgan va hozirgi zamongacha saqlanib qolgan.

2. Bobil-Ossuriya madaniyati yodgorliklari - yozuv va san'at asarlari - xalqning urf-odatlar va turmush tarzi to'g'risida ma'lumot berardi.

U kuchli katta byurokrat apparatli mamlakat bo'lgan. Uning yaxshi o'rgatilgan, zamonaviy xarbiy texnika bilan qurollangan lashkarlari bor edi. Ular keng savdo-sotiq, chorvadorchilik va qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanganlar. Tarixi, asosan, bosqinchilik yurishlari bilan nishonlangan xarbiy mamlakat odamlarining qaxri qattiq va muomalasi qo'pol bo'lgan.

San'at asarlari Bobil - ossuriyaliklarning tashqi ko'rinishini saqlab qoldi. Ular shartli usulda tasvirlangan. Gavdani, kiyimni va sochini tasvirlaganda ular nag'qoshlik usuliga rioya g'ilgan edilar. San'at asarlari, asosan, podshoxlarning ovga, urushga yurishlariga, shaharlar va g'al'alarni g'amal qilishiga, taslim bo'lgan xalqlar hadyalarini olishlariga bag'ishlangandi. Ossurliklarning tashqi ko'rinishi

misrliklardan keskin farqlanardi. Ular baqaloq, baquvvat, boshi katta, yirik yuzi xushbichimli, sersoqol va juda murakkab va puxtalik bilan taralgan hashamatli sochlari bo'lgan xalq edi.

Ularning kiyimlari sharq uchun tipik bo'lib, kiyim bichimlari sharqiy kiyimlarini barcha turlariga asos bo'lgandi.

Erkaklar kostyumi. Bobil - ossuriyaliklarning barcha sinf va guruhlarining kiyimi yaxlit bichilgan kalta yengli ko'ylak "*kandi*" edi. G'arbiy-aristokratik aslzodalar va ayniqsa, podshoxlar kiyimi ser bezatilgandi. Odamlarning ijtimoiy holi kiyimda yaqqol ifodalanardi. Uzun kandini faqat podshox, kohin, podshoxga yaqinlar va yirik amaldorlar kiyishi mumkin edi. Boshqa aholi bo'ksasida belbog' bog'langan kalta ko'ylak kiyishardi. Kiyimning bahosi va baravar kiyilgan kiyim soni qat'iy belgilangandi. Bir yo'la bir kiyimdan ortiq faqat podshox kiyishi mumkin edi. Boy bezatilgan kandidan tashqari podshox plash "*konas*", podshox ramzi, kiyardi. Kandi va konas geometrik naqshli kashta bilan bezatilardi. Unga o'yma naqshli oltin plastinani kiritishardi. Konas va kandini chegarasiga tikilgan popuk mahsus ingichka tolali jundan qilinardi va to'q-qizil, qirmizi, rangga bo'yalardi. Shoxning kandisi yuqori sifatli oq jun matodan qilinardi, plash konas esa qirmizi rangga bo'yalardi. Oltin plastinkalar va kashtalar yordamida shox kostyumi yorqin taassurot qoldirardi. Tarixning barcha davrlarida shoxning saltanat ramzi - bosh kiyimi *tiara* "*kidaris*" bo'lgan. U namatdan qilingan tepasi tor, metall plastinka bilan bezatilgan qalpoq va qimmatbaho tosh bilan bezatilgan oltin toj - bog'ich "*fanons*" edi. Fanonsning uchi popukli bo'lib ensadan bog'lanib, orqasiga tushardi. Shoxning qo'lida tirsagidan boshlab spiral bilaguzuklar, bilagida esa ossur xudosi tasvirlangan bilaguzuk taqilardi. Kamon tortib turgan qanotli xudo Ossur tasviri - quyoshni ramzi - doirada tasvirlangandi.

Shoxlarning oyoq kiyimi - shippaklar - kiyimiga nisbatan oddiyroq edi.

Podshoxga yaqinlarning xizmatkorlardan farq qiladigan belgisi kandini bezatadigan popuk uzunligi va eni edi. Popukning eni qanchalik kengroq bo'lsa va kiyimda uning miqdori ko'proq bo'lsa, tabaqa oliy hisoblanardi. Popukni bir bo'lagini kiyimga tikmasdan tanani aylantirib turli usulda o'rashardi. Oltin peshona bog'ich ham aslzodalarning farq belgisi bo'lgan. U popukli uzun tasma bilan yakunlanardi.

Ayollar kostyumi. Yozuv yodgorliklarning ma'lumoti bo'yicha Bobil-Ossuriyada ayollarning ahvoli juda og'ir bo'lgan. Ular umuman xuquqsiz bo'lib, umrbod otasiga, eriga, o'g'liga yoki erkak g'arindoshlariga g'arashli bo'lgan. Shuning uchun, san'atda ayollarning tasviri deyarli bo'lmagan. Tasviriy yodgorliklarning birida shox Ashurbanipal xotini bilan tasvirlangan: shox xotini bilan shiyponchada, ziyofatda o'tirishgan. Tasvirda shoxning xotini va uning xizmatkorlari uzun ko'ylak va ustidan yopinchoq kiyishgan, ularning bichimi va shakli erkaklar kiyimidan farqlanmasdi. Ular ham ser va boy naqshlangandi.

Kiyimlarda qo'llangan asosiy mato - jun gazmoli bo'lgan. Bobil-Ossuriyada matolar juda qimmat turardi. Mashhur kashtachilar - sidon cho'rilar - matoni kashtalardi. Matoni bo'yash kasbi juda rivojlangandi. Ularning qizil, zangori, sariq, ko'k va jigar ranglari aynimasdi; qirmizi rang bo'yoqni tayyorlash va gazmolni unga bo'yash usullari sir saqlanardi.

Aslzodalarning kiyimi qimmatbaho metallardan yasalgan taqinchoqlar bilan bezatilardi. Turli ma'noli ramzni ifodalaydigan ziraklar, bilaguzuklar, uzuklar edi. Og'ir va oddiy shaklli bo'lsa ham ular chiroyli, naqshli qilinardi. Ularda qadimiyliklar uchun muqaddas timsol tasviriga aylangan koinot elementlari - quyosh, oy, yulduzlar - tasvirlangandi.

Saqlanib qolgan san'at yodgorliklariga binoan, Bobil - Ossuriyada kiyilgan kiyimlar asrlar davomida kam o'zgargandi va sharq xalqlari kiyimining asosi bo'lgan.

3. Qadimiy Erondagi qabilalar alohida yashashardi va boshqa amlakatlarga nisbatan jahon tarixi doirasiga kechroq kirgandi. Faqat milloddan avvalgi VI asr O'rtasida Qadimiy Fors kuchli, xarbiy texnika bilan qurollangan armiyaga ega yirik quldor mamlakatga aylangandi. Ammo uzoqqa cho'zilgan Yunon-fors urushlaridan keyin miloddan avvalgi V asrda u barcha yutuqlaridan ayrilib, Osiyo viloyatiga aylangandi.

Qadimiy Fors madaniyati ayniqsa, tasviriy san'ati bosib olgan xalqlar madaniyatlari ta'sirida yaratilgandi. Perespol va Suzadagi saroylar eng yirik san'at yodgorliklari edi. Ularning rangli devoriy tasvirlari forslarning tashqi ko'rinishi va ularning kiyimi to'g'risida ma'lumot beradi.

Erkaklar kostyumi. Asosiy aholining kiyimi eron avlodlari - toqli cho'pon qabilalari - turmush tarzini aks ettiradi. Ularning kiyimi kalta, gavdaga yopishib turgan "*kaftan*", fors.-yelka kiyimi, charm ishton "*anaksarides*" va uchli cho'qqili charm qalpoqdan iborat edi. Yunon tarixchisi Gerodot davrida, miloddan avvalgi V asr, bu kiyimlar dag'al jun matodan qilinardi, bosh kiyimi esa frigiya qalpog'iga o'xshash edi. Shunday kiyimlar iqlim va chorvadorlarning turmush sharoitiga juda mos edi.

Fors lashkarlari va aslzodalari kiyimi boshqacha bo'lgan. Tasvirlarga binoan, ular kuchli, jismoniy yaxshi tuzilgan, qorachadan kelgan, qora sochli, kelishgan yuzli odamlar edi. Ular erkin, uzun, keng yengli kaftanni kiyishardi. Kaftan keng belbog' bilan bog'lanardi. Bosh kiyimlari har xil bo'lib, shaxsning ijtimoiy holini ko'rsatardi. Oyoq kiyimlari charmli boshmoqlar bo'lgan.

Sinfiy farqlar qadimiy forslar kiyimida Bobil - Ossuriyaliklarnikiga o'xshagandi. Oltin bilan kashtalangan bosh kiyimlar, oltin zanjirlar, kashtalangan boshmoqlar va b. ijtimoiy ramzlar bo'lgandi. Shoxning kiyimi eng qimmatbaho bo'lgan. U keng qirmizi kaftan, qizil anaksarides va qalin taglikli boy bezatilgan boshmoqdan iborat edi. Ustki kiyimi plash kandis edi. Unda Shox ramzi - kalxat va burgut - kashtalangandi. Bosh kiyimi "*mitra*" ham shox ramzi bo'lgan. U tepaga kengaygan trapetsiya shaklli bo'lib, qimmatbaho toshlar va oltin bilan bezatilgandi.

Forslar kiyimida zig'ir, jun va shoyi matolarni qo'llashgan. Forslarning bezaklari oltin, kumush va qimmatbaho toshli bilaguzuklar, ziraklar va marjonlar edi.

Ayollar kostyumi erkaklarnikiga nisbatan uzunroq bo'lib, yupqaroq matolardan qilinardi. Kiyim deyarli gavdaga yopishib turardi. Old qismining ko'krigida kesim qilinib, tasmalar yordamida bog'lanadigan taqilma hosil qilingandi. Oliy zot ayollari, erkaklar singari, ustma-ust bir necha kiyim kiyishgan.

Forslarni arablar bosib olganidan so'ng fors kiyimida bir necha o'zgarishlar ro'y bergandi.

Erkaklar orasida qadimiy arab ko'ylaklari, salla, kaftanlar va plashlar keng tarqalgandi. Arab va turk kostyumlarining fors kostyumi bilan qo'shilganligi natijasida yangi kostyum vujudga kelgandi. Uzun, keng, beli bog'langan xalat va kesik konussimon shaklli bosh kiyim endi forslarning kiyimi bo'lib qoldi. Kiyimlarning yenglari yergacha osilingan uzun yoki kesimli edi. Kalta yenglarning orqa qismi juda uzun, yergacha, qilinib, keng bo'lardi.

XV asr oxirida tasviriy san'at yodgorliklarida fors kostyumi tasvirlangan edi. Bu davrda forslar bir necha keng ishton va oldi tugmaladigan keng belbog' bilan bog'langan uzun kaftan kiyishardi. Boshiga rangli bosh kiyimlarni, ko'pincha duxobadan, yoki salla kiyishardi. Ayollar kostyumi oq ip matoli ko'ylakdan, keng, rangli shalvar, uzun yengli ichki kaftandan, uchi qayrilgan uchli tuflidan, belbog'-sharfdan, vual va qalpoqchadan iborat edi. Ko'chaga chiqqanda fors ayoli kiyimining ustidan yopinchoq va plash kiyardi.

Fors oyoq kiyimi shnurovkali, tuflisimon edi. Ular charm yoki mato bo'lagidan qilinib, oyoqiga yoppishib turardi va tasma yordamida bog'lanardi. Ochiq oyoq kiyimi dag'al charmdan qilingan shippaklar edi. Etiklar an'anaviy poyafzal bo'lgan. Keyinroq rangli oyoq kiyimlar keng tarqalgan edi. Saroyda eng qadrlangan oyoq kiyimlar qizil va sariq rangli bo'lgan, aslzodalarda qirmizi rang eng g'adrli edi.

Keyingi davrlarda tovonsiz tufl - "*kavsh*" - ayollar orasida keng tarqaldi. Kavshlar odatda, qora, qizil va ko'pincha, yashil ranglarga bo'yalgan saxtiyon terisidan qilinardi. Patagining chetlari yashil rangli charm bilan tikilardi, tagligiga poshnaning joyiga naqshli temir nag'al qoqilardi.

Forsliklarning milliy kiyimi ishton anaksarides va tor kaftan ossurliklarning kandisidan keyin birinchi bichilgan kiyim edi va keyingi davrlarning sharq kostyumlariga asos bo'lgandi.

Nazorat savollari

1. Qadimiy Misrda qanday ramzlar bo'lgan?
2. Qadimiy podshoxlik kostyumi.
3. O'rta podshoxlik kostyumi.
4. Yangi podshoxlik kostyumi.
5. Bobil -Ossuriya kostyumi.
6. Fors kostyumi

Ma'ruza № 8 (2 soat).

Mavzu: QADIMGI VA FEODAL SHARQ KOSTYUMI

Reja:

1. Hind kostyumi
2. Xitoy kostyumi

3. Yaponiya kostyumi

Adabiyotlar:

1. Одежда народов Зарубежной Азии. Сборник МАЭ т. XXXII. Л.: - Наука, 1977
2. Хасанбоева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. Т.: 2002
3. Мегцалова М.Н. История костюма. М.: - Искусство, 1972.
4. Пармон Ф.М. Композиция костюма. М.: - Легпромбытиздат
5. Сычев Л.П., Сычев В.Л. Китайский костюм. М.: - Восточная литература, 1975.

1. Sharq davlatlari qatorida Hindiston inson sivilizatsiyasining beshigi bo'lgan. Hozirgi zamonda dunyoga mashhur hind madaniyati 5000 yillik davrni o'z ichiga oladi. Bu madaniyat muqaddas Gang daryosining vodiysida tug'ilgandi.

Hindistonning tabiati juda boy va xilma-xil bo'lganligi sababli, u har xil ajoyib shakllarni yaratgan. Odam va tabiat orasidagi qarama-qarshilik hindlarning fikr va dunyoqarashidagi hususiyatlarining juda murakkabligiga asos bo'ldi. Tizzada turgan odamning tabiatga bo'ysunishi, tushunmaslik va qo'rqinch, ezilganlik va qattqlik diniy fikrlash asosida sodir bo'lgandi. Soni ko'p xudolar hind fikrlashini son hususiyatiga olib keldi. Miqdor hukmdorligi hind san'atining tushunchasiga olib keldi.

Ming yillararo Hindiston hunarmandchiligida eng muhim o'rinni mato to'qish egallaydi. Hindiston paxta vatani bo'lsa ham, u yerda ipak, jun toladan yupqa harir yoki qalin dag'al matolarni to'qishardi. Matolarning sifati juda yuqori darajali bo'lgan. Ip gazlama shunchalik harir bo'lganki, yetti qavat mato ostidan tanadagi xol ko'rinardi. Gazmollarning naqshi to'qima, bosma, qo'lda tasvirlangan, trafaret yordamida hosil qilingan, batik va tuguncha usulida, kashtalangan yoki o'yma modda yordamida hosil qilingandi. Mato naqshining tasvirlarida o'simlik, hayvonot, odamiy tematik tasvirlar, adabiy mavzular va hirot, musulmon, mavzulari bo'lgandi.

Hind kostyumidagi shakl - bu din bilan yuqori darajaga ko'tarilgan go'zal va pok tana; u hayot beradi va hayot davomchisidir. Uni berkitish kerak emas, chunki tana shakli har tomonlama kamolat cho'qqisi deb hisoblanardi. Tana barkamol edi va unga faqat birorta narsa qo'shilishi mumkin edi.

Eng qadimiy tasvirlangan kiyim shakllari miloddan avvalgi III minginchi yil, beliga va yelkasiga o'ralgan tikilmagan mato bo'laklari edi. Yelka kiyimi mato parchasidan iborat bo'lib, chap yelkasiga tashlanardi va o'ng qo'ltiq ostidan o'tqazilib, tanaga o'ralardi. Bel kiyimi esa hozirgi *dxotiga*. o'xshash ariylar olib kelgan kiyim edi.

Kostyumni asosiy elementi "*nivi*" edi. Bu beliga o'ralgan va qornida taxlam qilingan tikilmagan mato bo'lagi edi. "*Nivi*" so'zi sanskrit, qadimiy hind tilidan kelib, hozirgacha ayollar kiyimida saqlanib qolgan.

Tanani tepa tomoni yopinchig' "*upavasa*" va "*paridxana*" ga o'ralardi.

Ushbu kiyim elementlari erkak va ayollar kiyimining asosi bo'lgandi.

Miloddan avvalgi 320-yildan milodning 320-yiligacha bo'lgan davr kostyum evolyutsiyasida muhim rol o'ynadi. Bu davrda bichilgan va tikilgan kiyimlarning asoslari mavjud bo'lgandi. Markaziy Osiyodan kelgan bosqinchilar, xunmlar, shaklar, kushonlar, yopishib turadigan bichilib tikilgan kiyimni olib kelishdi. U kimhobdan, shoyi astarli, tor, tanaga yopishib turadigan, tunikasimon bichilgan "joma" simon yyelka kiyim va etikka kirgizilgan, tor, tizzasidan tepaga sal kengaygan "payjoma"simon ishton edi. Lekin bu holda kiyim hindlarga to'g'ri kelmagandi. Ular kiyimga yangi shakl va hususiyat berishdi - yelka kiyimi yupqa zarli iplar bilan to'qilgan muslindan qilinib, belida belbog' bilan burma hosil qilib bog'lanardi. Bel kiyimi esa "yarimdxoti"-yumshoq, tiniq, yo'l-yo'l matodan qilinardi. Bu davrda ham juda ko'p taqinchoqlar taqishardi. Erkaklar ustki kiyimi "adxivasa"-bichilib tikilgan va zar bilan kashtalangan ko'ylak bo'lgan.

320-1100 yillar hind kostyumining barqarorlashgan davri deb hisoblanardi. Bu davrda erkak va ayollarning hamda mahalliy kiyimlarning ajralishi yuz bergandi. Aynan shu davrda musulmonlarning Hindistonga kirib kelishi san'atning rivojlanishida yangi bosqichni nishonlaydi. Yangi din - islom - mahalliy urf-odatlarining o'zgarishiga olib kelgandi.

Bel kiyimi shalvar edi, turkiya shalvarining xili, yupqa va qimmatbaho matodan qilingan ayollar ishtoni "sutxni" deb atalardi, erkaklarniki esa -"sutxna" deyilardi.

Yelka kiyim - "kamis", avval uni "kurta" deb atashardi, hozirgi zamonda kurta deb erkaklar ko'ylagini atashadi,. Kamisning old va orqa bo'laklarini alohida bichilardi, yelka kesimi qiya bo'lgandi, belida vitachkalar qilinardi. Kamisning uzunligi bo'lsa o'rtasidan boldirni o'rtasigacha bo'lishi mumkin edi. Beldan pastroq yon choklarda kesimlar qilingandi. Kamisni old yoqa o'mizi uchburchak shaklida bo'lib, orqasida kichkina tik yoqa bo'lgan. Ko'ylak turli rangli naqshli ipak matodan qilinardi.

Erkaklarning bel kiyimi, ya'ni ishtoni, "payjoma" ikki poy va rombsimon oqdan iborat bo'lgandi. Ishton ning tizzasidan tepa tomoni keng bo'lgan, pasti esa yopishib turardi. Ishtonning tepa tomoni uzunroq bo'lgani uchun uni bilaguzuk kabi ko'ndalang taxlamlari hosil bo'lardi, Shu sababdan uni nomini "churidara", "churi"-bilaguzuk, deb atalardi. Ishton ko'pincha oq ip gazmoldan tikilardi.

Eng ko'p tarqalgan erkaklarning yelka kiyimi -"kurta"- ip gazlamadan tikilardi. Ko'ylak yaxlit bichilgan stan, yon qo'shimchalardan, alohida bichilgan yeng va hishtakdan iborat edi. Yoqa o'mizi vertikal bo'lib, planka tikilar edi, yoqasi yo'q edi.

XIX asrda inglizlar hukmdorligi davrida mahalliy kiyimga yana bir necha o'zgarish kiritildi. Ingliz xarbiy kiyimi hind kiyimi bilan aralashgandi. "Syurtuk" va "pilotka" XX asr erkaklari milliy kiyimiga aylandi. Ammo, bel kiyimi dxoti bo'yicha qoldi. Ayollarning kiyimi o'zgarishidan, burungi hoida qoldi.

Bezaklar hindlar kiyimida hozirgacha, ayniqsa ayollarda, muhim rol o'ynaydi. Ular faqat bezak belgisi emas, balki ko'proq ijtimoiy rol o'ynaydi. Hindistonda bezak taqmagani bironta ham ayol yo'q, bevalardan tashqari. O'rta va past tabaqali ayollar barcha taqinchoqlarini doimo tag'ib yurishardi. Zargarlik buyumlari xilma-xil bo'lgan: ziraklar, uzuklar, marjonlar, bilaguzuklar, tyoqalar,

kamarlar, sochiga va peshonasiga tag'adigan taqinchoqlar va b. Ular chig'anoqdan, fil suyagidan, marjondan, marva-riddan, donlardan, nozik, fayans, rangli shisha va oynachalardan qilinardi. Oltin va qimmatbaho toshlar ham juda ko'p qo'llanardi.

Hindlar kostyumida kosmetika, bo'yanish, keng qo'llanardi. Ular yuzini, qo'lini, oyoqini turli ranglarga bo'yashardi. Peshonadagi nug'ta VII asrdan boshlab Buddaning etti go'zaligidan biri deb hisoblanardi. Keyin bu xolsimon nug'ta odatga aylandi.

Oyoq kiyimlari: charm yoki yog'ochdan ishlangan shippaklar, qishda somondan to'qilgan tufli va namat yoki charmdan qilingan etik. Shuningdek, hindlarga musulmonlardan uyga kirganda oyoq kiyimini yechib kirish odati o'tgan.

2. Xitoy madaniyati 4000 yil ilgari vujudga kelgandi. Uning madaniyati misr madaniyati bilan raqiblik qilishi mumkin. Agar misr madaniyatidan faqat yodgorliklar qolgan bo'lsa, ehromlar, ibodatxonalar va san'at asarlari, xitoy madaniyatini vasiyatlari esa hozirgi zamongacha o'zgarmasdan qoldi, til, yozuv, musiqa va b.

Xitoyda davlat xizmati, saroy qoidalari, xayot, kiyinish odati davlat tomonidan qat'iy qonunlashtirilgandi.

Qadimiy Xitoy falsafalari tabiatning qarama-qarshiligini, *Yan* - yorug'lik, *In* - qorong'ulikni, ammo kurashda emas, balki muvozanatda, osoyishtalikda, qo'shilishda tan olgandi. Ularning tasavvurida dunyo tuzilishining asosida *erkak* - *Yan* va *ayol* - *In* omillarning ijodiy o'zaro aloqasi bo'lgan.

Geometrik shakllar ramzi. Qadimiy xitoyliklar tasavvurida *Osmon doira* shaklda, chunki, u bir chiziq chegarasida berk, boshi va oxiri yo'q va Osmonning cheksizligini ifodalaydi.

Yer - *kvadrat*, to'rt tomon va to'rt burchak, yerning chegarasi bor, shuning uchun kvadratni har tomoni burchak bilan yakunlanadi.

Ushbu shakllar yer va Osmonning fizik holatini tasviri emas, aks holda, ularning faqat geometrik ishoralari va ko'smik omillarining mohiyati. Shu ikkita shakllar qo'shimchasi san'atda va kostyumda ko'p uchraydi.

Son ramzlari. "I tszin"da Osmon va Yer son ramzlari quyidagicha bo'lgan: Osmon-1,3,5,7,9; Er-2,4,6,8,10. Demak, o'nni mobaynida *toq sonlar* - *Yanni*, *juft sonlar* - *Inni* ramzi bo'lgan. Osmon sonlari beshta, Er sonlari ham beshta edi. Bu sonlar qo'shilishib *Metall*-*"Tszin"*, *Daraxt*-*"Mu"*, *Suv*-*"Shuy"*, *Olov*-*"Xo"* va *Er*-*"Tu"*ni yaratadi. Demak, 5 tabiiy kuchning aylanishiga ikkita asosiy sabab bo'lgandi.

Rang ramzlari. Geometrik shakl va sonlar "tiliga" nisbatan rang ishoralari odamning tuyg'usiga zo'r ta'sir etar edi. Ammo, ular qarama-qarshi va murakkab bo'lgan. Misol uchun, agar Osmon-Yan - Koinotning yorqin omili, Yer-In unga qarama-qarshi deb hisoblansa, u holda nima sababdan Osmon qora - binafsha yoki qora, Yer - sariq rang ramzi bilan ifodalanganligini tushunish qiyin.

Ikkita omilning o'zaro aloqasi bilan tug'ilgan 5 tabiiy kuch ramzlari:

yashil rang - Bahor rangi, yosh o'simlik va yaproqlar rangi;

qizil rang - Yoz, Olov-Xo, Janub va Mars sayyorasining ramzlari;

oq rang - Kuz ramzi, u paytda omborlar oq guruch bilan to'ladi;

qora rang – qish rangi, eng qorang’u davrni, zimiston saltanat - Shimol rangi,

sariq rang - Yoz faslining oxiri rangi, don ekinlar-ning etilishi, hosil tug’diradigan tuproq rangi,

Qadimiy Xitoy kostyumining oddiy shaklining paydo bo’lishiga odamlarning xo’jalik ishlari, xom-ashyo imkoniyatlari va iqlim sharoitlari sabab bo’lgandi. Tantanali va rasmiy kiyimlarning shakllari oddiy kiyimlardan o’zlashtirilgandi. Ular, bichimi bir xil bo’lgani holda, matosi, bezaklari va arzimasi konstruktiv farqlari bilan ajralib turardi.

Xitoyliklar kiyimlari ichki va ustki, yelka va bel kiyimlaridan iborat edi.

Yelka kiyimi. Odatda xitoyliklar yelka kiyimlarining oldi ochiq bo’lgan. Ichki va ustki kiyimlarning bichimi asosi bir xil bo’lgan. Konstruktiv xususiyatlari bo’yicha barcha kiyimlari ikki turga bo’linadi:

- birinchi turi - *Sharqiy-osiyo* turi -tunikasimon bichilgan, old va orqa bo’laklarining uzunligi teng, yelkasida ikkiga buklangan ikki en matodan tikilgan kiyim edi; matoning eniga qarab yengi xam bichilardi, yetmagan uzunligiga qo’shimcha mato bo’lagi tikilardi; Rim tunikasidan va Yapon kimonosidan bu bichim stanni qo’ltig’i yumaloqlanganligi bilan farqlanardi; O’rta Osiyo kiyimlaridan orqasida o’rta choki borligi bilan farqlanardi;

- odatdagi xitoy kiyimining ikkinchi turi ham oldi ochiq va orqa o’rta chokli bo’lgan, lekin ularda *qiyalangan yelka choki* qilinardi; Shu sababdan ularning old va orqa bo’laklari aloxida bichilardi.

Ushbu ikki tur kiyimlarning simmetrik va asimmetrik bichimlari bo’lardi. Simmetrik bichimda old bo’laklari uchma-uch bo’lgan, asimmetrik bichimda esa, chap old qismiga qo’shimcha bo’lak ulanardi, o’ng bo’lagi ko’rinmasligi uchun kaltaroq qilinardi.

Sharqiy-osiyo bichim turidagi simmetrik kiyimlarga erkak va ayollarning ichki va ustki ko’ylaklari kiradi, asimmetrik kiyimlariga esa erkak va ayollar xalatlari va ichki ikki bortli koftalar kiradi.

Yelka chokli kiyimlarga nimchaning barcha turlari, yoni tikilmagan simmetrik bichimli erkaklar ichki kiyimi va ayollar ko’kragini siqib turadigan ichki ko’ylagi kiradi.

Birinchi tur kiyim bichilganda, yonini pastki sal kengaytiriladi, tor matolardan tikilgan xalat va koftalarni yoniga qo’shimcha qiyiklar tikilardi. Stan bilan yaxlit bichilgan yengning asosiy bo’laklariga qo’shimcha bo’laklar tikiladi. Yengning pastki tomoni, chok bo’ladigan joyi, to’g’ri yenglarda gorizontaal va uchiga qarab torayadiganlari qiya bichilardi.

Yelka kiyimning barcha turlarida yoqa o’mizi aylana qirgilgan; oldi qirgilgan ikki qavatli tik yoqasi bo’lgan. Etagi esa dumaloqlangandi.

Eng keng tarqalgan erkaklar ichki kiyimi - Sharqiy - osiyo bichimidagi simmetrik “*duy tszin*” yoki asimmetrik “*se tszin*” ko’ylak-“*xan shan tsza*” bo’lgan. Issiq ob-havoda ko’ylakning o’zi ustki kiyim bo’lishi mumkin edi. Boshqa vaqtda uni ustidan to’q rangli, astarli, paxtada qavilgan yana bitta yoki bir nechtasini kiyishardi.

Keng tarqalgan erkaklarning ustki kiyimi Sharqiy - osiyo bichimidagi uzun xalat "*chan pao*" edi. Hashamatli bezatilgan xalatlar aslzodalar va amaldorlar uchun rasmiy kostyumning majburiy elementi edi.

Ko'chada va xizmatga oid joylarda xalat ustidan old bo'laklarining uzunligi teng kalta yoki uzun kofta kiyishardi.

O'rta tabaqali aholi shunga o'xshagan lekin bezatilmagan xalat va ustidan kofta yoki nimcha kiyishardi. Ko'pchilik oldida xalatsiz yurish beadablik va kambag'allik hisoblanardi. Kambag'al shaharliklar va dehqonlar xalatsiz yurishardi.

Ayollar ichki kiyimining erkaklarnikiga nisbatan farqi bor edi. Qadimiy Xitoy odatlari bo'yicha ayollar go'zalligining asosiy belgisi - yassi ko'krak hisoblanardi. Unga erishish uchun qizlar va ayollar ko'kragini uzun ip gazlamali tasma "*bao syun tyao*" bilan tarang siqib bog'lab qo'yishardi. Shu maqsadda ham tanani siqib turadigan ichki nimcha "*kan tszyan, kan tszyar*"ni kiyishardi. Faqat xomilador va bola emizadigan ayollar ko'kraklarini bog'lamas edilar.

Qadimiy Xitoyda ayollar ustki kiyimi sharqiy - osiyo usulida turli asimmetrik bichilgan kofta "*pao*" bo'lgan. Uni uzun ishton va yubka-plaxta ustidan kiyishardi. Kofta ustidan nimcha "*bey sin*" va tantanali marosimlarda etagi shokila bilan bezatilgan uzunroq nimcha "*sya pey*" kiyishardi. Boy ayollar koftalarining yoqasi va chap old bo'lagining etagini kashta va hoshiya bilan bezatishardi. Kambag'al ayollar koftasi bezaksiz edi yoki bir rangli tasma bilan bezatilardi. Koftani ishton ustidan kiyishardi.

Ayollar xalati "*tsi pao*" Sharqiy - osiyoli asimmetrik bichimli edi. Xalatning shakli to'g'ri yoki sal tanaga yopishib gavda shaklini ko'rsatar edi. Modaga asoslanib ularni yengi to'g'ri, keng yoki tor, qiyalangan, uzun yoki kalta bo'lardi. Yozlik xalatlar yengsiz bo'lishi mumkin edi. Xalatlarning uzunligi tizzadan yoki to'pig'igacha bo'lib, yon kesimli yoki kesimsiz bo'lishi mumkin edi. Chap old bo'lagini borti qiyalangan, dumaloqlangan va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin edi. Xalatni ikki qavatli tik yoqasining eni urfga oid o'zgarardi.

Xalat "*tsi pao*"ni koftadan asosiy farqi - uni uzun ishtonsiz kiyishardi.

Erkaklar yelka kiyimining ranglari ko'k, qora, oq, kul rang, va jigar rang bo'lgan, ayollar kiyimlarining ranglari yorqinroq bo'lgan.

Erkaklar va ayollar bel kiyimlari ishton "*kutsza*" va yubka-plaxta "*tsyunza*" va peshband bo'lgan. Sovuq paitda va ba'zan, bayram va tantana munosabati bilan ishton pochasi paypoq ustidan chiqarilib, mahsus qora tasma bilan bog'lab qo'yilardi.

Uch faslga mos ishtonlar bo'lgan: yozlik - astarsiz, oq, qora, ko'k, kul rang matodan; bahor-kuzlik - astarli to'q rangli matodan; qishlik - paxtali, qavilgan qilinar edi.

Ishton -paypoq "*tokau*" Xitoyda paydo bo'lgan. Bu alohida, og'i biriktirilmagan, paypoqsimon poychalar edi. Ular bog'ich yordamida belboqqa mahkamlanardi. Hozirgi davrda "*tokau*"ni ishton ustidan kiyishadi.

Ko'pincha xitoyliklar ishton poychasini tizza pastidan bog'lar edi. Ba'zan uni *gamash* "*bi*" bilan tortib qo'yishardi yoki ustidan *etiksi*mon paypoq "*va*"ga kirgizishardi.

Yubka-plaxta “*Shan*”ni o’rta va yuqori tabaqaning erkak va ayollari kiyishardi. Uning bichimi bir xil bo’lgan: ikki to’g’ri to’rt burchakli matoga belbog’ tikilar edi, peshbandga o’xshash va ular yordamida belga mahkamlanardi. Shanni yon tomoni plissirovka, o’rtasi orqa va old bo’laklarida kashta qilinardi.

Kostyumning eng muhim bo’limlaridan biri belbog’ “*day*” hisoblanardi.

Nefrit xalqalar va boshqa bezaklar bilan to’qilgan rangli *shnurlar* “*Shou*”lar Shaxsning ijtimoiy xolini ko’rsatardi. Shouni beliga bog’lashardi, uchlari esa yonida yoki orqasida osilinib turardi. Unga ba’zan kerakli foydali buyumlarni pichoq, chaqmoqtosh, uzuk va b., osib qo’yishardi. Nefritdan yasalgan *osilchoqlar* “*peyyuy*” ham kiyimning bezagi bo’lgan, ular ham odamning ijtimoiy ahvolini ko’rsatardi.

Bosh kiyim va pricheskalar. Qadim zamonlarda xitoyliklar sochlarini qirqmaganlar. Ular sochlarini tugunga yig’ib, shpilka yordamida mustahkamlab qo’yar edilar. Bosh kiyimlarning shakllari har xil bo’lgan. Ularning kiyish odatlari Evropaliklarnikiga qarama-qarshi bo’lgan. Agar evropaliklar hurmat bilan bosh kiyimni yechsa, xitoyliklar esa qaytaga uni kiyar edilar. Ochiq havoda yoki binoda o’tkaziladigan marosimlarda, uchrashuvlar, audientsiyalar, banketlar va b., bosh kiyimni kiyish shart edi. Bosh kiyim voyaga etganda kiyilardi. Bosh kiyimda mahalliy va ijtimoiy belgilar bo’lardi. Nefritdan osilchoqlar qilingan bosh kiyim faqat tantanali marosimda kiyilardi.

Xitoy ayollari odatda bosh kiyimni deyarli kiyishmasdi, faqat tantanali marosimda, ayniqsa, to’yda, murakkab bosh kiyim kiyilardi.

Bosh kiyimlar namatdan, mo’ynadan va to’qilgan poxoldan qilinardi.

Bosh kiyimlarni shakli 6-qirrali, 3-qirrali, dumaloq, soyabonli yoki soyabonsiz, konussimon va b. bo’lgandi.

Oyoq kiyimlar. Matodan, kanop tolasidan yoki poxoldan to’qilgan yengil *tufli* “*tszuy*” keyinroq “*li*” deb atalgan oyoq kiyim keng tarqalgan edi. Matodan qilingan *tufli* “*semyan*” ko’pincha naqshli qilinardi. Qalin tagligi bir necha qavat yelimlangan va tikilgan qog’ozdan qilinardi. Charmdan qilingan tufllilar ham uchrab turardi.

Tantanali tufli “*si*” ikki qavat hoshiya bilan bezatilardi. Tovonining yon tomonlari yanchilgan chig’anoq toshdan qilingan bo’yoq bilan bezatilardi. Uchi esa, qo’shimcha yelkansimon qo’shimcha bilan bezatilardi.

Yog’inrgarchilikda yog’ochdan qilingan *skameykasimon*, tepasi yo’q *shippak* “*tszi*” kiyishardi. Matodan qilingan tasma yordamida *tszi* oyoqqa bog’lanib qo’yilardi.

Ko’chmanchilar ta’sirida Xitoyga *charm etik* “*syue*” kirib keldi, Shular qatorida matodan qilingan etik ham bo’lgan.

3. Yaponiya - juda qadim zamonlarda sivilizatsiya paydo bo’lgan sharqiy Osiyodagi mamlakatlardan biri.

Yaponiya dinlari *sintoizm*, “*sin*”-*xudo*, “*tao*”-*yo’l*, va VI asrda Koreya orqali Xitoydan kelgan *buddizm* edi.

“Yaponiya madaniyatining muhim, o’ziga xos hususiyati Shundan iboratki: bu madaniyat tabiatga oid, ya’ni tabiat namunalariga qarab tuzilgan, va shu hususiyati bilan boshqa Osiyo mamlakatlaridan, ayniqsa, Xitoydan farqlanardi.”

Tabiat bilan inoqlikda turish Yaponlarga odat bo'lgan. Tabiat bilan uyg'unlikka intilish - Yapon san'atining muhim hususiyati edi.

Yapon san'atining kuchi - bu uning haddan tashqari oddiyligi va samimiylukda bo'lib, materialning mohiyatini tushunish uchun mayda-chuydaga e'tibor berilmaganligidadir.

Yaponliklarda go'zallikni anglash uchun 4 tushuncha mavjud: 3 tushuncha, *sabi*, *vabi*, *sibuy*, tomiri bilan qadimiy din sintoizm bilan asoslanadi, 4-si esa *yugen*, buddizm falsafasi bilan bog'liq.

“*Sabi*”- Yaponlar uchun go'zallik va tabiiylik bir-biriga aynan o'xshash tushunchadir. “*Vabi*”-san'at va kundalik hayot orasidagi ko'priq. “*Sibuy*” *,sabi+vabi*, tushinchasi Yaponlarning buyum bilan ishlashiga bog'liq. San'at siri shundaki, etilmaganni eshitish, ko'rinmaydiganni tomosha qilish. Bu to'rtinchi go'zallik tushunchasi “*yugen*”ning asosidir.

Gazmollar Yaponiyada eng qadim zamondan ma'lum edi. Ular zig'ir, paxta va kanop o'simliklarni ekar edilar. VI asrda chet eldan kelgan qimmatbaho ipak matolardan aslzodalar uchun buyumlar qilinardi.

Yapon san'atini ajratadigan hususiyatlaridan biri bu gazmoldagi naqshni raportli emas, balki, rasmday yoki raporti yashirilgan qilinardi. Naqshda asosan tabiiy manbalari tasvirlanardi.

Erkaklar kiyimi. Erkaklar kiyimi ichki va ustki, yelka va bel kiyimlardan iborat. Ular shaxsning ijtimoiy ahvolini yaqqol ko'rsatadi.

Ichki kiyim “*sitagi*” bel va yelka kiyimlaridan iborat.

Bel kiyimi “*fundosi*” va “*kosimaki*” bo'lgan. *Fundos* - bu ip gazlamadan qilingan songa bog'lanadigan bog'ich. Fundosining birinchi turining uzunligi taxminan 2,25m. oq matodan qilinardi. Uning bir uchi belidan aylantirib bo'g'imga bog'lanardi, ikkinchisi esa oyoqini orasidan o'tkazib orqasida belda mahkamlanardi. *Kosimaki*ning uzunligi tizzasigacha bo'lgan. Matoni bo'ksaga aylantirib o'rab, tasma bilan mahkamlashardi.

Yelka ich kiyimi “*dzyuban*” va “*nagadzyuban*” deb atalardi. *Dzyuban* ip gazlamadan qilinardi, yengi esa oq yoki rangli ipakli matodan bo'lishi mumkin edi. Uning bichimi tunikasimon bo'lgan. *Dzyuban* ikki bo'lak matodan qilinardi, orqasida o'rta chok tikilardi, yon choki yeng o'miziga va yon kesimiga joy qoldirib tikilardi; yoqa o'mizi ham qirqilardi; old etagi taxminan 3-4 sm toraytirilardi. Eni taxminan 12 sm mato yoqa o'miziga va oldiga tikilardi va yoqa “*eri*” va *qaytarma old* “*okumi*” hosil qilinardi. Olib qo'yiladigan yoqa “*xan'eri*” ham tikilardi. Yeng bichimi to'g'rito'rt burchak shaklida edi. U ikki buklanib, yeng o'miziga tikilardi. Yengning eni yeng o'mizi uzunligi bilan baravar qilinardi. *Dzyuban*ning orqasida ichidan koketka, astar, tikilardi.

Ichki yelka kiyimining yana bir turi *nagadzyuban* edi. *Dzyubanga* nisbatan uning uzunligi boldirigacha bo'lib, yengining eni yeng o'mizidan kengroq qilinardi va ortiqcha eni yeng o'miziga tikilmas edi.

Erkaklar ustki kiyimi yelka va bel kiyimlaridan iborat edi. Yelka kiyimiga “*kimono*” va “*xaori*”, bel kiyimiga - “*xakama*” kirardi.

“*Kimono*”, *kiru mono* - ustidan kiyiladigan, XVII-XIX asrlarda ustki kiyim sifatida keng tarqalgandi. *Kimono* - xalatsimon, uzunligi tupig'igacha, etagi

chapdan o'ngga o'ralgan kiyim. Uni kiyganda ichki kiyim yoqalari "xan'eri" ko'rinishi kerak edi. Kimonoga eni 35sm, uzunligi taxminan 9m mato ketardi. Ortiqcha uzunligi yoki eni qirqilmasidan chokka tikilardi yoki qaytarilardi. Kimononing asosiy bichimi ichki kiyim bichimiga o'xshash edi. U ikki bo'lak, ikki yeng, ikki old qiyiq, ikki yoqa "okumi"dan iborat edi. Asosiy bo'laklar shakli to'g'rito'rt burchak, qiyiq tepa tomoni qiya qirqilgan to'g'rito'rt burchakdan iborat edi. Yeng o'mizining uzunligi yeng enidan torroq qilinardi. Yelka chizig'idan pastroq qiyiq uzun tomoni bilan oldiga tikilardi. Yoqa o'miziga va qiyiqning qiya tomoniga yoqa tikilardi. Kimononing bichimi yeng va yeng o'mizining uzunligi, xan'erini bor yoki yo'qligi bilan farqlanardi.

Faslga moslanib kimono har xil qilinardi:

- "*xitoe*" - yozlik, astarsiz;
- "*avase*" - salqin mavsumga moslanib astarli qilinardi;
- "*kosode*" - qishlik, astar va avra orasiga xomashyo ipak tolasi solingan, ammo qavilmagan;
- "*vata ire*" - qishki, astar va avra orasiga paxta solinib qavilgan.

Sovuq paytda Yaponlar ustma-ust bir necha paxtali kimono kiyishgan.

Kimono sidirg'a yoki yo'l-yo'l to'q rangli ipak matodan tikilardi.

Erkaklar kimonosi kashta qilingan beshta oq *gerb* "*mon*" bilan bezatilishi mumkin edi. Ulardan uchitasi orqasida va ikkitasi oldida bo'lardi.

Kimononining ustidan *belbog'* "*obi*" bog'lanardi. Ularning ikki turi bo'lgan: "*xeko obi*" - kundalik kiyimda va "*kaku obi*" - qishlik va *tantanali* kiyimda qo'llanilgan. *Xeko obi* yumshoq eshilgan matodan qilinib ikki marta bo'ksasidan aylantirib, uchini pastga qaratib bog'lanardi. *Kaku-obi* to'q ko'k, jigar rang yoki kul rang yo'l-yo'l qalin ipak yoki ip gazlamadan qilinardi. U uch marta bo'ksadan aylantirilib, uchlarini tepaga qaratib o'ng tomonida tugunga bog'lanardi.

Ustki kiyim "*xaori*" faqat kimononing ustidan yoki xakama bilan kiyilardi. Bu oldi ochiq xalatsimon, uzunligi kimonodan qisqaroq kiyim. Uning old bo'laklari uchma-uch bo'lib ilgaklarga ilingan ikkita bog'ich yordamida biriktirilardi.

Erkaklar ustki *bel kiyimi* "*xakama*"ning tashqi ko'rinishi yubka-ishton ga o'xshaydi. U uzun va keng kiyim bo'lgan. Xakama besh asosiy bo'limlardan iborat: oqi bilan yaxlit bichilgan tepasining markaz bo'lagi, ikkita poychasi va ikkita *belbog'*. Old bo'laklarida pastga qarab kengaygan, dazmollangan, qarama-qarshi uchtdan taxlamalar qilingan; orqa bo'laklarida esa ustima-usti qilingan uchta qarama-qarshi, chuqur, diagonal yo'nalishda dazmollangan taxlamalar qilingan. Rasmiy xakama juda uzun va plissirovkalangan qilinadi. Old va orqa bo'laklariga alohida uzun bog'ich-belbog'lar tikilardi, yon choklarini tepa tomonida chuqur kesimlar qoldirilardi.

Ayollar kiyimi. Ayollar kiyimining mohiyati - ayol gap qaytarmaydigan, qaram, bosig' va nafis, xushfe'l, muloyim bo'lishi lozim edi. Bu hususiyatlar ayolning tashqi ko'rinishida aksini topgan edi.

Ayollar kiyimi ichki va ustki, yelka va bel kiyimlardan iborat. Ichki kiyim "*futano*" va "*xadadzyuban*" yoki *kosimaki* va *dzyuban* edi. *Futano* - oq ip matodan qilingan uzunligi tizzagacha tikilmagan yubka edi. *Kosimaki* - muslin

yoki qarilar uchun oq va yoshlar uchun rangli krepdan, uzunligi to'pig'igacha qilingan, tikilmagan yubka. Bu bel kiyimlar kimononing oldi ochilganda ko'rinardi.

Dzyuban, *xadadzyuban* va *nagadzyuban* bir xil bo'laklardan iborat edi. Ammo, erkaklarning kiyimida yeng o'mizi va stanning yon choklari to'liq tikilsa, ayollarnikida esa yon chokini qo'ltig' tomoni ma'lum darajada tikilmasdan ochiq qoldirilardi.

Ustki kiyim kimono va ba'zan, uning ustidan kiyiladigan kiyim xaori edi.

Ayollar kimonosining bichimi erkaklarnikidan farqlanmas edi. Farqi faqat kimononing tikilishida bo'lgan: yengning ich tomoni va yeng o'mizining qo'ltig' tomonidan tikilmasdan ochiq qoldirilardi.

Kimono ustidan belbog' "obi" bog'lanadi. U ayollar kiyimining eng muhim bezagi edi. Qimmatbaho obini mahoratli to'qimachilar qo'lda to'qishadi va hashamatli tasvirlar bilan bezatishadi.

Obi beldan balandroq bog'lanib, yeng o'mizi qo'ltig' tagigacha borib, uni berkitadi. Belbog' obining bog'lash usullari juda murakkab. Obining taxlamlarida Yapon ayollari mayda buyumlarini solib yurishadi, sig'maganlarini esa - *yengning uchi* - "sode"ga solishadi, chunki ular sumkani olib yurmasdi.

Ustki kiyim - xaorining uzunligi modaga bog'liq edi. Uning bichimi erkaklarnikiga o'xshash, tunikasimon bo'lgan, etak tomonini esa sal toraytirishardi. Farqi esa faqat qo'ltig' tomonini ochiqligida edi.

Yapon milliy kiyim kiyish tartibi quyidagicha bo'lgan: oldin bo'ksasi oq mato bilan o'ralgan; keyin och rangli yopishib turgan dzyuban kiyishgan; ustidan xalat "*sitagi*"ni va so'ngra kimono va obi kiyilardi, ba'zan, xaori kiyilardi.

XV asrga qadar ular sochlarini tashlab yurishgan, keyin prichyoska qilishadigan bo'lishdi. Prichyoskalar xilma-xil bo'lgan va ko'pincha juda murakkab edi. Prichyoskalar yog'och, bambuk, metall, marjon va toshbaqa kosasidan yasalgan dekorativ taroqlar va shpilkalar bilan bezatilardi.

Yaponlarning bosh kiyimi bo'lmagan. Uning o'rniga issiqda va yog'ingarchilikda soyabon tutishardi. Sayrda va ishlagan paytda ular tekis keng soyabonli poxol shlyapalar kiyishgan, qishda esa - ro'mollar yoki kapyushonsimon yopinchoqlar kiyishgan.

Oyoqqa kalta paypoq kiyishardi. Ular paxta yoki shoyidan qilinardi, tagligi esa qalin jun gazmoldan edi. Ushbu paypoqni ibodatxona, teatr va uyda kiyishardi.

Oyoq kiyimi "*geta*" va "*dzori*" bo'lgan. Skameykasimon yog'och taglikli oyoq kiyim *geta* Yaponlarning milliy poyabzali hisoblanadi. *Dzori* - oyoqqa charm tasma yordamida mustahkamlangan, yumshoq taglikli poyabzal bo'lgan.

Yapon milliy kostyumida issiq paytda yelpig'ichlar qo'llangan.

Nazorat savollari

1. Hind gazlamalari.
2. Hindlarning qadimiy kostyum turlari.
3. Hind kostyumida bezaklarning o'rni.
4. Xitoy san'atida ramzlar

5. Ichki kiyimlarining turlari.
6. Ustki yelka kiyimlarining turlari
7. Yaponiya san'atining o'ziga xosligi nimada?
8. Ayollar ichki va ustki, yelka va bel kiyim turlari.
9. Kostyum qo'shimchalari

Ma'ruza № 9 (2 soat)

Mavzu: YEVIROPA ANTIK DAVRI KOSTYUMI

Reja

1. Qadimiy Yunon kostyumi
2. Qadimiy Rim kostyumlari

Adabiyotlar:

- 1.Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. Т.: 2002
- 2.Мерцалова М.Н. История костюма. М.: - Искусство, 1972.
- 3.Пармон Ф.М. Композиция костюма. М.: - Легпромбытиздат, 2002.

1. Qadimiy sivilizasiyalarning badiiy merosida Yunoniston va Rim ustalarining ijodi muhim o'rin egallaydi. Qadimiy Yunonistonning ajoyib madaniyati Bolqon yarimorolining janubida miloddan avvalgi VII-I asrlarda ravnaq topgan. Qadimiy Yunonistonning tabiiy sharoiti, uning iliq dengiz iqlimi, serhosil vodiylari va toq yaylovlari, boy foydali qazilmalari qadimiy Yunonlarning asosiy turmush tarzini ifodalaydi.

Miloddan avvalgi V asrda mamlakatda san'at ravnaq topgan va bu asr Yunoniston tarixida "oltin" asr deb ataladi. San'at asarlarida quldorlik demokratiyasining rivojlanishi, urf-odatlar, ozod ellinlarning qarashlari va didlari yorqin ifodalangan.

Bu davrda inson barkamolligi shuhratlangan. Mard va har tomonlama barkamol, mukammal odam siymosi estetik ideal bo'lgan. Kuch, go'zallik, sport bilan shug'ullanish natijasida garmoniyaga oid rivojlangan tana, chiroy uchun eng zarur namuna bo'lgan. Yunonlar insondagi soflik va go'zallikni oldingi o'ringa, boylikni esa, keyingi o'ringa qo'yar edilar.

Erkaklar va ayollar kiyimining asosiy turlari ko'ylak "xiton" va yopinchoq "gimatiy" bo'lgan. Ular to'g'ri to'rt burchak shaklida zig'ir yoki jun matolardan qilingandi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar xitoni ko'pincha bir parcha matodan qilinardi. O'n tomonidan qo'li uchun joy qoldirib tikilardi. Ba'zan, xitonning yon tomoni ochiq qoldirilardi edi yoki yeng qilinardi. Bunday xiton yaxlit to'qilardi. Odatda, xitonning uzunligi tizzasigacha bo'lgan, uzun xitonni esa kohinlar va aktyorlar turli marosimlarda kiyishgan. Xitondan, odatda, uyda yoki ichki kiyim sifatda foydalanishgan.

Eng keng tarqalgan ustki kiyim yopinchoq “*gimatiy*” to’g’ri to’rt burchak 1,7x4 m, jun matodan qilinardi. Uning eng keng tarqalgan kiyish usuli: sal drapirovkalangan yoki taxlamalar hosil qilingan bir tomoni chap yelkadan ko’krakka tushib turgan, ikkinchi tomonini esa orqadan o’ng qo’lining tagidan o’tkazilib, chiroyli taxlamalar bilan joylashtirilar edi.

Kengroq va uzunroq gimatiyni “*pallium*” yoki “*palla-dium*” deb atashardi va ularni dramaturglar, nutq so’zlovchilar kiyishardi. Bu kiyim odamning tashqi ko’rinishiga ulug’vorlik salobatini berar edi, drapirovka gavdaning plastik egiluvchanligini ta’kidlardi.

Yunonlarning ustki kiyimi gimatiydan tashqari yopinchoq “*xlamida*” ham bo’lgan. Uni sayohatchilar va jangchilar kiyishgan. U ham to’g’ri to’rt burchak matodan qilinib, gimatiyga nisbatan kaltaroq edi. Xlamida yelkaga tashlanardi va chap yoki o’ng yelkaga to’g’nog’ich “*fibula*” bilan mahkamlanardi.

Yunonlar, ko’pincha, bosh yalang yurishgan, ammo sayohatga keng soyabonli yumaloq fetr shlyapa kiyishgan.

Ayollar kiyimi. Ayollarning kiyimlari erkaklarnikiga nisbatan xilma-xil bo’lgan. Asosiy kiyimi hisoblangan xiton va gimatiydan tashqari boshqalari ham bor edi.

Xitonning bir necha turi bo’lgan: qaytarmali yoqasimon xiton “*diploidiy*”, keng “*ionik*” yoki tor “*darik*” xitonlar. Diploidiy odamning bo’yidan 60-70 sm uzunroq to’g’ri to’rt burchakli matodan qilinib, yon tomonlari tikilmasdi. Tepa tomoni esa qaytarilardi va yelkalarida to’g’nog’ich “*fibula*” bilan mahkamlanib, drapirovkalanardi.

Eng oddiy xiton - darik xitoni edi. U bo’y baravar bir parcha matodan qilinib, yelkasida fibulalar bilan mahkamlanardi, yon tomoni esa ochiq tikilmasdan qolardi. Ba’zan u ikkita parcha matodan qilinardi, orqa bo’lagi uzunroq qilinib, boshiga yopinchoq sifatida tashlanardi. Eng murakkab, ser drapirovkalangan go’zal ayollar kiyimi - ionik xiton bo’lgan. U ikki parcha keng, uzun, yumshoq matodan qilinib, yelkasida ko’pgina fibulalar bilan mahkamlanib, ser drapirovkalarni hosil etardi.

Xitonlar belidan, ko’kraging pastidan yoki bo’ksasidan belbog’ bilan bog’lanardi, ortiqcha uzunligi belbog’ning ustidan tushirib qo’yilib, “*klopos*”ni hosil etardi. Ba’zan xitonlar ikki joyidan bog’lanardi, ayniqsa, ionik xitonlar turli usulda bog’lanar edi.

Ayollarning ustki kiyimi xilma xil drapirovkalangan gimatiy edi. Ayollar gimatiyi erkaklarnikiga nisbatan kichkinaroq, ammo ko’rinishi go’zalroq edi. Ayollarga ko’chaga xiton va gimatiysiz chiqish taqiqlangandi, erkaklar esa gimatiyni xitonsiz kiyishardi.

Yunon ayollari husniga go’zal soch turmaklari, pricheskalar, yanada husn qo’shardi. Sochlari uzun bo’lib, Gomyerning “*tillajingalak*” sochlari eng chiroyli hisoblanardi. Sochni orqaga turmaklash usuli “*korimbos*” klassik usul deb hisoblanardi. Ayollar ko’pincha sochini tasmalar va to’rlar bilan bezatishardi.

Oyoq kiyimlari turli shaklli shippaklar edi. Ular yorqin rangli charmdan qilinib, oltin va kumush bilan bezatilardi.

Zargarlikda Yunoniston yuksak mahoratga erishgan. Sirg'alar, marjonlar, kameya va intaliyalar, uzuklar, zanjirlar, tillaqosh "*diadaema*"lar, bilakuzuglar oltin va kumushdan ishlangan va qimmatbaho toshlar qadalib, o'yma naqshlar bilan bezatilgandi. Yunon ayolini kosmetikasiz tasavvur qilish mumkin emasdi.

2. Qadimiy Rimning tarixi miloddan avvalgi III asrda boshlanib, bu milodning V asrida qullarning qo'zg'oloni va vahshiy qabilalar hujumidan keyin nihoyasiga yetgan edi. Rim mamlakati xarbiy - impyeriya bo'lgan.

Rim jamiyatining aniq sinfiy tabaqalanishi qadimiy rimliklarning kostyumida o'z ifodasini topdi. Bir tomonda erkin aholining murakkab, hashamatli, yorqin va rang-barang kiyimlari bo'lsa, ikkinchi tomonda esa qullar va kambag'allarning oddiy dag'al kiyimlari bo'lgan.

Kiyim tayyorlash uchun qo'llangan matolar: jun, zig'ir va sharqdan olib kelingan harir shoyilar bo'lgan. Kostyumda yorqin ranglar qo'llanar edi: qizil, binafsha, to'q qizil, qirmizi, va sariq. Oq rang tantanali deb hisoblanardi.

Erkaklar kostyumi. Rimliklar kostyumining asosi ichki kiyim "*tunika*" va ustki kiyim "*toga*" bo'lgan. Ularning ko'rinishi Yunonlar kiyimiga o'xshash edi, ammo bichimi va mohiyati bilan farqlanardi.

Tunika - to'g'ri shaklli, yengli, bichilgan ichki kiyim bo'lgan. Uning asosiy turlari "*kolombium*", "*talaris*" va "*dalmatika*" bo'lgan. "*Kolombium*" - uzunligi boldirgacha bo'lgan, keng emas, kalta yengli tunika. "*Talaris*" - boylarning uzun yengli tunikasi. "*Dalmatika*" - uzunroq, keng yengli, yoyilib turganda xochga (krest), o'xshagan kiyim.

Rimning ramziy ustki kiyimi "*toga*" bo'lgan. Uni faqat erkin rim fuqarolari kiyishi mumkin edi. Chetelliklar va qullarga togani kiyish man etilgandi. Toga katta to'g'ri to'rt burchak, 6x1,8 m yoki ellipssimon jun mato parchasidan qilinardi. Toganing murakkab drapirovkalarini hosil qilish juda qiyin edi, shuning uchun bu ishni qullar bajarardi. Qirmizi rang saltanat ramzi bo'lgan. Qirmizi rangli togani faqat imperator kiyishi mumkin edi.

Togadan tashqari "*laserna*" tantanali plash deb hisoblanardi. Lasernaning uzunligi tizzagacha bo'lib, unga qo'llangan matolar juda qimmatbaho, ya'ni tilla va kumush bilan to'qilgan edi. Odatda, uni orqaga tashlab, ikki yelkani yopishar va ikki uchini bo'ynining oldida mahsus tyoqa "*fibula*" bilan biriktirib qo'yishardi.

Erkin rimliklarning oyoq kiyimi shippak va yarim etik bo'lgan. Ular toga bilan kiyilishi shart edi. Shippaklar tasma yordamida oyoqqa mahkamlanardi. Ular rang-barang charmdan tayorlanib kumush va oltin tyoqalar bilan bezatilardi. Kambag'allar va qullar oddiy yog'ochdan tayyorlangan boshmoqni kiyishgan.

Rimliklarning prichyoskalari har xil edi. Sochlari jingalak yoki silliq bo'lgan. Odatda, ular soqolini qirib tashlar edi, ammo kichkina jingalak qilingan soqol ham qo'yishgan.

Kostyunga qo'shimcha bezaklar: uzuklar, tyoqalar, yumaloq "*bulla*"lar va gullar, yaproqdan gulchambarlar kiyishgan, xarbiy sarkardalar oltindan yasalgan gulchambarlar bilan yasanishgan.

Ayollar kiyimi. Qadimiy rim ayollari kiyimining badiiy tomoni shaklni drapirovka yordamida yaratishga asoslangan, ammo rimliklar kiyimining drapirovkasi yunonlarnikiga o'xshash plastik bo'lmagan.

Ayollar kiyimi tunika, "stola" va "palla" dan iborat edi. Tunikaning ustidan kengroq, uzun, xitonsimon "stola" ni kiyishardi. Agar tunika yengli bo'lsa stola yengsiz edi yoki aksincha bo'lgan. Stolani belbog' bilan bog'lashardi, ortiqcha uzunlikdan "buf" hosil qilishardi. Ko'pincha stolani ikkita belbog' bilan bog'lashardi: odatda, birining ustiga ikkinchisini ko'ndalang qo'yib mahkamlanardi. Stolaning etagi keng qo'yma burma "instita" bilan bezatilardi.

Ayollarning ustki kiyimi yunonlarning gimatiyiga o'xshagan yopinchoq "palla" bo'lgan. Uni turli usulda kiyishgan. Plash palla gavdani atrofida aylana drapirovka qilinardi. Uydan chiqqanda rim ayollari boshini va yuzini to'r bilan berkitishardi.

III-IV asrlarda asta - sekin drapirovka yo'qoladi. Kiyim og'ir, shakli yassi va tanani go'zalligini ko'rsatmaydigan bo'ldi. Plastik stolaning o'rmini uzun, tor, keng yengli, qalin gazmoldan qilingan "dalmatika" egalladi.

Boy ayollar kashta va metall tyoqa bilan bezatilgan yumshoq boshmoqni kiyishgan. Ularni qizil, oq, to'q sariq, za'faron, charmdan qilishardi.

Kiyimga qo'shimcha qilib patdan yasalgan yyelpig'ich olib yurishardi.

Nazorat savollari

1. Antik san'atni qadriyati.
2. Yunon kostyumni asosiy xususiyatlari.
3. Qadimiy Rim kostyumining asosiy xususiyatlari.
4. Yunon va Rim kostyumlari qanday farqlanadi?

Ma'ruza № 10 (2 soat).

Mavzu: **O'RTA ASRLAR YEVROPA KOSTYUMI**

Raja

1. Davr tavsifi
2. Roman uslubi kostyumi
3. Gotika uslubi kostyumi

Adabiyotlar

1. Мерцалова М.Н. История костюма. М.: - Искусство, 1972.
2. Пармон Ф.М. Композиция костюма. М.: - Легпромбытиздат, 2002.
3. Киреева Е.В. История костюма. М.: - Просвещение. 1986.
4. Кибалова. Иллюстрированная энциклопедия моды. Прага.: - Артия.

1. IX asrda Evropa xalqlari xristianlikni qabul qilishgach, chyerkov odamlar hayotida muhim rol o'ynay boshladi. Bu yerda jamiyat madaniyati tarixi ikki

asosiy davrdan iborat: ilk o'rta asrlar IX-XII a. va so'nggi o'rta asrlar XIII-XV a.ga bo'linadi.

Jamiyatda dinning roli kuchli bo'lgani natijasida din ta'sirida yangi estetik g'oya paydo bo'lgandi. Bunga ko'ra odamlar dunyo lazzatlaridan voz kechib yashaganlar. Ibodatxonalarining freskalarida nomutanosib, azob uqubat chekkan, jinssiz odamlar tasvirlangandi.

Ilk o'rta asr davr san'atida **Roman** badiiy uslubi vujudga kelgan edi. Bu uslubda diniy-feodal mafkura hukmron edi. Uning asosiy xususiyatlari dabdabalilik, ulug'vorlik bo'lib, shakllar og'ir va salobatli, inshootlarning devorlari qalin, eshik va yarim doira shaklidagi derazalari tor qilingandi. Qurilish materiali mahalliy rangli granit toshi bo'lgan. Roman uslubidagi binolarning ichki ko'rinishi zulmat bosgan me'morchilikka mos edi. To'q ranglar, gumbazsimon shiftlar, teri bilan qoplangan terrakota rangli pollar, yog'ochdan yasalgan panellar, xonani yoritish va isitish uchun kaminlar, devorga temir xalqa yordamida mahkamlanib, yonib turgan ma'shallar edi.

Risarlarning salb yurishidan keyin savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlandi, shaharlar o'sa boshladi, shahar madaniyati rivojlandi. Dorilfununlar ochildi. Shaharlarning markaziy maydonlarida hashamatli budxonalar, shahar idora markazi "*ratushalar*" qurilgan. San'atda **Gotik** uslubi yuzaga keldi. Gotik uslubi Roman uslubining asosida paydo bo'lsa ham, undan ancha farqlanardi. Bu uslubda me'morchilik va anjomlar qatori kostyumlarda ham yengil, nafis shakllar ustunlik qilardi. Gotik uslubning intyer'yeri unchalik zulmat bosgan emas edi, yorig'ligi ko'proq edi. Salb yurishlari qatnashchilari Sharqdan olib kelgan qimmatbaho buyumlar, yumshoq gilamlar, idishlar va b., paydo bo'ldi.

2.Erkaklar kostyumi. Erkaklar kostyumi birining ustidan biri kiyiladigan ikkita ko'ylak "*tunika*" va yopinchoqdan iborat edi. Oldin tunikalar kalta, tizzasigacha bo'lgan, XI asrdan boshlab ular boldirgacha uzaydi, kaltasini faqat yoshlar va dehqonlar kiyishgan. Ichki tunika "*kamiza*" yaxlit bichilgan uzun yengli edi, ustkisi esa -"*kotta*" yengsiz yoki keng kalta yengli bo'lgan. Sovuq paytda ustidan "*rob*", nimchaga o'xshash va o'ng yelkasida tyoqa bilan mahkamlangan yopinchoqni kiyishgan. Oddiy aholi ko'pincha plash penulani kiyishardi. Matodan bichilib tikilgan ishtonlar tor, oyoqiga yopishib turgan va uzun bo'lgan. Qizil ishtonlar eng modabop edi.

Oyoq kiyimlari rangli yumshoq charmdan yoki matodan tikilgan, qattiq tagliksiz, uzun tumshuqli yumshoq boshmoqlar edi.

Sochlarini aylana shaklida qisqa qilib qirqib, peshanaga gajak qilishgan. XI asrda esa uzun sochlarini yelkaga tashlab yurishgan. Bosh kiyimlar - kapyushon va konussimon qalpoqlar bo'lgan.

XII-XIII asrlarda tikish usuli takomillashishi bilan kiyim xilma xil bo'la boshladi. Bu davrda erkaklar kiyim shakli va bichish risarlar sovuti ta'sirida edi. Kiyimlari tanaga yopishib turadigan shaklda bo'lib, paxta bilan qavilgandi. "*Blio*" (risar sovutiga o'xshash) - belidan pastroq kesilgan berk qoplanma ustki kiyim. Tepa tomoni yelka, ko'krak va belga yopishib turib, bo'ksasidan esa kengaygandi. Pastki bo'limi ikki yarim doira shaklida bichilib, old va orqasiga tikilgandi. Uzunligi tizzasigacha yoki undan sal pastroq bo'lgan. Yaxlit bichilgan tor

yenglarining uchi konussimon kengaygandi. Kontrast rangli ichki tunikasi etakning yon kesimlaridan ko'rinardi.

“Shoss”lar - yumshoq movutdan bichilib tikilgan, tor, oyoqqa yopishib turadigan ishton -paypoqlar edi. Ularning pochasi alohida kiyilib, tepasi tasma yordamida yelka kiyimining belbog'iga biriktirilardi. Ishtonning pochalari o'zaro biriktirilmadi, keyinroq ular old va orqa uloqlar yordamida ulanib qo'yilardi.

Ustki kiyim asosi plash “*naramnik-miparti*” edi. Bu ikkiga bukilgan to'g'ri to'rt burchak yoki oval shaklidagi mato parchasi bo'lgan, bosh uchun esa teshik qilinardi, yon tomonlari tikilmasdi. Miparti bo'yiga ikki rangli bo'lishi mumkin edi. Har xil uzunligi va kiyish usuli bu kiyim turini xilma xil qilardi. Bu kiyimni, asosan, yoshlar va pajlar kiyishardi. Aslzoda feodallar kiyimida miparti keng tarqalgandi. Bu kiyimida ularning tamg'a, gerb, belgilar qo'llangandi. Yenglari, old yarim bo'laklari, ishton pochalari, oyoq kiyimlari har xil ranglarga bo'yalib, tamg'a belgilari bilan bezatilardi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi, erkaklarniki singari, birining ustidan biri kiyiladigan uzun tunikalar edi. Ichki tunikani ichki ko'ylak “*kamiza*”ning ustidan kiyishardi. Tunikalar “*kotta*” va “*syurko*” deb atalardi. Kottani yengi tor va uzun, syurko esa yengsiz yoki keng kalta yengli bo'lgan. Syurkoni belbog' bilan bog'lashardi. Ustki kiyimi - uzun, yorqin rangli, yarim doira shakldagi plashlar bo'lgan. Oyoq kiyimlari rangli charmdan, poshnasiz yumshoq tagcharmli, yopiq tufllilar edi.

Qizlar sochini yoyib yoki o'rib yurishardi, ayollar esa sochini bosh kiyim bilan berkitar edilar. Ko'pincha bu yuz uchun teshik qilingan dumaloq ro'mol edi. Bu ro'mol butunlay boshini va yelkasini berkitardi. Ko'pincha ro'molning uchini kottani yoqa o'miziga kirgizilardi. Ba'zan, ro'molning ustidan yopinchoq, bog'ich, chambar kiyilardi. Tyoqa “*fibula*”lar, uzuklar, kamar va chambarlar bilan kostyum bezatilardi.

Cherkovning ta'qibiga qaramay, aslzoda ayollar kostyumida hashamatli, murakkab siluetlar va boy bezaklar paydo bo'ldi. Ayollar avvalgiday ichki ko'ylak - kamizani va ustki ko'ylak - kottani kiyishardi. Kotta yonida yoki orqasida tasma bilan bog'lanib, beliga yopishib turardi va bo'ksasidan yon qiyiqlar yordamida pastga qarab kengaygandi. Yenglari tor edi va ko'pincha uzunligi yergacha etardi. Belbog'lar faqat dekorativ rol o'ynardi, shuning uchun uni belidan pastroqda bo'ksaga taqishardi. Ustki kiyimlari erkaklarniki singari mo'yna bilan sirlangan yarim doira shakldagi plashlar edi. Turli usulda o'ralgan oq ro'mol bilan ayollar sochini berkitishardi.

3. XIII asrda bichish asoslari paydo bo'ldi. Tikish usullari ham takomillashtirilgan. Kiyimlarda o'tkazma yenglar paydo bo'lgan. Yenglar kunduzi vaqtincha ko'klanib, kechqurun so'kilar edi, chunki kiyimning torligi sababidan yechish qiyin edi. Keyinroq yenglarni tasma yordamida biriktirishadigan bo'ldilar. XIV asrda oldi ochiq kiyimlar va yoqalar paydo bo'lgandi.

Kostyumning shakli xilma-xil bo'la boshladi. Kiyimda ikkita yo'nalish paydo bo'ldi: “kalta va uzun” kiyim modalari. Bittalari uzun va keng kiyim kiyishgan bo'lsa, boshqalari, ko'pincha yoshlar, kalta va tor kiyimini kiyishgandi.

Bo'yiga cho'zilgan gotik mutanosiblik bu davr kiyimining asosi hisoblangan. Ayniqsa, XV asr kiyimlarida gotikaning ta'siri sezilardi.

Erkaklar kostyumi. Aholini barcha tabaqalarining ichki kiyimi avvalgiday kamiza edi. Uning ustidan uzunligi boldirning o'rtasigacha yoki to'pig'igacha keladigan kottani kiyishardi. Odatda, kotta uzun yengli va dekorativ belbog'li edi. Lekin, XIV asrning o'rtasidan boshlab u modadan chig'di. Endi tor yengli kalta kurtka- "*purpuren*" urf bo'ldi. Unga ishton-paypoq mahkamlanardi. Oliftalar uzun *purpuren* kiyishgan.

Purpurendan tashqari oliy zotlar ikki ustki kaftan- "*kotardi*" va "*blion*" kiyishgandi. Kotardi uzunligi bo'ksasidan pastroq, tor, keng qanotsimon yoki tor yengli, gavadaga yopishib turadigan kiyim edi. Blio - belidan qirqilgan va past qismi yubkasimon, yoni tikilmagan kaftan edi. Odatda, blion orqasi bog'ich bilan biriktirilardi.

Ustki kiyimlar ham xilma xil bo'lgan. Bu davrda ustki kiyim - naramnik barcha tabaqalarning kiyimi bo'lgan. Naramniklar kalta yoki uzun bo'lishi mumkin edi. Undan tashqari, ko'pincha, qo'ng'iroqsimon yengli, yoni tikilmagan kalta plash "*tabor*" uchrardi. Uni geroldlar va pajlar kiyardi. Yonlari tikilgan naramnik "*syurko*" ga aylandi. Syurko qalbaki yengli yoki yengsiz bo'lgan, uni kapyushon bilan monaxlar kiyishgandi.

Oyoq kiyimlar charm yoki baxmaldan tikilgan poshnasiz yarim etik va tufllar edi. Oyoq kiyimning uchi oldini sal uchli bo'lsa, XIV asrdan boshlab uchi juda uzayib 50 sm gacha cho'zildi. XIV asrgacha ular kashta va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan.

Bosh kiyimlar xilma-xil bo'lgan. O'rta asrning asosiy bosh kiyimi plash yoki kurtkaga tikilgan kapyushon edi. Ba'zan, kapyushonni plashdan alohida kiyishardi. XIV asrda ikki uzun matodan qilingan va boshiga sallasimon o'ralgan bosh kiyim "*shaperon*" kiyilgandi. Ulardan tashqari turli shaklda fetr shlyapalar bo'lgandi.

XIV-XV asrlar modasini saroy **burgund modasi** deb ataladi, chunki shu davrda burgund saroyi Yevropada eng boy bo'lgan va ularning modasi go'zallik namunasi deb hisoblangan. Xilma xil kostyumlarining shakllari tez-tez o'zgargani uchun bu davr modalar karnavali deb ataladi. Erkaklar kiyimlari noqulay, keng va uzun yoki tor va kalta qilingandi.

Kalta *purpuren* ichki kiyim hisoblanib, unga ishton -paypoq biriktirilardi, ammo u ustki kiyim sifatida ham kiyilishi mumkin edi. Ishton -paypoq oyoqning shakli bo'yicha bichilardi, oyoq qiyshiq bo'lsa, paypoqni ichidan tikilgan kanop losina yordamida to'g'ri qilib ko'rsatilardi.

Bu davrning yangi modali kiyimi "*jaket*" bo'lgandi. Jaket - kalta, oldi ochiq, etagi belidan hurpaygan yubkasimon kiyim edi. Yenglari xilma xil edi: qo'ng'iroqsimon, osilib turadigan, ammo, ko'pincha yelkada xurpaygan, bufli, uchi tor, bunday shakl "*jigo*" deb atalardi. Yenglari uzun bo'lgani sababli qo'lni o'tkazish uchun kesimlar qilingandi.

Uzun kiyimlarga "*uplend*" va "*rob*" kirardi. Uplendning uzunligidan oldi yerda sudralib yurardi. Uni oldi ochiq bo'lib, beli bog'lanardi. U beligacha

tugmalanardi, etagi esa ochiq qolardi. Ko'pincha, sholsimon yoqasi mo'ynadan qilingandi.

Oyoq kiyimlarining uchi juda cho'zilgandi.

Ayollar kostyumi. XIII-XIV asrlarda yoqa o'mizi "*dekolte*" yelka tomoniga kengaydi. Aholining barcha tabaqalari uzun yoki kalta "naramnik"ni kiyishardi. Ba'zan, uni belbog' bilan bog'lashardi. Ustki kiyim yarim doira yoki doirasimon, oldi ochiq ko'kragida tyoqa "fibula" bilan biriktirilgan plash edi. Boy ayollar ko'pincha qo'l uchun teshik qilingan penulani kiyishgan. Penula shleyfli bo'lib, uning yoqa o'mizi mo'yna bilan bezatilgandi.

XIV - XV asrdagi burgund modasi ayollar kiyimga ham ta'sir etgandi. Ularning kiyimi erkaklarnikiga o'xshab silueti uzaytirilgan, qisqa lif, uzun, keng bo'lmagan yubka va baland bosh kiyim edi.

Kottani tepa tomoni bo'ksasigacha shnurovkalangandi, yengi tor va uzun bo'lgan. Oddiy tabaqalar kottani ustki kiyim sifatida kiyishardi, oliy zotlar esa erkaklar uplendiga o'xshash robni kiyishgan. Robning lifi qisqartirilgandi, kamar ko'krakning tagidan bog'lanardi, yubkasi shleyfli edi. Shleyfning uzunligi qat'iy belgilangan va uning uzunligi ayolning ijtimoiy holiga mos bo'lishi kerak edi. Chyerkov shleyfga doimo qarshi bo'lgan. Shleyfni ular "iblisning dumi" deb atashardi.

Plashlar tobora yo'qola boshlaydi, ammo uni ko'chaga chiqqanda kiyishardi. Penula uzayib, shleyfli, qo'l uchun kesimli va dekolte bo'lgandi.

Oyoq kiyimlarining shakli erkaklarnikiga o'xshash edi, lekin uchlari unchalik uzun bo'lmagan.

XV asrda prichyoskalar o'z rolini yo'qotadi, chunki bosh kiyimlar boshni berkitardi. Bo'yinning go'zalligini ko'rsatish uchun peshona, chakka va ensa ochiq qoldirilardi. Ayollar, ba'zan, peshonani balandroq ko'rsatish uchun qosh, peshona hamda ensadagi sochni qirib tashlashardi. Eng keng tarqalgan bosh kiyim- "*ennen*" edi. Uning shakli konussimon bo'lib, balandligi ijtimoiy holiga mos bo'lishi kerak edi. Undan tashqari har xil chepeslar, turli usulda o'ralgan ro'mollar va kichkina fetr shlyapalarni ham kiyishardi.

Nazorat savollari

1. Roman va Gotik badiiy uslublari qanday farqlanadi?
2. Roman uslubidagi kostyum turlari.
3. Kostyumga din ta'siri qanday bo'lgan?
4. Kostyumda qanday proporsiyalar ustunlik qilgan?

Ma'ruza № 11 (2 soat).

Mavzu: **UYG'ONISH DAVRI YEVROPA KOSTYUMI**

Reja

1. Italiya kostyumi

2. Fransiya kostyumi
3. Ispaniya kostyumi
4. Angliya kostyumi
5. Olmoniya kostyumi

Adabiyotlar

1. Мерцалова М.Н. История костюма. М.: - Искусство, 1972.
2. Пармон Ф.М. Композиция костюма. М.: - Легпромбытиздат, 2002.
3. Киреева Е.В. История костюма. М.: - Просвещение. 1986.
4. Кибалова. Иллюстрированная энциклопедия моды. Прага.: - Артия.

1. Italiya madaniyati antik an'analar zahirida vujudga kela boshlaganiga qaramay, unda asta-sekin antik an'analar susayib, sxematizm avj oldi. XV asrdan Uyg'onish davrida realistik san'ati taraqqiy etib boshladi. Renessans kostyumi, ayniqsa ayollarniki, og'ir matolardan yasalgan drapirovkalardan iborat edi. Yashil, qizil, to'qqizil ranglar urf bo'lgandi.

Endi kiyimda gorizontal chiziqlar ustunlik qila boshladi. Bosh kiyim endi gavdani uzaytirmaydi. Uyg'onish davrining kostyumi deyarli demokratik edi, chunki unda asrlarning qat'iy sinfiy shartlanishi yo'qolib, moda endi odamning tabaqasini emas, balki uning moddiy ta'minotini ko'rsatardi. Kiyimda mehnatni mensimaslikni ko'rsatadigan detallar, uzun shleyflar, ingichka bel, juda uzun yenglar va b., yuqoldi.

Erkaklar kostyumi. Bu davrdagi erkaklar kostyumi xilma-xil edi. Yoshlar burgund modalariga rioya qilib ko'ylakni ustidan kalta tor kurtka "purpureni"ni va gavdaga yopishib turgan yorqin rangli ishton-paypoqni kiyishardi. Kurtkaning tor yenglarida bukiladigan joylarida, yelka va tirsak, ichki ko'ylagi ko'rinadigan kesimlar paydo bo'lgandi. Ba'zan, yengni kurtkaga tasma yordamida biriktirishar edi. Bu yangilik bitta kurtkaga xilma-xil yenglarni biriktirishga imkoniyat bergan edi.

Ustki kiyim kurtkaning yelkasiga tugmalangan plash edi. Uzun, keng kaftanlarni faqat keksaygan odamlar kiyishgandi. Kaftanlar - keng, osilib turgan qo'ng'iroqsimon yengli bo'lib, odatda, uning beli bog'lanmasdi. Uzunligi tizzagacha yoki to'piqqacha tushar edi. Yoqa o'mizi - kare.

Oyoq kiyimi tumshug'i dumaloq yumshoq tuflilar, shippaklar va botinkalar edi.

Modali prichyoskalar ikki turli edi: sochlarini silliq orqaga tarashar yoki, ko'pincha, peshona gajak qo'yishardi. Bosh kiyim turlari ko'p edi: yumaloq, feskaga o'xshash shlyapalar, chambarlar soyabonli shlyapalar, beretlar, tyur-banga o'xshash bog'ichlar. Oliftalar baravar ikkita shlyapani kiyishar edi - bittasini boshiga kiyib, ikkinchisini orqasiga tashlab yurishar edi.

Kostyumning qo'shimchalari: belbog'ga bog'langan cho'ntaklar, hamyonlar, qo'lqoplar hamda taqinchoqlar bo'lgandi.

XVI asrning boshida Ispaniya Evropadagi eng kuchli mamlakat bo'lib, modada ham xukmronlik qildi. Ispan askarlarining kiyimiga taqlid qilib kiyim kiyish urfga aylandi. Italiya modasida faqat erkaklarning kostyumida taqlid sezilardi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi erkaklarnikiga nisbatan xilma-xil edi. XV asrda Florensiya modalari keng tarqalgandi. Bu davrda ayollar libosi kamtarona bo'lib, shakl va undagi chiziqlar va siluetning oddiyligi bilan farqlanardi.

Ayollar naqshli kimhob va baxmaldan tikilgan baravar ikkita ustki ko'ylak kiyishardi. Odatda ko'ylaklarning beli qir qilgandi, bel chizig'i ko'krakdan sal pastroq bo'lib, yubkasi uzun shleyfli edi. Lifning yoqa o'mizi o'ziga xos edi: bo'yni uzunroq ko'rsatish maqsadida oldi - to'rt burchak, orqasi - uchburchak bo'lgan. Ko'pincha, ustki ko'ylak lifning oldini qir qib shnurovka qilishardi. Odatda, yenglari lifga tasma yordamida biriktirilar yoki ko'klanardi. Tor yenglar ko'pincha uzunasiga qir qilib o'zaro shnur yoki tasma yordamida biriktirilardi. Yenglari uzun edi, lekin panja ochiq qolardi. Bu o'rta asrlikka nisbatan yangilik edi, chunki u davrda urf-odati bo'yicha kaftni yopib yurish kerak edi.

Tantanali ko'ylakni ustiga qimmatbaho yengil yopinchoqlarni tashlab yurishar, yoki yelkasiga yerda sudralib yuradigan mayda burmalangan mato parchasini biriktirib qo'yishardi. Astarli uzun plashlar avvalgiday ustki kiyim hisoblanardi. Plashlarni ranglari qizil va zangori bo'lgandi.

Bosh kiyimlari: yostiqlimon yumshoq hamda tyurbanga o'xshagan uzun uchli shlyapalar urf bo'lgan. Bularni, asosan, keksaygan ayollar kiyishgandi, yoshlar esa to'r va vuallarni afzalroq ko'rgan. Qizlar sochlarini tashlab yurishgan, ayollar esa turmaklab marvarid, to'r va yengil sharflar bilan bezatishgan.

Kiyimga qo'shimcha qo'lgoplar, hamyonlar va dastro'mollarni olib yurishgan.

XVI asrdan boshlab ayollarni ko'ylagi erkaklarnikiga nisbatan xashamatliroq bo'lgan. Bel chizig'i tabiiy holiga keldi. Yubkani og'ir matolardan taxlam qilib taqilganligi sababli uning uzunligi qisqargandi. Ichki ko'ylakning yangi tor va uzun, ustki ko'ylakning esa bufsimon keng va kalta edi. Yoqa o'mizi chuqur va qimmatbaho kashtalangan ro'mol bilan yopilgan edi. Ustki kiyimi plash bo'lgan. Oyoq kiyimlari yumshoq bo'lgan, ba'zan, ayrim modaga berilgan ayollar bo'yini balandroq ko'rsatish maqsadida baland tavonli, qalinligi 55 smgacha yetadigan tufli kiyishardi.

2. Erkaklar kostyumi. Fransiya kostyumi Ispaniya kostyumiga taqlid qilsa ham, ular kostyumda o'z dinini va fe'lini ifodalagan o'ziga xos hususiyatlarni sezilardi. Fransiya kostyumlari xech qachon bog'liq va qotib turgan bo'lmagan, kostyumga doimo qandaydir milliy didga oid yumshoqlik, yengillik kiritilardi. Ularning kostyumi yorqin, och va quvnoq bo'lib, erkin va elegant harakat qilishga imkoniyat berardi.

Modada og'ir matolar - baxmal, movut, shoyi, kimhob bo'lgandi. Shu qimmatbaho matolar tilla va kumush kashta va mayda marvarid bilan bezatilardi.

Erkaklar oq, kashta qilingan ko'ylak, oldi ochiq kamzol, ishton -paypoq va kalta sharsimon ishton "briches"ni kiyishardi. Ustki kiyimi oldi ochiq, beli

mahkam bog'langan kaftan bo'lgan. Asr o'rtasida modaga ko'pincha qaytarma yoqali plashlar kirdi.

Oyoq kiyimning to'ngoq tumshug'i - "ayiqning oyog'i" - kesimlar va kashtalar bilan bezatilardi.

Kalta qirg'ilgan sochlari, soqol va mo'ylovlar modada edi.

Fransuz beretlari Ispaniya beretlariga nisbatan keng, qattiq soyabonli bo'lib, pat bilan bezatilardi.

XVI asrni o'rtasidan boshlab Fransiya kostyumi Ispaniya kostyumiga ko'proq o'xshardi. Kamzol kalta qaytarma yoqali koletga aylandi. Freza va manjetlar kengroq bo'ldi. Tashlab yuradigan kiyimlarning o'rniga kalta, mo'yna bilan sirlangan, tik yoqali plashni kiyiladigan bo'ldi. Koletning oldi "mis"li bo'ldi, keng yenglari qavilib, manjetli qilindi. Ishton -paypoqni ustidan tor, uzunligi tizzadan pastroq ishton "kyulot"ni kiyishadigan bo'lishdi. Kyulot ustidan bufon kiyishdi. Kostyumlarning rangi faqat och bo'lgan: pushti, zangori va b. ranglar.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi erkaklarnikiga nisbatan ispan modasi ta'siriga kamroq tushgandi. Ispan ko'ylaklarini fransuz ayollari faqat odob yuzasidan tantana munosabati bilan kiyishardi.

XVI asr birinchi yarmida ispan modali silueti konussimon shaklni eslatardi. Ichki va ustki ko'ylaklar karkasga tortilgandi, uchkur misli tor lifi va dekoltesi "kare" edi. Ustki ko'ylagini yangi orasidan ichki ko'ylakning yenglari ko'rinardi.

XVI asr oxirida ayollar kostyumining shakllari keskin o'zgargandi. Asosan yubkani shakllari o'zgargandi. Oldin yubka keng taxlamli bo'lgan bo'lsa, endi esa uning shakli abajurga o'xshash shaklga aylangandi. Yubkani tagidan qattiq karkas va uning ustidan belga aylana "G'ildirak"simon valikni kiyishgandi. Lif yana toraydi. Belni ingichkaroq ko'rsatish uchun lifning old "mis"i yubkaga uzaytirilgandi. Yenglarni shakli avvalgiday qolgandi va tyoqa bilan birlashtirilgan vertikal kesimlari qilinardi. Dekolte ovalsimon va juda chuqur bo'lganligi tufayli "shemizetka" bilan berkitilardi. Yoqa shakli ham juda o'zgardi. Frezani o'rniga boshidan balandroq ko'tarilgan karkasli tik yoqa kirdi. Yoqa bir yoki ikki qavatli bo'lishi mumkin edi.

Prichyoskalar ikki xil bo'lgandi, sochlarni jingalak qilib orqaga tashlab yurishardi yoki simli karkas yordamida tepaga ko'tarib qo'yishardi. Niqoblar did-farosatiga qarab tanlanardi.

Kostyumning qo'shimchalari: taxlama yelpig'ichlar, xamyonlar, oynachalar, piyoz shaklli zanjirga osilgan soatlar, burgani tutish uchun tasma yordamida beliga osilgan teri parchalari edi.

3. XV asrning oxirida, Ispaniya chet el bosqinchilaridan ozod bo'lib, misli ko'rilmagan rivojga erishdi. XVI asrda Ispaniya buyuk mamlakat bo'lib, butun Yevropaga nafaqat iqtisodiy va siyosiy tayziq ko'rsatgan, Yevropa modasining shakllanishiga ham ta'sir etgandi.

Ispaniya modasiga katolik dini ham juda kuchli ta'sir etdi. Katolik dinining zohidligi kiyimda tanani berkitishni, ranglarning to'q bo'lishini talab qilardi.

Erkaklar kostyumi. XVI asrning birinchi yarmida erkaklar kostyumi deyarli yumshoq va qulay bo'lgandi. U ko'ylakdan, tor kalta, tor uzun yengli koletdan; tor ishton -paypoqdan va kalta ishtondan iborat edi.

XVI asr o'rtasidagi kostyum noqulay va odmiroq bo'lgandi. Uning shakli risarlik yaroq-aslahalariga o'xshash edi. Kolet-tor paxtali, uzunligi beligacha yoki bo'ksasigacha, oldi tugmalangan, baskali, tik yoqali kiyim edi. Uning yengi tor edi, ba'zan, yenglari ikki qavat bo'lgandi, ustki yengi dekorativ rolni bajarar edi. Yelkasiga ko'kragini kengroq ko'rsatish uchun qanotchalar yoki valiklar tikilardi. Ular kumush va zarlar bilan bezatilgandi.

XVI asr o'rtasidan boshlab avvalgiday tikilgan emas, to'qilgan ishton - paypoqlar paydo bo'ldi. Uni ustidan kalta, ot tolasi va kanop tolasi bilan to'ldirilgan sharsimon ishton "briches"ni kiyishgandi. Ko'pincha uni boshqa rangli mato tasmalar bilan bezatishardi.

Kiyimning ajralmas qismi "freza" yoqasi edi. Uni ohorlashgan, ko'kimtirroq tus berishgan va mahsus qisqich bilan taxlamlar qilishgan. Oppoq freza orastalikning birinchi belgisi bo'lgandi. Ularni shakli va kattaligi har xil edi. Frezaning kattaligi tufayli ovqatni yeyish uchun vilka vujudga kelgandi.

Ustki kiyim - kalta va uzun, ba'zan, yoqali plashlar edi. Ular asosan yarim doira shaklda edi. Boshlariga beretning o'rniga baland, ensiz soyabonli bezatilgan shlyapalarni kiyishgan.

Ayollar kostyumi. XVI asrda ispaniyaliklarning estetik tasavvuriga binoan ayol ozg'in va xushbichim bo'lishi kerak edi. Kostyumning uchburchakli silueti gavdani turg'un va monumental qilib ko'rsatardi. Kiyim juda noqulay va dag'al bo'lib, odamning harakatiga halaqit berardi.

Ayollar baravar ikkita ko'ylak kiyishardi. Ichki ko'ylagining oldi berk, ustki ko'ylakniki esa ochiq edi. Shleyfsiz yubka metall va qamishdan qilingan mahsus konussimon karkas ustidan kiyilardi. Yubkada bironta taxlam yoki burma bo'lmasligi kerak edi. Shu davrning urf-odati bo'yicha ko'ylakni ostidan oyoq ko'rinmasligi shart edi. Shunday shaklli yubka "vertyugad", fazilatni saqllovchi, deb atalardi. Lifni oldi juda tor, past uchburchak. Gavdani mahsus qalin matodan qilingan shnurovkali lif bilan siqishardi. Unga ko'krak shaklini yashirish uchun paxta solishar edi. Ko'ylak ko'krak va bo'yinni berkitardi, dekoltesi, odatda kvadratsimon, bo'lsa uni kashtalangan ro'mol "shemizetka" bilan berkilardi. Yoqasi gofrelangan "freza" bo'lardi.

XVI asr o'rtasidan boshlab yenglarning shakli o'zgardi: ichki ko'ylak yengini bir necha joyida bog'lab buf qilishardi, ustki ko'ylakniki esa kalta dag'al bufga aylandi. Ba'zan, ustki ko'ylak yengsiz bo'lishi mumkin edi. Ichki ko'ylakning yengi ko'pincha taxlamali manjetli edi.

Belni qimmatbaho toshlar bilan bezalgan duxoba yoki metallardan yasalgan kamar bilan bog'lashardi. Uning uchi etagigacha osilib turardi.

Oyoq kiyimlari yumshoq tufli edi. Poshnali tufli birinchi marta XVI asr oxirida paydo bo'lgandi.

Ispaniyada o'ziga xos mahsus bosh kiyim vual, to'r, bo'lgandi. U bosh yoki yelkaga tashlanib, gavdani o'rab yergacha tushardi. Ushbu vuallar ispan ayollarining kostyumini mahsus buyumi bo'lib qoldi. Ular "mantilya" deb atalardi. Ustki kiyim plash edi.

4. XVI asrda Italiya Renessansini Angliyaga ta'siri sezilardi. Insonparvar dunyoqarash E.Rotterdamskiy va T.Morning asarlarida aksini topdi. Tasviriy

san'atda Italiyaga o'xshab yuqori darajaga erishaolmagan bo'lsa ham, adabiyotda nihoyat ajoyib rivojga erishgandi "V.Shekspir". Garchi ularning saroy odoblari fransuzlardan ancha farqlangan bo'lsa ham, ingliz kostyumi asosan fransuz va qisman ispan-fransuz modalari ta'sirida rivojlangandi. Monarxga sig'inish bilan bog'liq saroy etiketi qat'iy va takallufli bo'lgan. Ingliz kostyumi shakllarining erkinligi va ayrim detallarining o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turardi. **Erkaklar kostyumi.** XVI asr birinchi yarmida erkaklar kostyumi oq ko'ylakdan, gavadaga yopishib turgan, uzun yengli yoki yengsiz dubletdan, djerkindan, yopishib turgan ishton-paypoqdan va keng, ser burmalangan ustki ishtondan "shosso" iborat edi. Dublet paxtali bo'lib, qavilardi. Djerkinning yengi tirsagigacha edi, yubkasi esa silliq yoki burmalangan bo'lib, lifga tikilar yoki ilgak yordamida kistirilardi. XVI asr urtasida Angliyada tukuv mashinasi ixtiro etilganligi sababli tikilgan ishton-paypoqlar asta-sekin tarqala boshladi. Asrni ikkinchi yarmida qirol saroyi dabdabaliligi erkaklar kostyumiga ta'sir etgandi. Modaga kirgan ispan-fransuz koleti va bufsimon ustki ishton yorqin rangli matolardan tikilib kashta va qimmatbaxo toshlar va to'r bilan bezatilardi. Koletni yengi tor bo'lib, yelkasida qanotchasi bo'lardi, yoqasi tik edi. Paxta tikilgan ustki ishtonlar shunchalik darajada kengayib ketganligi sababidan, parlament o'tirar joylarni kengaytirishga majbur bo'lgandi. Asrni birinchi yarmida freza yoqasi bo'lgan bo'lsa ikkinchi yarimida esa qaytarma yoqa modaga kirgandi. Ustki kiyim plash bo'lgan. To'q va odmi kiyimlarni faqat burjular va puritanlar. XVI-XVII asrlarda ingliz va shotland burjuaziyasi uyushtirgan diniy-siyosiy harakat qatnashchilari kiyishgandi. Sochlarini kalta qirqib, qimmatbaxo qilib bezatilgan beretni kiyishgandi.

Ayollar kostyumi. XVI asrning 20-chi yillarida ayollarning kostyumi fransuz kostyumiga o'xshash edi. Ularni kostyumi quyidagilardan iborat edi: oq ip yoki jun matodan tikilgan ko'ylak, gavadaga yopishib turgan dag'al lifli kott va syurko yoki yassi lifli va pastga qarab kengaygan yubkali ko'ylak edi. Ko'ylakning yengi tor va manjetli edi. Asrning 30-chi yillarida oldi ochiq ko'ylaklar paydo bo'ldi. Shuning uchun kottani va ko'ylakni yengini qimmatbaho matodan qilishadigan bo'ldi. Ba'zan, qaytarma manjetga qo'llangan mato bilan yubkani etagini bezatishardi. Ko'ylakni gazmollari baxmal, atlas, yupka movut sidirg'a bo'lgandi. Kottani esa boshqa rangli parcha yoki shtoffdan tikishardi. Qizil rang Yevropada keng tarqalgan hamda eng bashang va tantanali deb xisoblanardi. Uning qatorida qizqish jigar rang, och qizil, to'q qizil och va to'q yashil, zangori va kul ranglari keng tarqalgandi. 40-50-chi yillarida Mariya Tyudorni didiga moslanib, kostyum saloxiyatini yo'qotadi. Uning o'rniga ko'ylakning lifi yopiq, Ispaniyadan kelgan karkasli yubka, kichkina yoqa o'mizi, tik-qaytarma yoqa, manjetli tor yenglar urf bo'lgandi. Ustki kiyim keng uzun, oldi ochiq bo'lib, Fransiya marlotiga o'xshagan kiyim edi. 60-80-chi yillarida ingliz kostyumida chet el ta'sirlari ko'proq sezilgandi. Ayollar kiyimida qo'ng'iroqsimon yenglarni o'rniga paxta to'ldirilgan bufsimon yenglar kirgandi. Venitsian modasini ta'sirida kiyimlarning shakli kattaya boshladi. Bosh kiyim sifatida duxobadan tikilgan karkasli kichkina yuraksimon shapkachadan foydalangan. Prichyoskalar bosh kiyimga yarasha mahsus karkasli qilinardi. Ba'zan, uni tillaqosh yoki tilla chambar bilan bezatishardi. Shu davrlarda kiyim bezagi sifatida kashta va to'r ko'p

qo'llanardi. Asrning 80-chi yillarida modaga Fransiyadan vertyugad kirib keldi, lekin uning shakli o'zgartirildi. Asr ikkinchi yarmida aristokrat modalarida boylikni ko'rsatish avjiga chiqqandi. Qirolicha Elizaveta savlatli kiyimni xush ko'rardi. Shunga nisbatan, ko'ylakning lifi juda torayib, qoringacha tushgan mo'sli edi. Yubkasi qisqarib, yon tomonlariga cho'zildi va mahsus karkasga tortildi. Ingliz ayollari kostyumining boshqa kostyumlardan asosiy farqi - bitta ko'ylakda ikkita yoqaning bo'lishi: ko'pincha oldi kesilgan freza va tik karkasli yoqa yoki ikki qavat yarim doira shakldagi yoqalar edi. Aslzodalarning kostyumi qimmatbaho toshlar, marvarid, kashta, to'r va turli kesimlar bilan bezatilgandi. Prichyoskalar va bosh kiyimlar murakkab bo'lgan. Ba'zan, parikni kiyishardi. Oyoq kiyimlar past poshnali yoki poshnasiz kashta bilan bezatilgan shoyi tuflilar va dastaksiz tuflilar edi. Kiyimga qo'shimcha qo'lqoplar bo'lishi shart edi, ayniqsa ispan qo'lqoplari qadrlanardi. Shunday qilib, XVI asr ingliz kostyumi, asosan, chet el modalari ta'sirida rivojlangan edi, ammo ular doimo kiyimlarni o'z didlarga mos o'zgartirar edilar. Aristokratlarning tashqi ko'rinishida boylik eng muhim rol o'ynagan.

5. XV asrni oxirlarida Olmoniyada o'rta asr urf-odatlarini butunlay saqlanib qolgandi. Avvalgilari saqlanib qolgani holda yangi kiyimlar ham paydo bo'lgandi. Kostyumning rivojlanishida yollangan askarlar „landsknextlar“, asosiy sinfiy kuch - byurgerlar, keng tarqalagan jahon savdosi va Yevropa madaniyati ta'sir etgandi. **Erkaklar kostyumi.** Olmoniya erkaklar kostyumi Yevropa mamlakatlarining kiyimlariga o'xshagandi. Kostyum shaklining maydalanganligi va har xil bezaklarining ko'pligi olmoniya kostyumining milliy hususiyati edi. Ustki kiyim keng, yengi katta bufli „shaube“ edi. Uning rangi shaxsni tabaqa belgisini ifodalardi. Knyazlar, aslzodalar va risarlar qizil yoki binafsha rangli, boy shaharliklar esa qora yoki jigar rang shaubeni kiyishi mumkin edi. Hunarmandlarga shaubeni kiyish man etilgandi. Shaubening ichidan „vams“ kiyishardi. U fransuz purpureniga, italian djubbonesiga yoki ingliz djerkiniga o'xshash edi. Uning oldi juda ochiq edi va ichki ko'ylagi ko'rinardi. Ichki ko'ylaginining yoqa o'mizi ser burmalangan yoki mayda taxlam qilingandi. Ko'ylakning yoqa o'mizini va yengning uchini kashtalash nemis va ingliz kostyumini farqlovchi belgisi edi. Ustki kiyim bufsimon yengli trappert va yelkaga tashlangan keng plashch edi. Ishtonni vamsga biriktirib qo'yishardi, tikilgan paypoqlarni esa bog'ich yordamida oyoqqa mahkamlashardi. Ikkalasida ham xar xil shaklda kesimlar qilinib, tagiga rangli matolar parchasi yopishtirilardi. Olmoniyada o'rta asrdan qolgan assimetrik kiyimlar keng tarqalgandi. Qo'lqoplarda ham bo'g'imlar ustidan mayda kesimlar qilingandi. Asrning ikkinchi choragida Olmoniya kostyumi bashangroq bo'lgandi. Shaube uzunligi qisqardi. Uzun shaube faqat rasmiy kiyimlardagina qolgandi olimlarda, merda, munitsipal soveti xodimlarida va b. Shaubening o'zgarishi vamsga ko'proq ahamiyat berishga izn berdi. Natijada, yangi bichimlar, kashta va ko'p kesimlar kiritildi. Vamsni uzunligi avvalgiday belidan sal pastroq qilinardi, yoqa o'mizi kichraydi va oldi tugmalanadigan bo'ldi. Vams kashta va kesimlar bilan bezatildi. Uning yangi shakli tik yoqali kashtalangan ko'ylaklarga mos edi. Ko'ylakning yoqa va manjeti burmalangan kichkina xoshiya bilan bezatilgandi. Yangi ustki kiyim „faltrok“

paydo bo'lgandi. Uning bichimi vams bilan moslashardi: agar vams keng yengli bo'lsa, faltrok yengsiz bo'lardi. Faltrok gavdaga yopishib turgan lif va yubkadan iborat edi. Uni boshdan kiyishardi yoki yonidan tugmalanadigan qilishardi. Bosh kiyimlari yumshoq soyabonli beretlar, gulchambarlar va chepetslar bo'lgandi. Erkaklar sochlarini kalta qirqib yurishardi va mo'ylov qo'yishardi. Asr ikkinchi yarmida kostyum odmiilandi. Ispan modasi bu yerga kechroq kelgandi. Ola-chipor ranglar to'q ranglar bilan almashdi. Kiyimda gorizontal chiziqlarni o'rniga trapetsiyasimon siluetlar paydo bo'ldi. Keng shaubening o'rmini nimcha yoki ispan plashchi yopinchoq egalladi. Tik yoqa vamsda ham urf bo'lgandi. Vamsning oldi ochiq bo'lib, kesimlar bilan bezatilar edi va dag'al astarli qilinar edi. Keng ishtonlarining uchi tizzada burmalanib, kashtalangan tasma bilan bog'lanardi. Asr oxirida tukilgan paypoqlar modaga kirgandi. Bosh kiyim kichkina, tor soyabonli ispan bereti edi. Oyoq kiyimlari tumshug'i keng "sigir tumshug'i" tufli urniga kesimli, tor keyinroq uchi uchli tufllilar edi. XVI asrda nemislarning didini ifodalaydigan landsknextlar kostyumi edi. Ularning kostyumi ko'ylak, vams, faltrok, tizzasigacha ishton yoki sharovarga o'xshagan uzun tasmaimon ishton "plyudexauzen", ispan plashchi va baland cho'qqili shlyapadan iborat edi. Ularning ko'p har xil shakldagi kesimlari rang-barang astar laxtalar bilan bezatilardi. Hamda tuyaqushni patlari, kashta va qimmatbaho toshlar bilan bezatilardi.

Ayollar kostyumi. Nemis ayollarini "3k": ya'ni kirxa-cherkov, kinder-bola va kuxnya-oshxona uchun yashashi kerak deb hisoblashardi. Ko'ylakning tor lifi gavdaga yopishib turib, uning barcha shakllarini takrorlardi, chuqur dekolte orqasini ochib, oldida ichki ko'ylagini ko'rsatardi. Bir necha taxlamli keng yubkaning shleyfi lifga tikilgandi. Bosh kiyimlari karkasli va baland qilinib, kashtalanardi. Yupka vual peshonasini qoshigacha berkitardi. Oyog'ida yumshoq uchli tumshuqli, uchi ingichka tufli. Ustki kiymlari erkaklarniki singari shaube edi. Ayollarning shaubesi uzunroq, ancha oddiyroq va odmiroq edi. Yoqa va yenglari keng emas edi. Ko'pincha yaxlit bichilgan tik yoqa bog'ichga aylangandi; tor yenglarida oddiy kesimlar qilinar edi. Lifning oldi ochiq bo'lganligi sababli, shnurovkaning tagidan mahsus uloq kuyilardi yoki yupka matodan tikilgan ichki ko'ylak kiyishardi. Ichki ko'ylakning yoqa o'mizi kashta yoki parchadan qilingan tasma bilan bezatilardi. Yenglari bufli va kesimli bo'lgandi. Keng yubka chuqur taxlamli qilinib, parcha yoki baxmal bilan bezatilgandi. Bunday kiyimda ayollar ozg'in, qomatli bo'lib ko'rinardi. Asrning 40-chi yillarida yengsiz jaketcha "koller" paydo bo'ldi. Asr ikkinchi yarmida ispan modalari olmoniya ayollarining kostyumida o'ziga xos ifodasini topgandi. Kiyim kotma bo'lib, didsiz chegaralarga ega bo'ldi, dekolteni o'rniga tik yoqa qilindi. Ustki kiyim shaube avvalgiday qoldi, lekin, u, ko'pincha, yengsiz va tik yoqali qilib tikilardi. Shaube qatorida keng uzun plash ham kiyilardi. Bu davrda Ispaniya modalari Olmoniya mahalliy hususiyatiga binoan o'zgarib, kiyimda o'z ifodasini topgandi. Misol uchun, Ispaniyada plisse qilingan yubka va peshbandlar keng tarqalgandi.

Shunday qilib, mahalliy oliftalar did farosat va urf-odatlariga binoan ispan uslubini o'zgartirib, o'zlariga moslab kostyumlarni yaratgan. Ammo, Olmoniya

kostyumlari, ularning shakl va dekorativ prinsiplari Yevropa kostyumiga ta'sir etmaydi. Ular Olmoniyada saqlanib qolib, faqat xalq kostyumiga o'tgandi.

Nazorat savollari

1. Uyg'onish davrni nima tavsiflaydi?
2. Italian kostyumining farqlovchi hususiyatlari.
3. Ispan kostyumining farqlovchi hususiyatlari.
4. Fransiya kostyumning farqlovchi hususiyatlari.
5. Angliya kostyumning farqlovchi hususiyatlari.
6. Olmoniya kostyumning farqlovchi hususiyatlari.

Ma'ruza № 12 (2 soat).

Mavzu: XVII-XVIII ASRLAR YEVROPA KOSTYUMI

Reja

1. Barokko badiiy uslubi kostyumi
2. Rokoko badiiy uslubi kostyumi

Adabiyotlar

1. Мерцалова М.Н. История костюма. М.: - Искусство, 1972.
2. Пармон Ф.М. Композиция костюма. М.: - Легпромбытиздат, 2002.
3. Киреева Е.В. История костюма. М.: - Просвещение. 1986.
4. Кибалова. Иллюстрированная энциклопедия моды. Прага.: - Артня.

1. XVII asr san'atida Barokko uslubi rivojlangandi. Etuk mutloqlikning dvoryan-chyerkov sig'inishi bilan bog'langan **Barokko** uslubi katta uslubga intilgandi. San'atda qarama-qarshilik, keskinlik, manmanlik va gerdayishga intilish, haqiqat va xom hayolni mujassamalantirish ushbu uslubga mansub edi. Barcha san'at turlarida Barokkoning qonun-qoidalari o'z aksini topgandi. San'atning milliy variantlari xilma-xil bo'lgan edi.

Yevropada Fransiya eng buyuk davlat bo'lib, moda sohasida ham oldingi o'rinda borardi. Asr mobaynida Fransiya tarixiga binoan kostyum modasi o'zgargandi. Sanoat mollarini asosiy iste'molchisi dvoryanlar bo'lgani sababli, zeb-ziynat buyumlarini ishlab chiqarish intensiv ravishda o'sdi. Ipak gazlamalar, baxmal, atlas, kimhob, tafta va b., to'rlar, tasmalar, ipak paypoqlar, batist, qo'lqoplar, zargarlik buyumlari boshqa mamlakatlarga sotilib, fransuz modasini barcha Yevropa mamlakatlariga tarqalishiga sabab bo'lgandi.

Erkaklar kostyumi. Bu davr shakli oldingi asrga nisbatan yumshoqroqligi, yangi yoqa turlari va ishton "o-de-shoss" bilan farqlanardi. Kostyum kalta purpurendan, keng kalta o-de-shossdan, ipak paypoq va etik yoki tuflidan iborat

edi. Bosh kiyim yupqa namatdan ishlangan bir tomoni tepaga ko'tarilgan keng yoki tor soyabonli baland shlyapa bo'lgan.

Kostyumning barcha bo'limlari o'zaro tikilmasdan bog'ich yoki ilgaklar yordamida biriktirilardi. Purpurenning lifi to'rt bo'lakdan iborat edi. Uning uzunligi beligacha bo'lib, old bo'lagining etagi uchburchak shaklida va uzunroq edi. Lifning pastiga tasma bilan baskani biriktirishardi. U bir necha 8-12 bo'limdan iborat edi. Baskaning shakli turli o'lchamli trapesiyasimon edi. U astarli qilinib, tasma "*galun*" bilan bezatilardi. Bir necha bo'lakdan iborat *epoletlar* purpurenning yeng o'mizini bezatardi. Ba'zan, purpuren kesimlar bilan bezatilardi, ularni orasidan astar ko'rinar edi. Purpuren ko'p tugma, soni 576 gacha yetardi, yoqalar va manjetlar bilan bezatilgandi. Bu davrda freza yoqasidan tashqari oq qaytarma yoqa va manjet urf bo'lgandi.

Purpurenni ostidan avrasi yumshoq taftadan, astari satindan qilingan kalta "*shemizett*"ni va yupqa matodan tikilgan keng ichki ko'ylakni kiyishardi.

XVI asrdan qolgan ishtonlar kengroq bo'lib tugmalanadigan bo'ldi, ikki qavat astarli va tik kesimlar qilinib, chegarasi tasma galun bilan bezatilgandi.

Ustki kiyim endi yumshoqroq bo'lgandi. Ustki kiyimning asosiy turlari: "*kazak*", "*manto*", "*kaban*", "*ongerlin*" bo'lgan.

Oyoqga shoyi yoki junli trikotaj paypoq kiyishgan. Oyoq kiyimi baland poshnali tufli, baland qo'njli etiklar - "*botfortlar*" va ularning ustidan yog'ingarchilikda charmdan tayyorlangan yog'och taglikli poshnasiz "*galosh*" kiyishardi.

Bosh kiyimlari keng soyabonli, tuyaqushni pati bilan bezatilgan shlyapalar edi. Sochlari uzun, jingalak qilingan va yelkasiga tushib turardi. Soqollarini olib tashlab, mo'ylov qo'yishgandi.

Purpuren va shossning bichimi o'zgargandi. Purpurenning baskasi yumshoq bo'lib, faqat orqasida bo'lardi, oldi esa uzunroq edi. Yenglar bichimi o'zgarmagandi. Shosslar endi "*pantolon*", Italiya komediyasining personaji Pantalonedan deb atalardi. Pantolonlar keng bo'lgan, uzunligi tizzasidan pastroq bo'lib, uchi tasmadan qilingan ilgaklar yordamida tugmalanardi, old taqilmasi - "*bragett*" uchburchak shaklida joylashgan bir necha qator tasmadan qilingan xalqalar bilan berkitilardi.

1660 yilda baland, qattiq soyabonli, tuyaqush pati bilan bezatilgan shlyapalar keng tarqalgandi. Pariklar kattalashgan sari pastroq bo'lgan va ularni qo'lda olib yurishgan.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumini asosi "*korset*" va "*vertyugard*" edi. Ichki ko'ylak ustidan korset va "*kaleson*"ni kiyishardi. Kalesonlar qimmatbaho matolardan qilinardi; qishda astarini baxmaldan, yozda esa tuyani terisidan qilinardi. Kalesonlar tasma "*galun*", kashta va tugmalar bilan bezatilardi.

Ko'ylak avvalgiday "*kor-de kott*"dan, "*kott*"dan va "*rob*"dan iborat edi. Kor-de kott lifining yuqori qismi keng, yengi esa uzun edi, uning shakli tol chiviqlar yordamida ushlanib turilardi. Kott taxlamli yubkaga aylandi. Lif va yubkasi bir xil matodan qilingandi. Ustki kiyim - rob - oldi ochiq, kalta yengli keng manto edi. Aslzoda ayollar ko'pincha, bosh kiyim kiyishmasdi, faqat beva ayollargina qora "*shaperon*" kiyishardi.

Nozlar kiyimlarning ayrim bo'laklariga yangi nomlarni berishgandi: ustki ko'ylak yubkasini - "*modest*", odmi, ichki ko'ylak yubkasini - "*frepon*", o'ynoqi, ichki yubkani - "*sekret*", yashirin deb atashardi.

Yuzlarini va sevgi sarguzashtlarini yashirish uchun baxmaldan niqob va qora taftadan bosh kiyim "*kapor*" kiyishardi.

Oyoq kiyimlari: qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan tuffilar edi.

2. XVIII asr - feodalizm tuzimining so'nggi bosg'ichi va burjua inqiloblari davri edi. Bu davrga kelib, burjua madaniyatining asoslari paydo bo'la boshlaydi. Bu asoslar, Didro, Voltyer, Russo kabi ma'rifatchilar mafkurasida o'z ifodasini topadi. So'zsiz, har bir davlat o'zining tarixiy sharoiti va milliy hususiyatlariga ko'ra taraqqiyot yo'liga egadir.

Asrning birinchi yarmida badiiy yo'nalish **Rokoko** uslubida o'z aksini topdi. Rokoko - kichkina bino va shahar atrofidagi saroylar, qishloq idilliyasi va kichkina dekorativ shakllarning uslubi. Bu uslub barokkoga o'xshasa ham uni o'ndan bir kuchiga ega edi. Nozik dekor, egri chiziqlar, ishqiylik - ushbu hususiyatlar rokoko uslubining tavsiflaridir. Nozik intyeryerni yengil va nafis ishlangan mebel, chinni buyumlar, lyustralar, vazalar, haykalchalar, bezatardi. Mebel esa odamlarning didiga moslangandi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar kostyumi ichki va ustki kiyimlardan iborat bo'lgan. Ko'krak qirqimi to'rtli jabo bilan bezatilgan, to'rtli manjetli oppoq ich ko'ylak kiyimning majburiy qismi edi. Ko'ylakning ustidan kamzol "*vesta*"ni va uni ustidan kaftan "*abi*" ni kiyishgan. Kamzol yorqin shoyi matodan tikilib, kashta bilan bezatilardi. Kaftan baxmal yoki qalin shoyi matodan tikilib, gavgacha beligacha yopishib turardi. Etagiga esa yelimlangan qalin mato yoki kitning mo'yini tikishardi. Kaftan va kamzol yoqasiz bo'lgan. Kaftanning yengil keng, uzunligi tirsagigacha, boshqa rangli matodan qilingan manjetli edi. Yon cho'ntaklari qopqoqli bo'lgan va belidan pastroqqa joylangandi. Bort va manjetlari zar yoki kumush bilan kashtalangan va metall tugmalar bilan bezatilgan. Odatda, kaftan tugmalanmasdi. Galstuk qizil yoki tor tasmadan qilinib, bantga bog'lanardi.

Tor pantolon "*kyulot*"lar tizzadan pastroq bo'lib, pochasi tugmalanardi. Dvoryanlar, odatda, oq paypoq, burjuaziya - rangli paypoqni xush ko'rishgan. Sovuq paytda Angliyadan kelgan "*getr*"larni kiyishgan. Oyoq kiyimlari past poshnali metall tyoqa bilan bezatilgan bashmoqlar bo'lgan.

Asr boshida, 1715 yilgacha, modada XVII asrning pariklari uchraydi. Keyin pariklar kichkina bo'ldi. Sochlarini jingalak qilishgan yoki orqaga silliq qilib tarab, qora lenta bilan bog'lab, upa kaftanni bulg'amasligi uchun uchini qora haltachaga solib qo'yishgan. Bosh kiyimi pat bilan bezalgan uch qirrali shlyapa edi. Kostyumning qo'shimchalari shpaga, qo'lqop, tamaki quti va muftalar bo'lgan.

Ayollarni kostyumi. XVIII asrni birinchi yarmida ayollar kostyumi juda go'zal, nafis, och rangli bo'lgan. Ular nozik chinni haykalchalarga o'xshagan. Tor yelka, juda ingichka bel, yumaloq bo'ksa chizig'i, kichkina pariklar gavgacha noziklik baxsh etgan. Korset va ichki yubkaning ustidan ichki ko'ylak frepon va ustki ko'ylak modest kiyilgan. Ichki yubkalari oxorlanardi, ba'zan, esa qavilardi. Tantanali marosim liboslarida kit mo'yidan qilingan ichki yubkalar kiyishgan. Saroy ko'ylaklari ko'pincha shleyfli bo'lgan, ammo, yubka karkasga tortilgani

uchun shleyfi mato parchasidan qilinib yelkasiga yoki beliga qistirilardi. Ichki ko'ylak freponning lifi korset yordamida tor bo'lgan, ustki ko'ylak- modestning lifi oldi ochiq bo'lib, lenta yoki shnurovka bilan biriktirilardi. Ustki ko'ylakning yubkasini oldi ochiq va chegarasi ser burma bilan bezatilardi. Ichki yubkaning etagi esa to'r, kashta, ryush, oborka va volanlar bilan ko'ndalang yo'nalishda bezatilardi. Keng tarqalgan yoqa o'mizi kare edi. Uni ko'pincha to'r yoki yengil matodan qilingan volan bilan bezashardi. Yenglari tor bo'lib, uzunligi tirsagigacha edi. Uchi to'r yoki yengil matodan qilingan volan bilan bezatilardi. Bo'yinlariga yengil shoyi ro'mol, mato yoki to'rdan ryush yoki duxoba tasmani bog'lashgan.

Ustki kiyim "*kontush*" bo'lgan. Kontush yelkasidan kengaygan trapesiyasimon siluetli, beli qirqilmagan va belgilanmagan, orqasi chuqur taxlamli, Vatto taxlamlari, ichki yubka yoki karkasning ustidan kiyilgan ko'ylak edi. Uning oldi ochiq bo'lib, tasmalar yordamida biriktirilgan. Ba'zan, kontushni oldini kesmasdan boshdan kiyishgandi. Bu ko'ylaklar shoyi, atlas, yengil duxobadan tikilgan. Ranglari och va yorqin bo'lgan. Asr o'rtalarida kontush kalta jaketchaga aylangan. Qulay bo'lgani uchun uni uyda kiyishgan, ko'chaga esa endi uni faqat oddiy aholi kiygan.

Bu davrning barcha ko'ylaklari bantlar, to'rlar, guldastalar va boy kashtalar bilan bezatilgan.

Prichyoskalari kichkina, jingalaklari tepaga ko'tarilgan bo'lib, lentalar, patlar va marvaridlar bilan bezatilgandi. Odatda, sochlariga upa sepishardi. Bu davrda bosh kiyim kamdan-kam kiyishgan. Uyda to'rlar, lentalar va gullar bilan bezalgan chepeslarni kiyishgan, ko'chaga chiqqanda boshiga yengil yopinchoq, sayohatga borganda erkaklarning uch qirrali shlyapasini kiyishgan. Paypoqlari oq va rangli bo'lgan. Oyoq kiyimlari baland poshnali, ochiq, atlas yoki yupqa charmdan tikilgan ixcham tufllilar edi.

Bu davrda marjonlar, bilaguzuklar, uzuklar, nozik zanjirli soatlar, guldastalar, ko'pincha chinnidan, tasvirlar chizilgan yelpig'ichlar tutishgan.

Nazorat savollari

1. Barokko badiiy uslubni nima tavsiflaydi?
2. Erkaklar kostyumining tavsifi.
3. Ayollar kostyumining tavsifi.
4. Ispan modasini Yevropa xalqlar kostyumiga ta'siri.
5. Rokoko badiiy uslubni nima tavsiflaydi?
6. Erkaklar kostyumining tavsifi.
7. Ayollar kostyumining tavsifi

Ma'ruza № 13 (2 soat)

Mavzu: **XIX - XX ASRLAR KOSTYUMI**

Reja

1. Ampir badiiy uslubning tavsifi va kostyumi.

2. XIX asr I-yarmi kostyumi
3. XIX asr II-yarmi kostyumi

Adabiyotlar:

1. Мерцалова М.Н. Истоия костюма. М.: - Искусство, 1972.
2. Пармон Ф.М. Композиция костюма. М.: - Легпромбытиздат, 2002.
3. Киреева Е.В. История костюма. М.: - Просвещение. 1986.
4. Кибалова. Иллюстрированная энциклопедия моды. Прага.: - Артия

1. XIX asr Evropa kostyumi tarixi 1789 yildan, ya'ni fransuz burjuaziya inqilobidan boshlanadi, deb hisoblasa hato bo'lmaydi. Asr oxirida kostyumni shakllantirish asoslari yaratilgandi.

XIX asr modasida asosiy o'rinni endi ayollar kostyumi egallardi. Erkaklar kostyumi esa faqat mato sifati bilan, ichki kiyimning oppoqligi bilan farqlanardi. Endi kiyimning yorqinligi va bezaklarning ko'pligi bilan ajralib turishi erkaklar uchun kelishmagan qiliq deb hisoblanardi. Ayollarning kiyimi esa erkaklar uchun "vizit kartochkasi" bo'lib qoldi.

Agar XIX asr davomida erkaklar kostyumining faqat detallari o'zgarsa, ayollarniki esa san'atning barcha uslubiy yo'nalishlariga bo'ysunib, keskin o'zgargandi.

Birinchi davr, 1800-1815 y. 1804 yilda yosh konsul Napoleon o'zini imperator va Fransiyaning imperiya deb e'lon qildi. Bu davr san'atida **Ampir**, imperia, fr. - imperiya, badiiy uslubi barpo etilgandi. Endi san'at yangi tartibga qaram qilib qo'yildi. Napoleon o'zini san'atning qadriga etuvchi shaxs deb hisoblardi, u san'atni o'z xarbiy yutuqlari va hokimligini maqtash uchun ishlatgandi. Napoleon imperiya inqilobining yutuqlarini davom ettiradi deb e'lon qildi, xarbiy diktaturasini klassik me'ros asosida yaratilgandi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar ichki ko'ylagi baland tik yoqali oq ko'ylak bo'lgan. Ustidan ola-bula nimcha, ba'zan, baravar bir nechtasini kiyishgan. Galstuk, halstuch, nem. - bo'yin ro'moli, sharfsimon bo'lib, bo'yinga o'ralib, oldinga har xil usulda bog'langandi: katta bant yoki tugun qilib, uchlari esa nimchaga berkitilardi.

Asr boshlarida erkaklar uzunligi etigigacha bo'lgan pantolon kiyishgan. 1818 yilga kelib, pantolonni to'piqqacha uzayib, modaga butunlay kirdi. Pantolonlar "*podtyajka*", shimni tutib turish uchun ikki yelka osha tortib qo'yiladigan tasma, yordamida mahkamlanar edi, shim pochasi esa "*shtripka*"lar, pochatasma qilinardi.

Eng keng tarqalgan ustki kiyim frak bo'lgan. Uning beli sal balandroq ko'tarilib, yeng qiyamasi keng va uchida voronkasimon manjet bo'lgan. Ko'pincha, yoqasi boshqa rangli duxobadan qilingandi. Fraklar, asosan, sidirg'a matodan tikilardi, ammo naqshli, yo'l-yo'l, chakma gulli va b., ham uchrardi. Tugmalari kumush, chinni va ba'zan qimmatbaho toshlardan bo'lgan.

Ustki kiyimlar va pantolonlar har xil rangli edi; shu davr qoidalariga binoan, pantolon rangi ochroq bo'lishi kerak edi.

Ot minganda avvalgiday redingot kiyishgan. Keyinroq u o'zgarib kundalik kiyim "*syurtuk*" ga aylandi. Oldin syurtukni, surtout, fans. - ustidan kiyiladigan, frak va mundir ustidan kiyishgan. Syurtuk hozirgi zamon paltosi vazifasini bajarardi. Asta-sekin uni frak ustidan kiymasdan, frak o'rniga kiyiladigan bo'ldi. Syurtuk belga yopishib turib, uzunligi tizzagacha bo'lgan. Yengining shakli fraknikiga o'xshash edi. Asrning 20-chi yillarida syurtuk ko'chada kiyiladigan kiyimga aylandi.

Ko'pincha sochlarini orqasidan kalta qirqishardi, oldi esa uzunroq qoldirilib ozgina jingalak qilindi. Xarbiylarning orasida "*bakenbard*" qo'yish odatga kirgandi, bakenbardlar fransuz inqilobidan keyin paydo bo'lgandi.

Oyoq kiyimlari baland qaytarma qo'njli, qora, sariq rangli etik va balga oid ochiq tufllilar bo'lgan.

Ayollar kostyumi. Ampir uslubining ta'siri ayollar kiyimida tez sezildi. Asr boshida, asosan, oq ko'ylak kiyishgan, keyinchalik sidirg'a rangli ko'ylaklar ham kiyiladigan bo'ldi. Tantanali ko'ylaklarda antik naqshli kashta qilingandi. Ko'ylak matosi mo'ljalga mos bo'lardi: yozgi ko'ylaklar och rangli yengil matolardan, doka, chit va boshqalar, qilindi; tantanali ko'ylaklar atlas, tafta va duxobadan; kundalik ko'ylaklar esa yengil jun matodan edi.

Ustki kiyimlari ko'p emas edi - "*spenser*" kurtkasi va "*redingot*" edi, ammo ayollar garderobida ko'p turli yopinchoqlar bo'lgan. Ko'pincha, yengil matodan qilingan uzun uchli "*kanza*"ni yelkaga tashlab orqasida uchlarini bog'lashardi. Bu davrda modaga rus po'stini, shuba kirgandi. Uy kiyimi sifatida to'rli "*penyuar*", peigner, frans. - sochini tarash, kirgandi.

Fasonlarning xilma-xilligiga yoqalarning turli tumanligi bilan bo'yin va ko'krakni berkitadigan kichkina "pelerina"ning paydo bo'lishi bilan, pirpiraklar bilan bezatilgan dekolletlar bilan erishilardi. Lekin ikkinchi davr boshlanishiga qadar ko'krak va bo'yin ochiqligi urfda edi. Yenglari, ko'pincha, "fonarcha" shaklida yoki keng, qiyamasi burmalangan va yaltiroq yoki gavxar tyoqa bilan qistirilgandi.

Prichyoskalar kiyimni detallariga o'xshash tez-tez o'zgaradi. Har xil jingalaklar yordamida yunon "tuguni"simon prichyoskalar qilingandi. Bosh kiyimlar ham tez-tez o'zgargan. Asosiy bosh kiyim "*kibitka*" bo'lgan. 1812-1814 yillarda xarbiy "*kivyer*"ga o'xshagan bosh kiyimni kiyishgan. Ballarga esa dokadan salla kiyishgan.

Oyoq kiyimi yengil, poshnasiz, uchi tor bo'lgan. Uni tasma yordamida chalishtirib oyoqqa bog'lashardi. Kiyimga qo'shimcha qilib uzun qo'lqop, yelpig'ich, xaltacha va kichkina soyabon tutishgan.

2. Ikkinchi davr, 1815-1830 y. 20-30-chi yillarda adabiyot va tasviriy san'atda *romantizm* uslubiy yo'nalishi vujudga kelgandi. Romantizm ijodiy uslubiy yo'nalishi Fransiya inqilobidan keyin ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotda sodir bo'lgan tub o'zgarishlardan so'ng vujudga keldi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar kiyimlarining asosiy turlari qora, ko'k, sarg'ish-yashil va jigar rang frak va redingot bo'lgandi. Frakning oldi uzun va duxobadan qilingan shol yoqali bo'lardi. Redingot esa baland taqilmali, kichkina laskan, adip qaytarmali, tik yoqali va pelerinali edi.

Ustki kiyimda keng qulay shakllar saqlanib qoldi. Odatdagi plashdan tashqari bitta yoki ikkita pelerinali mantoni kiyishardi.

Galstuklar kam o'zgargandi, ammo kechqurun balga frak bilan kiyish uchun yangi, bog'lanmaydigan, ya'ni 12 to'g'nog'ich "*plastron*" bilan biriktiriladigan galstuk ixtiro qilingandi.

Tor soyaboni sal qaytarilgan baland shlyapalar keng tarqalgandi. 20-chi yillarda Kolumbiyaning xaloskori Bolivar sharafiga soyaboni va tepasi keng shlyapa "*bolivar*" kiyishgandi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi oldingi davrning konstruktiv chiziqlari saqlagan holda, bezagi ko'paya boshladi, ayniqsa ko'ylagining etagida. 1819-1820 yillarda ayollar kostyumining silueti o'zgardi. Bel chizig'i asta-sekin pastga tusha boshladi, yengning tepa tomoni kengaya boshladi, yubka toraydi va korsetning shakli o'zgardi. Siluet endi ayolni ustunga o'xshatmasdan, tabiiy qomatini ko'rsatardi. Chuqur dekolte va kalta yenglar faqat balga oid ko'ylaklarda saqlanib qolingandi; bir necha qator pelerinalar, ro'mol, frezalar bo'yin va ko'kragini berkitardi. 20-chi yillarning oxirida yeng ikki qavatli edi: ichki yengi qisqa "fonarik" shaklida, ustkisi esa - uzun, pastiga toraytirilgan bo'lib, xarir matodan qilingan edi. Oldingiday spenser kiyishardi.

Uchinchi davr, 1830-1848 y. 30-40 yillarda ustunlik qilayotgan badiiy uslubga birinchi marta nemis nomi "*bidyermayer*" berilgandi. 1840-1850 yillar fesheneblar davri deb atalgan.

Erkaklar kostyumi. 30 - yillarda romantizm modasini "romantik beparvolik" tavsiflardi: ataylab tugmalanmagan yoqalar, yoyilgan sochlar va boshqalar. Bunday beparvolik bilan kiyinish shaxs intellektualligining muhimligini ko'rsatardi. Bashanglik nug'tai nazaridan qaraganda frakni har uch haftada, shlyapani - har oyda, oyoq kiyimni - har haftada almashtirish lozim edi. Erkaklar frak yoki syurtuk kiyishardi. Ular beliga yopishib, bo'ksada kengayib turgandi, yenglari esa sonsimon shaklli, hurpaygan edi. Erkaklar kostyumi yashil, ko'k, tamaki, kul va jigar rangli jun matolardan tikilgandi, pantolonlar esa ochroq rangli qilinardi. To'q ranglarga intilish ham sezilardi. Saroy kostyumlari va nimchalari shoyi va duxobadan bo'lardi. 40 yillarda katak-katak matolardan kiyim tikish modaga kirgandi.

Oyoq kiyimlari yarim etik va tufli - *lodochka* , oldi ochiq ilgaksiz tufli edi. Kostyumni qo'shimchalari qo'lqop, hassa, soyabon, dastro'mol, lornet va qamchi bo'lgan.

Ayollar kostyumi. Asrning 30-chi yillarida ayollar kiyimi siluetida talay o'zgarishlar yuz berdi. Bel chizig'i tabiiy joyiga tushdi, lifning uzunligi ham tabiiy bo'lib, yubkasi va yenglari juda kengaydi. Belni imkoniyat boricha toraytirish maqsadida korset kiyishgan va ko'ylak belini keng belbog' bilan bog'lashgandi. Keng yubkani tagidan bir necha ichki yubkalar kiyishardi. Pasaytirilgan yelka chizig'i va o'tqazma katta keng yenglar belni tor va ingichka qilib ko'rsatardi. Ko'ylakning uzunligi to'piqqacha edi. Yenglari esa "sonsimon" hurpaygan bo'lgan. Kundalik ko'ylakni uzun yenglari o'rta asrni "jigo" yenglarini eslatardi.

Shu davrda ayollar garderobida pelerinalar, sharflar, kashemir shollar muhim rol o'ynagan bo'lsa ham, avvalgiday spenser va mantoni kiyilardi. Oyoq

kiyimlari ham avvalgiday poshnasiz, tor, lentali edi. Ammo, ochiq tufllar qatorida tugmali botinkalar ham moda bo'lgandi.

3. To'rt inchi davr, 1850-1870 y. 50-60 yillarida XVIII asr badiiy uslubi - rokoko - alohida e'tiborga ega edi. Uning ta'siri intyeryer va mebelda hashamatli eklektik uslub yaratilgandi, "ikkinchi rokoko" yoki "ko'rgazma" uslubi.

Erkaklar kostyumi. Kiyimning yangi turi - "vizitka" - elegant ko'chalik kostyum bo'lib qoldi. Kundalik tualet vizitka va yo'l-yo'l shimdan iborat edi. Odatda, qora vizitkani yo'l-yo'li kul rangli qora shim bilan yoki yo'l-yo'li qora kul rangli shim bilan kiyishgandi. Uyda va dalada, dachada, har xil jaketlar va modaga kirgan duxoba bluzkani kiyishardi, keyinchalik shunday kiyim badiiy ijodkorlar kiyimi bo'lib qoldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida erkaklar kiyimida oddiylashtirish va demokratizatsiyalash yuz bergandi. Feodal o'tmish estetik an'analari bilan bog'lik dekorativ elementlar: to'r, par-paralar bilan bezalgan ko'ylaklar, parchadan qilingan nimchalar va b. asta-sekin yo'qolgandi. Ammo "arzon dabdabalik" - tugmalanadigan oxorlangan yoqalar, manishka va manjetlar - paydo bo'lib, qimmatbaho ichki kiyim ko'rinishini berardi va ularni o'rtamiyona odamlar kiyishardi. Galstuklar ham oddiylashtirildi.

Asrning birinchi yarmidagi ovchilar kostyumining bo'limi - "veston" - pidjak yoki kurtka erkaklar kundalik kostyumida endi asosiy o'rinni egallardi. Endi pidjak, nimcha va shim bir matodan tikilgan klassik kiyimga aylandi. Erkaklar kiyimi, rang-barangligini yo'qotib, ko'k, to'q yashil, qora va jigar rang bo'ldi. Faqat yozda och ranglarni ya'ni oq, sarg'ish va kul ranglarni kiyish mumkin edi. Katak-katak kostyumlar, ayniqsa Angliyada keng tarqalgandi. 60-yillarda modaga qora yoki kul rangli yo'l-yo'l shimlar kirgandi.

Aynan bu davrda hozirgi zamongacha saqlanib qolgan bichimlar yaratildi. Shunday qilib, erkaklar kostyumida asrga oid standartlik va barqarorlik mavjud bo'lgandi. Moda kirgizgan o'zgarishlar arzimlas detallardan iborat edi.

Nimchani asr davomida doimo kiyishgandi. O'zgarishlar faqat detallarida edi: yoqa o'mizining chuqurligi, yoqaning shakli va b. Frak bilan faqat oq nimcha kiyilardi. Shimlar har o'n yilda o'zgarardi. 50-yillarda shimlar pochatasmasli, shtripkali bo'lgan, 60-chi yillarda esa shtripkasiz bo'ldi.

Ustki kiyim plash "reglan" yoki "macfarlane" - bir bortli, yengsiz, katta pelerina va qaytarma yoqali palto edi. Kundalik palto mo'yna yoqali edi. Galstuk avval keng va keyin tor bantga bog'lanardi. Silindr avvalgiday asosiy bosh kiyim bo'lgan edi. Sport kostyumida fetr shlyapa - "melona" - bo'lgan. Yozda keng soyabonli panamani, yumshoq fetr shlyapani va qattiq soyabonli past shlyapa - "kanote" kiyishardi.

50-chi yillarda oyoq kiyimining tumshug'i uchli 60-chi yillarda - to'mtoq bo'lib, baland poshnali edi. 50- yillarga kelib rezina oyoq kiyimlar paydo bo'ldi.

Ayollar kostyumi. XIX asrning 50-60-yillarida ayollar kostyumi ma'lum darajada barqarorlashdi. Belni juda sig'adigan korset, unga mos lif va keng yubka saqlanib qolgandi. Siluetning o'zgarishi yubka kengayishida, detallarning yangi variantlarida sezilardi. Siluetning asosiy tuzilishi - ikkita qarama-qarshi

uchburchak - o'zgarasdan qolgandi. Kostyumning xilma-xilligiga bezaklar yordamida erishilardi, ular yillar sayin ko'paygandi.

Moda qonundori yana fransuz saroyi edi. Modalar ikkinchi imperiya modasi deb atalardi. Ko'ylak silueti bel chizig'ining tabiiy joyda joylashganligi bilan pasaytirilgan yelka va katta krinolinli yubka bilan tavsiflanardi. Belni toraytirish uchun doimo zich shnurovkalangan korset kiyishardi. Yubkalar juda kengaygandi, chunki tagidan ot qilidan yoki bir necha metall gardishdan qilingan "*krinolin*" kiyishardi. 60-yillarda krinolin orqaga tortilib oval shaklli bo'ldi. Kundalik ko'ylak lifi berk bo'lib, balga oid ko'ylaklarning dekoltesi chuqur bo'lardi. Kundalik ko'ylaklarning yangi pastiga kengaygan va oq manjetli edi, balga kiyiladigan ko'ylaklar, odatda, yengsiz bo'lgan. Sayohatga va mehmonga belga yopishib turgan jaket "*kazakin*" kiyilardi. Ustki kiyimlar kofta - jiletlar, "*figaro*"lar, shollar, yopinchoqlar, mantilyalar, pelyerinalar va mo'yna bilan sirlangan "*rotonda*" lar edi.

Bezaklar: sun'iy gullar, tasma, tyoqalar, shokilalar, kashtalar va to'rlar ko'p miqdorda bo'lgan.

Bosh kiyimlari shoyi yoki poxoldan qilingan va gul yoki lentalar bilan bezatilgan kichkina shlyapalar yoki to'rli chepchiklar edi. Shlyapalar engakka lentalar bilan bog'lanardi. Yozda florensiya poxolidan qilingan shlyapa kiyishardi. Asrning 60- yillarida pat bilan bezalgan uch qirrali shlyapalar modaga kirdi. Sumkachalar, lornet, soyabonlar kiyim qo'shimchasi edi.

Ayollar kostyumining silueti 1866-1867 yillarda o'zgargandi. Bel chizig'i baland joylanib, yubkaning tepasi burma va taxlamsiz bo'lganligi tufayli, lif yubkaga silliq o'tardi. Shu holda ko'ylakni silliq yuzasi ahamiyatga ega bo'lgan. Yumaloq shakllarni o'rniga to'g'ri chiziq hamda burchaklar va yangi mutanosiblik paydo bo'lgandi. Ular ayollarning bo'yini balandroq qilib ko'rsatardi. Bu davrdagi bichim - yaxlit bichilgan ko'ylak "*princesse*" edi. Ko'ylakning siluetiga binoan prichyoska ham o'zgargandi. Sochlar tepaga ko'tarilib, bo'yinni ochgandi. Sochlar jingalak qilingandi.

Nazorat savollari

1. Ampir kostyumining asosiy xususiyatlari.
2. Modern uslubining spetsifik xususiyatlari.
3. XIX asr I-yarmi kostyumining o'ziga xosligi
2. XIX asr II-yarmi kostyumi o'ziga xosligi

Ma'ruza № 14 (2 soat)

Mavzu: **XX ASRLAR KOSTYUMI**

Reja

1. XX asr I-yarmi kostyumi
2. XX asr II-yarmi kostyumi

Adabiyotlar:

1. Мерцалова М.Н. Истоия костюма. М.: - Искусство, 1972.
2. Пармон Ф.М. Композиция костюма. М.: - Легпромбытиздат, 2002.
3. Киреева Е.В. История костюма. М.: - Просвещение. 1986.
4. Кибалова. Иллюстрированная энциклопедия моды. Прага.: - Артия

1. XX asr Yevropa kostyumining rivojlanishi va shu davrning hayotiy murakabligi va ziddiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Fan va texnikaning keskin taraqqiyoti va yangi turmush tarzi modaning tez-tez o'zgarishiga va uning ijtimoiy vazifalarini o'zgarishiga olib keldi. Moda va kiyimning demokratizasiyalanishiga sanoat mollarining moda yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqarilishi sabab bo'lgandi.

Erkaklar kostyumi. Asr boshida erkaklar turmush tarzi sport ta'sirida sezilarli darajada o'zgargandi. Sport kostyumi va uning elementlari kundalik kiyiladigan kostyumga moslashgandi. Kunning ikkinchi yarmida shaharliklar odmi kostyumda yurmasdan, sport kostyumini kiyishardi. Ayniqsa, velosiped va motosiklning keng tarqalishi modaga ham sezilarli ta'sir qildi.

Ammo avvalgi odat va qonun-qoidalar osoyishtalik bilan o'z o'rnini yangi urf-odatlarga bermasdi. Noqulay, azob beradigan baland oxorlangan yoqa "*padarkush*" yana modaga kirgandi. Kostyum bichimida erkinlik bo'ldi, syurtuk o'rniga tamomila pidjak kirdi, silindrni o'rniga esa fetr, namat, shlyapa kirdi. Tantanali kechalarda frak o'rniga "*smoking*", shol yoqasi atlas matodan qilingan, kiyadigan bo'lishdi. Kostyum rangining odmiligi uning detallarida ham sezilardi: galstuk va oyoq kiyimlari ham oddiylashdi.

Erkaklar kostyumining unifikatsiyalanishi kiyimda barcha ijtimoiy farqlarni uyg'otgandi, lekin boy burjuaziya vakllari va London oliftalari - "*dendi*" ajralib turish uchun kostyumni ayrim bo'limlarini o'zgartirishga intilgandilar. Boylikni ko'rsatish uchun ularda oltin to'g'nog'ich, soat, zanjir, uzuk, ilmatugma, zaponkani taqish odati saqlanib qolgandi.

Ayollar kostyumi. Bu davrda ayollar kostyumining silueti o'zgarmagandi. Kiyimning xilma-xilligi ayrim detallar yordamida burma, oborka, yoki buf yordamida kengaygandi; bel chizig'i oldida sal pasaytirilib, belbog' bilan aniqlanardi. Yengil yoz ko'ylaklar va bluzkalar volanlar, plissirovkalar va to'rlar bilan bezatilardi.

Soyaboni bejamdor egilgan va sal qaytarilgan katta shlyapalar gullar, patlar, to'rlar va bantlar bilan bezatilgandi.

Modali siluet chiziqlari saqlangan holda kundalik kostyum ancha oddiylashdi. "*Reforma*" ko'ylaklari saqlanib qolgandi va uning to'g'ri chiziqlariga qaramasdan korset kiyishgandi.

1911-1914 yillarning mayin, "oqib" turgan chiziqlari oldingi siluetlardan farqlanardi. Figurani egilganligi yo'qolib gavda to'g'riroq va kengroq bo'lgandi; 1914 yilga kelib kostyum silueti cho'zilgan romb shakliga aylandi. Yangi

mutanosiblik "*tyunik*"ning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Past sal kengaygan lif-tyunik va tor yubka nisbatlari o'ziga xos go'zallik yaratgandi.

1915 yilda ayollar kiyimida asosiy islohatlar amalga oshirildi: ayollar uzun korset va uzun yubka kiyaydigan bo'lishdi. Kundalik kostyum endi ayollarning hayotida muhim o'rinni egallagandi. Yubka va bluzka endi faqat kundalik kiyimda emas bashang kiyimda ham keng tarqaldi. Ustki kiyimda erkaklar, ayniqsa uchuvchilar kostyumiga taqlid etildi. Keng paltolar "*aviatig'ue*" deb atalardi. Bu og'ir yillarda ayollar ish kostyumi paydo bo'lgandi va erkaklar ish kostyumining to'liq nusxasi edi.

Ayollar va erkaklar orasidagi munosabatlar o'zgargandi. Endi ular xizmatdosh bo'ldi. Ish kuni davomida ularning bir-birlari bilan muzokaralari ayollarning tashqi ko'rinishiga ta'sir etgandi. Ayol o'spiringa, *la garconne*, aylangandi. Ingichka, serharakat, uzun ozg'in qo'lli, tor bo'ksali, yassi ko'krakli, qisqa qirqilgan sochli, *babi-copfe* ko'zlari va lablari bo'yalgan va og'zida doimo papirosasi bor ayol o'spirinni va ko'pni ko'rgan ayolni o'zida mujassamlashtirgandi.

1934 yildan boshlab ayollar kostyumida vujudga kelgan yangi siluet ko'p yillarga asos bo'ldi. Yelka kengaya boshladi, yengning tepasi ham kengaydi. Koketka bilan yaxlit bichilgan reglan yeng kirib keldi. Gavdaga yopishib turgan siluet qatorida yangi erkin to'g'ri yoki pastga kengaygan siluet vujudga keldi. Bir necha siluettarning baravar mavjud bo'lishi davr yangiligi edi.

Agar birinchi jahon urushida ayollar mamlakat iqtisodiy hayotida erkaklar o'rnini egallagan bo'lishsa, ikkinchi jahon urushida esa ayollarning ko'pchiligi xarbiy xizmatchi bo'lishgandi. Shuning uchun xarbiylashgan keng va to'g'ri yelkali siluet taglik yordami ko'p vaqt davomida saqlandi.

Bu davrda baravariga uchta siluet vujudga keldi: N -to'g'ri to'rt burchak, A - uchburchak bilan to'rt burchak, X - ikkita uchburchak. Kiyimlarning uzunligi tizzasidan sal pastroq edi. Fasonlarda xarbiy elementlar ko'p uchrardi: taxlamali va cho'ntakli koketkalar, keng belbog'lar, manjetlar, erkaklar ko'yagiga o'xshagan yoqalar va b. bo'lgan. Undan tashqari, xarbiy davr sharoitiga mos, shim ayollar kiyimida zarur narsaga aylanib qolgandi. Bularning qatorida to'r yoqalar va jabolar, bantlar, qo'sh etaklar ham uchrardi. Oyoq kiyimlar past yoki o'rtacha balandlikda keng poshnali edi. Sochlarni jingalak qilingandi.

2. 1945 yilda keng o'mizli, kichkina yelka taglikli yangi bichim - "*Yaponka*" paydo bo'lgandi. Yaxlit bichilgan yeng yangi siluetga asos bo'ldi. Shu yildan boshlab kiyim uzaya boshladi.

1947 yilda "Kristian Dior" fransuz firmasining yangi modalar kolleksiyasi jamiyatning yangi estetik talabini vujudga keltirgandi. Yopishib turgan lifli, uzun keng yubkali, suyri yelkali ko'ylak, baland ingichka poshnali yengil tufli nazokatlikni aks ettirardi. Bu uslub "*nyu luk*", yangi siluet, deb atalardi. Bu davrda "*ot Kutur*" moda firmalari modelyerlari yana ikkita siluetni: to'g'ri to'rt burchak va oval shakllarni taqdim etishgandi. To'g'ri yubkalar asosan kostyumlarda saqlanib qoldi, *yubka-klyosh*, "*quyosh*" yoki etagi kengaygan bir necha bo'limli yubkalar ham keng tarqalgandi.

50-yillar ayollarning tashqi ko'rinishiga, modasiga mustamlakachilikka qarshi mustaqillik kurashi ta'sir etgandi. Moda uylari sharq manbalarini va sharq "*makiyaj*"ni kostyumga kiritgandi.

Erkaklar kostyumi. Avvalgi modalardan frak va smoking qolgandi. Silindr va kotelok o'rniga yumshoq shlyapalar, beretlar kirgandi. Bosh yalang yurish modasi ham paydo bo'ldi. Kiyimlar yengillashdi. Oldin faqat ayollar kiyimida bo'lgan yaxlit bichilgan yenglar palto va kurtkaga ham o'tdi. Yoqasiz pidjaklar va kalta yengli erkaklar ip ko'ylaklari paydo bo'lgandi. Oyoq kiyimlar yengil va qulay edi.

1954 yildan boshlab Shanel modellari yana ommabop bo'la boshladi. Ular asosan to'g'ri siluetli jaket bilan ko'ylak va yubka, bluzka va jaket edi. Yoqasi, borti, cho'ntagi, yeng shlisasi chilvir, tasma, popuk bilan bezatilgandi. Bluzkaning yoqasi bant yoki galstuk bilan bezatilar edi.

1963-1965 yillarda "*Tineydjyerlar*" - 13-19 yoshli o'spirinlar - o'z didini va kiyim kiyish odatini o'rnatmoqchi bo'lgan edilar. Ushbu yo'nalish "*antimoda*" deb atalgandi. Juda ozg'in; uzun oyoqli; kalta malla sochli; yopishtirilgan uzun qalin kipriklari bilan o'spirin qiz *Tviggi*, ingl. - chiviqcha, go'zallik ramziga aylangandi. Antimoda odatdagi buyumlardan kechgandi. Sun'iy charmdan yamoqli motosikl kurtkasi, ataylab yirtilgan sviter, eskirgan *djinsi*, sandal, shippak, ularning asosiy kiyimlari bo'lgandi.

70-yillarning boshida antimoda asta-sekin effektli dizayner uslubiga aylandi. Modada bir necha uslublar baravar rivojlangandi: *retro* - o'rta yoshlarga mo'ljallangan XX asrning 30-40 yillar modasini stilizasiyalash; *disko*-g'ayriodatiy yoshlar uslubi; firmaga oid yuqori sifatni tasdiqlaydigan modalar yaratildi.

1967 yilda yoshlarga yaqin "*op art*", optik san'at, "*pop art*", hammabop san'at, *yangi realizm*, "*xeppening*" badiiy uslubiy yo'nalishlari modada o'z ifodasini topgandi.

Ayni shu davrda doimo konservativ mamlakat Angliya "*popping*" va "*shopping*" bo'lgan narsalarni ko'p miqdorda ishlab chiqarib sotgandi. Ko'pincha siyosiy ma'noli juda muhim xilma-xil yozuvli va rasmlı maykalar yoshlar kostyumining zaruriy bo'limi bo'lib qolgandi va har xil variantlarda hozirgacha saqlanib qolgan.

Kosmosga parvoz ham modaga ta'sir etgandi. A.Kurrej yaltiroq materiallardan kelajak kostyumini yaratgandi, uning konstruksiyasi "*op art*" elementlari bilan uyg'unlashgan edi. P.Karden birinchi bo'lib plastikdan kiyim yaratdi. Pako Rabanne esa plastik va metall bo'laklaridan amalga oshmaydigan kostyumlarni namoyish etgandi.

Bu yo'nalishlarga qarama-qarshi 70-yillarda yangi romantik uslub vujudga keldi. Xalq san'ati unga ijodiy manba bo'ldi. Ola-bula jun gazmollar va o'zga mamlakatlarning oddiy bichimlari modaga kirgandi. "*Gaucha*" ishtonlar, yopinchoq, "*poncho*", kashtalangan afg'on kurtkalari, hind shollari, to'qilgan peruan shapkalari va qo'lqoplari, arab kiyimlari va boshqalar jahon modasida keng tarqalgandi.

70-yillarda sharq dunyosining Yevropa kiyim uslubiga "bostirib" kirishi bilan Yapon modelyerlari jahon moda doirasida taniqli bo'lishdi. Ayniqsa, Kenzo

Takada va Mitsuxiro Matsuda modellarining dong'i chiqqandi. Ular bir tomondan, original Yevropa modasini yaratishgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa - odatdagi sharq kostyumi elementlarini yangi uslubga singdirishgandi. Kenzo, hattoki, Yevropa modasiga Janubi-Sharqiy Osiyo qishloq kostyumi elementlarini kiritgandi.

Aynan shu davrda Iv Sev-Loran ham bu yo'nalishni ma'qullab, xalq usullarini modaga kirgizgandi, rus va lo'lilar kostyumi usullari. Bu o'zgarishlar faqat "ot Kutur", yuqori modani qiziqitmasdan, aholi keng qatlamlarining modasini ham qiziqitirdi. Bu birlikda modada ikki yo'nalish qo'shilgandi.

70-80 yillarda yoshlarning agressivligi "qo'pol uslub" - "*pank*"ni yuzaga keltirgandi. Tuturuqsiz kiyimlar, sochlarini rang-barang bo'yoqlarga bo'yab qilingan prichyoskalar atrofdagilarni hijolatda qoldirardi.

Erkin vaqt o'tkazishga, dam olishga, sportga asoslangan 80-yillar modasi kiyimga erkinlik va shaxsiy ijodga imkoniyat yaratardi.

Nazorat savollari

1. Birinchi jahon urushni kostyumga qanday ta'siri bo'lgan?
2. II jahon urushni kostyumga qanday ta'siri bo'lgan?
3. Kristian Diorning 1947 yildagi kolleksiyasini nimaga Diorning bombasi deyishadi?
4. Yoshlar modasini rivojlanishi

Ma'ruza № 15 (2 soat).

Mavzu: O'RTA OSIYO ANTIK VA ILK FEODAL O'RTA ASR KOSTYUMI

Reja

1. O'rta Osiyo xalqlarining antik davri kostyum turlari.
2. Ilk O'rta asr davrining erkak va ayollar kostyum turlari, ularning bichimi, bezagi va ularda qo'llangan matolari.

Adabiyotlar

1. Хасанбоева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. Т.: 2002
2. Sodiqova N. «O'zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar». T: 2001.
3. Костюм народов Средней Азии (историко-этнографический очерк под ред. Сухаревой О.А.) М. "Наука", 1979 г.
4. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии.- М.: Искусство, 1982
5. Горелик М.В. Среднеазиатский мужской костюм на миниатюрах Мавераннахра в XV-XIX вв. В кн. Костюм народов Средней Азии. М.: - Наука, 1979.

6. Рахимова З.И. Среднеазиатский женский костюм на миниатюрах Мавераннахра в XVI-XVII вв. Т. : - Наука, 1990.
7. Хасанбоева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. Т.: 2002

1. Millodan avvalgi 2-ming yillikning oxiri - 1-yil-likning boshlarida O'rta Osiyoda yirik quldorlik davlatlari Baqtriya, So'g'd va Xorazm paydo bo'lgandi.

O'rta Osiyoning katta qismni millodan avvalgi VI-asrda Eron Ahmoniylari, ulardan so'ng millodan avvalgi 329-327 yillarida Iskandar Zulqarnayn qo'shinlari bosib olishi ham bu yerda quldorlikning yanada rivojlanishiga ta'sir etgan. Millodan avvalgi III-asr o'rtalarida O'rta Osiyoning g'arbida yirik quldorlik davlati - Parfiya vujudga kelgan. Ko'pgina yozma manbalarga ko'ra u hatto Rim imperiyasining ham xavfli raqibiga aylangan.

Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan qabartma suratlar, oltin va kumush idishlarga ishlangan bo'rtma manzaralar, turli xil tangalar fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi.

O'rta Osiyoda quldorlik madaniyati milloddan keyingi I-III asrlarda, ya'ni Kushon podshohligi davrida o'zining yeng yuksak davrini boshdan kechirgandi. Bu yuksalish, albatta o'z-o'zidan yuz bermay, uning bir qator omillari ham bordir. Bu hollar, dastavval sinfiy ziddiyatlarning keskinlashuvi, jamoaning yemirilishi, erkin jamoa a'zolarining haddan tashqari qashshoqlanishi bilan bog'liq bo'lgandi.

O'rta Osiyoda oramiy, yunon, forsiy yozuvlari keng tarqalgan. Ular moddiy va manaviy madaniyatning keyingi ravnaqiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.

Shu davrga taalluqli rasmlarda va xaykallarda yer va unumdorlik xudosi Anaxita, otliqlar, xayvonlar, hayoliy maxluqlar Shaki-Shamoyillarni ko'ramiz. Afrosiyob topilmalari orasida chakmon, uzun qo'njli etik, uchli bosh kiyim kiygan, bo'yniga qimmatbaho ma'danlardan bezaklar osib olgan haykalchalar diqqatimizni tortadi.

O'rta Osiyo va Eron xalqlarining qadimgi madaniy merosining asl durdonalaridan biri, bu muqaddas "*Avesto*" kitobidir. "*Avesto*" zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, bu din kurtaklari ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lgan. Zardo'shtiylik quldorlik va ilk feodalizm davrida O'rta Osiyoda asosiy diniy etiqod sifatida keng tarqalgan. Zardo'shtiylik bu o'lkalarda islom dini joriy etilgan ilk davrlarda ham bir necha yillar saqlanib qolgan. "*Avesto*" nafaqat diniy kitob, balki ko'p mamlakatlarning uzoq asrlardagi tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tili, yozuvi, badiiy madaniyatini o'rganishda ham buyuk manbadir.

Zardo'shtiylik mohiyati - ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, o'rtasidagi qarama-qarshilikka asoslangan.

Kushonlar imperiyasi davrida O'rta Osiyoga Hindistondan buddizm dini kirib kelgan. Imperiyaning madaniy markazlarida barpo etilgan budda ibodatxonalari o'sha zamon san'ati bilan bezalganligi bilan ajralib turadi. Buddizm Kushonlar davlati tomonidan mafkuraga aylangan bo'lsada, aslida bu din unchalik e'tibor topmadi.

Kushon podshohligi davrida mustahkam istehqom-shahar qurilishi keng rivojlangandi. Shaharlar qalin devorlar bilan o'ralgan, ularning ichida arkalar bo'lib, har xil binolar qad ko'targan. Sopol idishlar nihoyatda nafis, nozik va

xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Amaliy san'at keng taraqqiy etgan. Zeb-ziynat buyumlari, mehnat va jang qurollari va mato to'qish rivojlangandi.

Qadimiy O'rta Osiyo san'at yodgorliklari antik davri kiyimlarining turlari bilan tanishishga boy imkoniyat beradi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi yunonsimon, skifsimon va hindsimon bo'lgandi. Ular ichki va ustki; yelka, bel, bosh va oyoq kiyimlardan iborat edi.

Ayollar ko'ylagining ikki turi uchardi. *Birinchisi* - tunikasimon bichimli ko'kragi tagida va belida belbog' bilan bog'langan to'g'ri ko'ylak edi. Uning yoqa o'mizi dumaloq bo'lgan, oldi esa tomchisimon kesimli edi. Ko'ylakning *ikkinchi* turi *yunon xitoniga* o'xshash edi: ikki bo'y baravar mato parchasini yelkada to'g'nog'ich bilan biriktirishardi, etagining yon burchaklarini tugunga bog'lab qo'yishardi, antik yunon xitonlarda esa etagi erkin tushib, drapirovkalanardi. Bu ko'ylak belida va ko'kragini tagidan belbog' bilan bog'lanardi.

Ustki kiyimlari *skifsimon* kaftanlar va yopinchoqlar bo'lgan. Kaftan bichimi tunikasimon bo'lgan, shakli to'g'ri yoki gavdaga yopishib turadigan edi. Tor yengi uzun edi, ba'zan, ko'ndalang taxlamalilari ham uchardi. Kaftanlar tik yoki diagonal yo'nalishida qavilardi. Yoqa o'mizi va oldi to'qilgan tasma bilan bezatilgandi.

Ko'ylak yoki kaftan ustidan yopinchoq kiyishardi. Ular bo'y baravar to'g'ri to'rtburchak matodan qilinib, yelkaga tashlanardi, old uchlari esa to'g'nog'ich bilan biriktirilardi.

Bel kiyimi - uzun, etikka kirgizilgan ishtonlar edi. Ular ko'ylakning tagidan ko'rinishi mumkin edi.

Bosh kiyimlari konussimon namatdan qilingan qalpoqlar, yumshoq yassi shapkalar, sallasimon, tojsimon bosh kiyimlar va yopinchoqlar bo'lgan.

Prichyoskalari murakkab va xilma-xil bo'lgan. O'rilgan sochlar turli usulda turmalangandi.

Bezak taqinchoqlar: tojlar, ziraklar, tillaqoshlar, grivna va boshqalar bo'lgan.

Oyoq kiyimlari yumshoq etik edi, gohida, qo'njining tepa qismi qaytarilishi mumkin edi.

Erkaklar kostyumi. Ularni kiyimi ham yelka va bel; ustki va ichki kiyimlardan iborat.

Yelka kiyimi ichki ko'ylak va ustidan kiyiladigan kaftandan iborat. Ularning bichimi tunikasimon, Shakli to'g'ri edi. Kiyim gavdaga sal yopishib turardi. Uzunligi bo'ksasidan pastroq yoki tizzagacha edi. Uzun yengi tor yoki ko'ndalang taxlamali bo'lgan. Beliga belbog' bog'lashardi. Bel kiyimi tor yoki ko'ndalang taxlamali ishtonlardan iborat edi. Bosh kiyimlari yassi yoki konussimon qalpoqlar bo'lgan. Oyoq kiyimlari esa yumshoq, tepasi qaytarilgan etiklar edi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo antik kostyumiga skiflar, ellinlar va hindlarning ta'siri bo'lgan, ammo O'rta Osiyoliklarning kiyimlarining shaklida, kiyinish odatlarida, kiyim turlarida mahalliy odatlariga oid xususiyatlari bo'lgan va juda keng va boy tarixga ega bo'lgan.

2. O'zbekiston xududida quldorlik munosabatlarining ilk feodal munosabatlariga o'sib o'tishi uchun zarur shart-sharoitlarning etilishi III-V

asrlarga to'g'ri keladi. VI-IX asrlar davomida ilk feodal jamiyati bu hududda uzl-kesil qaror topdi.

VI asrda hozirgi Oltoy o'lkasi xududida ko'chmanchi turk qabilalarining birlashuvi natijasida turk xoqonligi tashkil topdi. VI asrning 80-yillariga kelib Turk xoqonligi Sharqiy va G'arbiy qismlarga ajralib ketdi. Bunday vaziyatdan arab istilochilari foydalanib qoldilar.

VII asr boshlarida Arabiston ijtimoiy-siyosiy kuchlari yangi din - *islom* g'oyasi bayrog'i ostida qisqa muddat ichida o'z mavqelarini mustahkamladilar. Butun Arabiston, Old Osiyo, Eron xududlari arablar tomonidan bosib olinib, u yerlardagi xalqlar majburan islom diniga buysundirildilar.

VIII asr boshlaridan e'tiboran arab bosqinchilarining asosiy diqqati O'rta Osiyo yerlariga qaratildi va u yerlarni ishg'ol qildilar.

Ilk O'rta asr rassomchilik uslubi nozik, kompozitsiyasi dinamik kuchlarga to'la, qatnashuvchilarning harakatlari va holatlari plastikli, odamlarni siymolari imkon boricha tipiklashtirilgand bo'lgan. Devoriy tasvir va koroplastika san'ati O'rta Osiyo matolari va kostyumi to'g'risida boy ma'lumot beradi. Ularning tahlili bu davrda to'qimachilik san'atini yuqori darajaga erishganligini ko'rsatadi. Tog'li joylarda jun, vodiylarda - ipak va ip matolar qo'llanardi. Ular asosan organik bo'yoqlarga bo'yalardi. Bir yoki ko'p rangli ipaklar, sidirg'a yoki naqshli ip gazmollar, zar qo'shib to'qilgan matolar kiyimlarda qo'llanardi. Naqshlari to'qima, bosma yoki tuguncha usulida qilinardi. Naqshda asosan geometrik, o'simlik, hayvoniy, fantastik mavzulari uchrardi. Naqsh kompozitsiyasi ikki - uch yoki to'rt rangli bo'lgan. Rang gammasi qizil, sariq, yashil, oq, qora edi.

O'rta Osiyo gazmol markazlarida "*zandanachi*" kabi ko'k rangli ipak va boshqa matolarni ishlab chiqarilishi, yopishtirma yassi, g'ilof kiyimlarni paydo bo'lishiga olib keldi. Kiyimning kompozitsion markazi mato bo'lgandi.

Erkaklar kuchli, baqaloq, yumaloq yuzli, bodomsimon ko'zli, kalta qirrilgan sochli, soqolsiz tasvirlangan. Ularning kiyimi otga minib yurishga mos bo'lib, quyidagilardan iborat edi: kalta kaftan va ko'ylaklar, keng ishtonlar va baland qo'njli etiklar. Yelka kiyimida trapetsiya shaklli tunikasimon bichim yon qiyiqlar yordamida, qiyiqlar qo'ltig'idan yoki belidan tikilishi mumkin edi, hosil qilinardi. Ishton bichimi uch bo'lakdan, ya'ni ikkita poycha va bitta og'dan, iborat edi.

Bu davrda ideal ayol gavdasini mag'rur tutardi. U to'ladan kelgan, keng yuzli; nazokatli; qoshlari yoysimon, to'g'ri farq qilib ochilgan silliq uzun sochli; to'g'ri burunli, kichkina og'izli va nozik qo'lli bo'lgandi. Ayollarning kiyimi erkaklar kiyimi kompleksiga o'xshash edi: ko'ylaklar, kaftanlar, bir tomonlama qaytarmali yopinchoqlar va ishtonlar edi.

Ulardan tashqari shleyfli uzun ko'ylak, kofta, yubka va po'stinlar ham kiyishardi. Ustki kiyimlarini, kaftan, yopinchoq va po'stin, uzunligi tizzagacha bo'lgandi. Yelka kiyimning yoqasi, etagi, oldi, yengning uchi boshqa rangli matodan qilingan hoshiya bilan bezatilardi.

Erkaklar kostyumida avvalgi davrning kiyimlari qatorida, ikki tomonlama qaytarmali turk kaftanlari keng tarqalgandi. Kaftan gavdasiga yopishib turardi, uzunligi esa bo'ksasigacha bo'lib, yon kesimi bo'lmagandi. Dekorativ mato bilan

faqat yoqasi va yeng uchi bezatilardi. Ustki kiyim - yopinchoq - ham ikki tomonlama qaytarmali bo'lgan. Bu davrda etiklari ham nozik bo'lgan.

VII asrning oxirida - VIII asrning boshlarida O'rta Osiyo xalqlari kostyumining bichimi murakkablashgandi. Kiyim tanaga yopishib turishiga qulaylik beradigan o'tqazma yengli kiyim paydo bo'ldi. Kaftan va yopinchoqlarning bezagida kushonlar tunikasimon ko'ylagining bezaklarining ta'siri sezilardi. Yopinchoqlarda rang-barang matodan qilingan hoshiyali qiyiqlar paydo bo'lgan; ularning etaklar va yoqalarning bezagi ham o'zgargandi.

Kiyimlarning uzunligi endi tizzadan pastda joylashgan. Tunikasimon bichim ham o'zgargan: yenglari yelkadan sal pastroq tikilardi va yelka choklari dekorativ mato bilan bezatilgandi.

Erkaklar va ayollar kostyumida taqinchoqlar muhim rol o'ynagan. Ular Shaxsning ijtimoiy xolini ko'rsatardi. Ayol va erkaklar zirak, qo'l va oyoq bilaguzuklarni, marjonlarni, ko'krak osilchoqlarni va kamarlarni taqishardi. Toxaristonda faqat erkak va ayol xizmatchilar belbog' kiyishardi, aslzoda ayollar esa belini bog'lamasdi.

Nazorat savollari

1. O'rta Osiyo xalqlarining antik va ilk O'rta asr davrlarda tarixiy tag'diri qanday bo'lgan?
2. O'rta Osiyo san'atining shakllanishiga g'aysi xalqlar san'ati o'z ta'sirini o'tkazdi?
3. Erkaklar va ayollar antik kostyum turlari.
4. Erkaklar va ayollar ilk o'rta asr kostyum turlari, ularning bichimlari, bezaklari va ularda qo'llangan matolari.

Ma'ruza № 16 (2 soat).

Mavzu: O'RTA OSIYO KECH O'RTA ASR KOSTYUMI

Reja

1. O'rta Osiyo kech o'rta asrlar erkaklar kostyum turlari
2. O'rta Osiyo kech o'rta asrlar ayollar kostyum turlari

Adabiyotlar

1. Хасанбоева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. Т.: 2002
2. Sodiqova N. «O'zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar». T: 2001.
3. Костюм народов Средней Азии (историко-этнографический очерк под ред. Сухаревой О.А.) М. "Наука", 1979 г.
4. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии.- М.: Искусство, 1982

5. Горелик М.В. Среднеазиатский мужской костюм на миниатюрах Мавераннахр в XV-XIX вв. В кн. Костюм народов Средней Азии. М.: - Наука, 1979.
6. Рахимова З.И. Среднеазиатский женский костюм на миниатюрах Мавераннахр в XVI-XVII вв. Т. : - Наука, 1990.
7. Хасанбоева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. Т.: 2002

1. O'rta Osiyo kech O'rta asr davrining miniatyurachi rassomlari san'atda boy meros qoldirgan edilar. Kamoliddin Behzod, Muhammad Chagri, Muassin Abdullo, Muhammad Murod Samarqandiy kabi rassomlar shu davrdagi aholining barcha tabaqalarini, turmush tarzini, tashqi ko'rinishi, kiyishgan liboslarini yuksak mahorat bilan tasvirlashgan, ammo kostyum bilan miniatyura orqali tanishganda tasvirlarning shartliligiga ahamiyat berish kerak. Matolarning rangi aslida va rasmda har xil bo'lishi mumkin, chunki rasm va matoni bo'yash uchun bo'yoqlar har xil bo'lgan.

Miniatyuralarga ko'ra O'rta Osiyo kiyimda asosan sidirg'a oq, zangori, binafsha, kul va jigar ranglar uchragandi. Naqshli matolar juda kam qo'llangandi, yo'l-yo'l matolar asosan hind va eronliklarniki edi. O'rta Osiyoda faqat XVIII asr oxirida ular kiyimda qo'llangandi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar libosi ustki va ichki, yelka va bel kiyimlardan iborat edi.

Ustki yelka kiyimlari turli chopon va chakmonlardan iborat bo'lgan. Eng keng tarqalgan kiyim - oldi ochiq chopon edi. Ularning bichimi bir xil - tunikasimon - bo'lib, detallari, bezagi, matosi va kiyish usuli bilan farqlanardi. Oldi ochiq kiyimlar kalta va uzun yengli yoki yengsiz bo'lardi. Ular tunikasimon bichimli bo'lgan holda, orqa bo'lagining O'rtasida yoqa o'mizidan beligacha vitochka qilinardi va shuning yordamida kiyim gavdaga yopishib turardi. Odam xarakatiga qulay bo'lishi uchun, yon choklarining pastida kesik qoldirilardi. Choponlar qaytarma va tik yoqali yoki yoqasiz bo'lardi. Yoqalar va qaytarmalar boshqa rangli matodan qilinardi. Aslzodalarning kiyimida mo'yna yoqalar ham uchrardi. Yoqalarning shakli asosan trapetsiyasimon bo'lgan. Odatda yoqalar qora rangli qilinardi, Buxoroda esa XVI asrda zarbof kashta qilinardi.

Choponlar astarli edi. Astarining matosi va uning rangi boshqa bo'lardi. Mo'yna astarli, mo'yna shol yoqali, bo'yi va yengi juda uzun *chopon* "*faradji*" deb atalardi. Uning yengida qo'lini chiqazish uchun kesik qilinardi.

Ko'pincha choponlar izma va tugmalar yoki bog'ichlar yordamida tugmalanardi. Tugmalar asosan boylarning kiyimida uchragan. Tugmalar bu kiyim turida XIX asrda yo'qolgandi.

Uzun yengli choponlar, ko'pincha, belbog'siz kiyilardi. Ishlagan paytda va dafn marosimida belbog'ni albatta kiyishardi.

Kalta yengli chopon "*koba*"ning bir necha turi uchragan. Yeng uzunligi bilagining o'rtasigacha bo'lsa, choponning etagi kengaytirilib, ziyiga qavilgan mag'iz qilishardi. XV asrda shu turdagi choponda belidan pastgacha ikki yon kesim bo'lgan va ba'zan, orqasida ham kesim uchrardi. Keyinroq orqa kesim kiyimlarda qilinmaydigan bo'ldi.

Koba uzun yengli *joma* yoki faradjiga nisbatan kaltaroq edi. Uning uzunligi tizzagacha yoki boldirning o'rtasigacha bo'lgan, ba'zan, qariyalar, aslzodalar va saroy xizmatkorlarida uzunroqlari ham uchragandi.

Choponlar trapetsiyasimon qaytarma yoqali va oldi qaytarmali edi. Ular boshqa rangli matodan qilinardi.

Bu davrda mo'g'ullar olib kelgan yengsiz, keng yelkali choponlar ham bo'lgan. O'ziga xos oldi ochiq kiyimni turi - *asimmetrik tugmalanadigan chopon* "*jubba*" bo'lgan. Bu kiyim aslzodalarda, askarlarda, ko'chmanchilarda va ba'zan, shaharliklarda uchrardi. Ushbu kiyim turi ko'chmanchilar, mo'g'ul va turk odatlari bilan bog'liq. Shunga e'tibor berish kerak: turklarning kiyimi o'ngdan chapga, mo'g'ullarniki esa - chapdan o'ngga o'raladi.

Ustki kiyimning ostidan har xil ko'ylaklar kiyishgan. Ko'pincha baravar ustima-usti ikkitasini kiyishardi. Ichki ko'ylagi "*perohan*" yupqa oq matodan, *ustkisi* "*peshvoz*" esa - zangori, ko'k, yashil va jigar rangli matolardan qilinardi. Ko'ylakning yengi keng va uzun bo'lgan. Yoqa o'mizi tor, chuqur, ovalsimon yoki berk, qornigacha vertikal kesimi bo'lishi mumkin edi. Yoqa o'mizining ziyiga qavilgan hoshiya qilishgandi, ba'zan uni tugmalashardi.

Ustki ko'ylakning uzunligi tizzagacha bo'lgan, ichki ko'ylagi esa uzunroq, boldirining o'rtasigacha yoki to'pig'igacha edi, xizmatkorlarniki - tizzagacha bo'lgan. Ko'ylaklarni erkaklar faqat uyda kiyishardi.

Miniatyurada tasvirlangan ishtonlarning bichimi ikki alohida poychadan va og'dan iborat bo'lgan. Ishton shaklining tepa tomoni keng bo'lib, pastga toraygandi. Ishton belda popukli tasma yordamida mustahkamlanardi. Ko'pincha ishtonlar sidirg'a oq, ko'k va jigar rangli bo'lgan, yo'l-yo'l matolari ham uchrardi. Turk kiyimi ta'sirida ishtonlar shalvarsimon keng bo'lgan va qizil, to'q sariq va to'q qizil rangli bo'lgan. Ishtonni yelka kiyimning ostidan kiyishardi. Boylar ov qilgan paytda poychasi keng ishtonlariga ustki kiyimini kirgizishardi.

Erkaklar kiyimida bir necha qo'shimcha detallari bo'lgan. Olimlar, ilohiyot mutaxassislari va so'filarda *yelka sharfi* "*taylason*" bo'lgan. Taylason, musulmon Sharqda eskidan qolgan, ushbu tabaqalarning an'anaviy kostyum belgisi bo'lgan. U yelkaga tashlanardi yoki uchlari ko'krakda tugunga bog'lanardi; so'filar va imomlar esa - bosh kiyimini ustiga tashlashardi. XV-XVI asrlarda taylason futaga o'xshagan qilinardi. XVI asrni O'rtasidan boshlab ular tor yoki keng, qora va jigar rang, uchi ko'pincha oq hoshiyali qilinardi.

Oldin aytilganday, erkaklar ustki kiyimini belbog' bilan bog'lashardi. Boylar va aslzodalarning belbog'i keng, kambag'allarniki - ingichka bo'lgan va ba'zan, oddiy tasmadan bo'lgan.

Bosh kiyimlarining turlari har xil bo'lgan. XV-XVIII asrlarning miniatyuralariga binoan har xil shaklli matodan tikilgan *telpaklar* edi. Uni aholining barcha tabaqalari uyda va ko'chada kiyishgan.

Namatdan qilingan qalpoqlar ham keng tarqalgan. XV - XIX asrlarda ularni asosan hunarmandlar, ovchilar, xizmatkorlar va tog'li aholi kiygan. Ular an'anaviy, dumaloq shaklli bo'lib, turk qalpog'i ta'sirida shakli konussimon bo'lgandi.

Salla - O'rta Osiyoda asosiy bosh kiyim deb hisoblanardi. Uni aqliy mehnat bilan shug'ullangan aholining barcha tabaqalari kiyishgan. *Salla* - rasmiy va tantana bosh kiyim deb hisoblanardi.

Erkaklar oyoq kiyimlari etiklar va kavushlar bo'lgan.

Ayollar kostyumi. Miniaturadagi tasvirlarga ko'ra ayollar kostyumining nomlari, turlari, shakli, bichimi, bezagi erkaklarnikiga o'xshash bo'lgan.

Ichki kiyim tunikasimon bichimli, uzun yengli oq *ko'ylak* "*kurta*" edi. Uning yoqa o'mizi gorizontal yoki chuqur vertikal bo'lgan. Bu ko'ylakning orqa va yon choklari bo'lgan. Ichki ko'ylak ustidan boshqa rangli, tunikasimon bichimli *ko'ylak* "*piroxan*"ni kiyishgan. Piroxan uzun yoki kalta yengli bo'lib, ichki ko'ylagidan kaltaroq, tizzagacha edi va beliga yopishib turardi.

Ichki bel kiyimi *ishton* "*ezor*" bo'lgan. Uning uzunligi to'pig'igacha bo'lib, ba'zan, etik yoki mahsining ichiga kirgizilardi.

Ayollarning ustki kiyimi joma, koba, faradji, mursak, yopinchoq va kaltachadan iborat edi. Ko'ylaklar ustidan oldi ochiq kiyim kobani kiyishgan. Uning yengi uzun, qo'lidan uzunroq, yoki kalta, tirsagigacha bo'lardi.

Chopon joma ob-havodan saqlardi. Ipak yoki kimxobdan qilingan, uzunligi yergacha, juda uzun yengli, etagigacha, bashang chopon faradjini tantanali marosimlarga kiyishgandi. Uni yelkasiga tashlab yurishardi yoki bitta qo'lga kiyib yelkasiga tashlashardi.

Ulardan tashqari miniatyuralarda ustki kiyim sifatida kalta, oldi ochiq, uzun yoki kalta yengli kiyim "*kaltacha*" tasvirlangan.

Koba, joma, faradji va kaltachaning astari boshqa rangli matodan qilinardi. Aslzodalar ustki kiyimining astari ipakdan, faradjida esa - olmaxon, tulki va suvsar mo'ynasidan qilinardi.

Erkaklarda yo'q, ayollarning o'ziga xos ustki choponi - "*mursak*", *munisak*, edi. Uning old yoqa o'mizi chuqur qilinardi; qo'ltig'ining ostida yonlari ser burmalanardi, yenglari keng edi, bichimi tunikasimon bo'lgan. Shunday choponni O'rta Osiyoda XIX asrgacha kiyishgan, XX asrda esa u dafn marosimiga kiyiladigan kiyimga aylandi. Miniaturalarda mursak kobani ustidan kiyilgan.

Ayollarning o'ziga xos kiyimlarining ikkinchi turi yopinchoqlar va paranjilar bo'lgan.

XVII asrning ikkinchi yarmida miniatyura tasvirlarida *paranji* tasvirlangan. U yuqorida ta'riflangan chopon faradji edi, ammo paranjida uzunligi ko'kragigacha, ot qilidan yasalgan to'r "*chashmband*" bilan ayolning yuzi berkitilgandi.

O'rta Osiyo ayollari kiyimining beli bog'lanmasdi.

Bosh kiyimlari ro'mol, mo'yna bilan chekkasi bezalgan do'ppisimon qalpoqlar, peshonabandlar va boshqalar bo'lgan. Peshonaband eshilgan ro'moldan yoki yupqa oq tasmadan qilingan. Buxoroda u naqshli kashta yoki qimmatbaho to'shlar bilan bezatilardi. Peshonabandning ustidan ro'mol o'rashardi.

Sochlari harakat qilganda oldiga tushmasligi uchun ro'mol ostidan boshiga *sochpopuk* "*kulyuta*" yoki "*chochkap*" kiyishardi. Hozirgi zamonda ular qirg'iz va qozoqlarda saqlanib qolgan.

Qari ayollar qozoqlarnikiga o'xshash bosh kiyim "*kimishek*" kiyishgan.

Motam marosimida bosh yalang bo'lishgan.

Malikalar, xonlarning xotinlari, xon avlodlari toj kiyishardi. Erkak va ayol tojlari o'zaro farqlanardi.

XVI asrda Buxoro ayollari zar ipli doka ro'molning ustidan tillaqosh taqishgan.

Ayollar sochini berkitib yurishardi, qizlar esa sochini ikkitaga o'rib, uchiga *pilik* yoki *soch popuklar* o'rashardi. Samarqandda qizlar sochini mayda o'rishardi.

Miniatyuralarda zargarlik buyumlari kam tasvirlangan, chunki ular kiyimning ostida bo'lgan. Yozuv ma'lumotlari bo'yicha va tasvirlarga qaraganda zargarlik buyumlari quyidagilar bo'lgan: *zebigardon*, *xaykal*, *tumorlar*, *ziraklar*, *uzuklar*, *bilaguzuklar*, *buloqlar*. Shu narsaga e'tibor berish kerak, ular motam marosimlarida taqinchoqlarini yechmasdi.

Ayollar kostyumini oyoq kiyim yakunlaydi. Miniatyuralarda yosh ayollar va qizlar etik "*maxsi*", yarim etik "*nim-chakme*", baland qo'njli poshnali etik "*chakme*" va charm tufli "*kavush*"da tasvirlangan. Buxoroda etikning qo'nji kashtalanardi. Poyafzal asosan qora va ba'zan oq va sariq rangli bo'lgan. Qari ayollar qora, uchi uchli kavushlarni yalang oyoqqa kiyishgan, yoshlar esa etikni ustidan kiyishardi.

Nazorat savollari

1. O'rta Osiyo Renessans davr va san'at tavsifi
2. O'rta Osiyo xalqlarining erkaklar yelka kiyim turlari.
3. O'rta Osiyo xalqlarining ayollar ustki yelka kiyim turlari.
4. Ijtimoiy tabaqalar kostyumda qanday namoyon bo'lgan?

Ma'ruza № 17 (2 soat).

Mavzu: XIX-XX asr boshidagi o'zbek kostyumi

Reja

1. O'zbekiston badiiy gazmollari
2. XIX - XX asr boshidagi o'zbek ayollari kostyumi
3. XIX - XX asr boshidagi o'zbek erkaklari kostyumi

Adabiyotlar

1. Sodiqova N. «O'zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar». T: 2001.
2. Абдуллаев Т.А., Хасанова С.А. "Одежда узбеков" Т."Фан", 1978 г.
3. Костюм народов Средней Азии (историко-этнографический очерк под ред. Сухаревой О.А.) М. "Наука", 1979 г.
4. Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. М. "Наука", 1989 г.

5. Фахретдинова Д.А. "Декоративно-прикладное искусство Узбекистана" Т. Издательство Литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1981 г.

6. Ундерова Л.В. К характеристике узбекского костюма XIX века. "Общественные науки в Узбекистане", №6, 1985 г.

7. Пугаченкова Г.А. К истории костюма Средней Азии и Ирана XV-первой половины XVI-века по данным книжной миниатюры. Труды САГУ, вып. XXXI.

8. Xasanboeva G.K. To'qimachilik dizayn tarixi. - T.: O'zbekiston, 2007.

1. XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xududida xonliklar o'rtasidagi to'xtovsiz urushlar har bir xonlikning o'zida doimiy ichki nizolarga, vaxshiyona talon-tarojlarga, vayronagarchiliklarga olib keldi, mamlakat xo'jalik va madaniy hayotini qattiq mayib qildi. O'rta Osiyoning rus chorizmi tomonidan bosib olinishini osonlashtirdi.

O'rta Osiyo xalqlarining ko'p asrlik boy tarixida XIX asrning ikkinchi yarmida uning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi eng muhim voqea sifatida alohida o'rin tutadi. Asosan zo'ravonlik usullari bilan amalga oshirilgan bu istilochilik jarohatlari uzoq vaqtlargacha azob berib kelgan bo'lsa ham, ma'lum taraqqiy parvarlik hususiyatiga ega edi. O'rta Osiyo xalqlari tarixida yangi sahifalar ochildi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida, aholi turmushida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi.

O'zbekiston to'qimachilik san'ati va dekorativ amaliy san'ati ham keng rivojlangandi. An'anaviy o'zbek shoyilari, *kaunas*, *shoyi*, *xonatlas*, *nimshoyilar*, *beqasam*, *banoras*, *parpasha*, *adras*, Buxoro, Samarqand, Namangan va boshqa shaharlarda ishlab chiqariladi. O'rta Osiyo aslzodalari shu gazmollardan kiyim kiyishardi. Kambag'al aholining kiyimi asosan ip matolardan, *bo'z*, *olacha*, *susi*, *janda*, bo'lardi.

O'rta Osiyoni chor Rossiyasi bosib olgandan keyin fabrikalarda ishlab chiqarilgan matolar, *chit*, *satin* va b. keng tarqalgandi. Aslzodalar kiyimida Fransiya va Rossiyada ishlab chiqarilgan naqshli shoyi gazmollar - *baxmallar*, *kimxoblar*, *kundalar*, *farangilar* va *atlaslar* qo'llanardi. Ulardan tashqari jun matosi *movut* ham erkaklar ustki kiyimida keng qo'llangan.

2. **Ayollar kiyimi.** Qadimdan ayollarning an'anaviy ichki kiyimi tunikasimon ko'ylak va lozimdan iborat edi. Ko'ylakning shakli to'g'ri, ba'zan etagi kengaygan bo'lib, uzunligi to'pig'i gacha edi. Qizlar ko'ylagida yoqa o'mizi ko'ndalang qilinib, chetlari boshqa rangdagi mato yoki tasma bilan tikib chiqilardi va o'sha matodan tayyorlangan tasma bilan bog'lanardi yoki bitta tugma bilan qadab qo'yilardi. Turmushga chiqqan ayollar esa vertikal kesimli ko'ylaklarni kiyishardi. Kesim ko'kragini o'rtasidan uzunligi taxminan 25 sm qilinib, tasmalar bilan bog'lanar, bitta tugma yoki to'g'nag'ich bilan qadalardi. Buxoro va Samarqand viloyatlarida ayollar kiyimida yoqa o'mizining chetlari zarbob tasma "*peshkurta*" va kashta bilan bezatilgan. Yoqa o'mizi bu yerlarda juda uzun, etagiga sal yetmas edi, qilinardi. Ko'ylaklar juda keng bo'lgan, uning yenglari esa juda keng va uzun bo'lib, kaftni berkitib turgan. Yenglari ba'zan, boshqa

qimmatbaho matodan qilinardi yoki kashta bilan bezatilardi. Ayollar qo'lini ko'ksiga qo'yib yurishardi va shu bois yengining go'zalligi to'liq ko'rinardi.

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin tik yoqalar paydo bo'la boshladi. Ularni keyinchalik plissirovkalik "*par-para*" bilan bezatishadigan bo'ldi. Turkiston o'lkasida avval shaharlarda, so'ngra qishloqlarda, odatda vertikal qirqimli qopqoq bilan berkitilgan, baland *tik yoqa* kirib kela boshladi. Bu yoqani "*it yoqa*", "*no'g'oy yoqa*", zarafshon vodiysida "*qozoqi yoqa*" deb atashardi.

Yosh ayollar birinchi farzand tug'ilganicha uchlari yuqoriga qaragan ko'pgina uchburchak ko'rinishda "*tishchalar*" yoki plissirovka bilan bezalgan *par-para* tik yoqali ko'ylaklarni kiyishgan. Shunday tik yoqa o'zbek va tojik ayollarning ko'ylaklari uchun xos edi.

XIX asrning oxirlarida qirqilgan koketkali ko'ylak- *ko'krakburma ko'ylak* paydo bo'ldi. Bu ko'ylak asr davomida tunikasimon bichimning rivojlanishi natijasida kelib chiqdi. Ko'ylak ser burmalangan gavda qismi, yelkasi qiya bichilgan koketka, o'tqazma yeng va yoqa qismlardan iborat. Ushbu ko'ylak keyinchalik ayollar garderbida barqaror o'mashib qolib, ayollar milliy kostyumning asosi bo'lib qoldi.

Shular qatorida, tunikasimon bichimli, tik yoqali va yenglari manjetli ko'ylaklar ham keng tarqalgandi. Katta yoshdagi ayollar vertikal kesimli yoki plissirovkasiz tik yoqali ko'ylaklarni kiyishni davom etishgan.

Shu davrda uzun, uchi tor yengli ko'ylaklarni kiyishgan, ularga tirsak va bilak orasida ingichka, kashtalangan tasmalar tikishgan. Ilgarilari bu tasma o'rtasida kesim qirqilib, undan ishlagan paytlarida qo'llarini chiqarib qo'yar edilar, yeng uchini esa shimarib qo'yishardi. Bunday ko'ylaklar asosan Xorazmda qayd etilgan. Xozirgi paytda kashtalangan tasma tikilib, kesim qilinmaydi u dekorativ bezagi bo'lib qolgan.

Uy ichida bitta va sovuq kunlarda ikkita ko'ylak kiyilardi. Bayram kunlari aholining taniqli, boy tabaqalaridan bo'lgan ayollar ustma-ust uchta ko'ylakni kiyishardi. Bunda uchala ko'ylakning yenglari bir xil kenglikda, lekin har xil uzunlikda bo'lib, birin-ketin biri ko'rinib turardi, yeng uchlari esa kashta bilan tikib chiqilgandi. Agarda yana ham boyliklarini ko'rsatmoqchi bo'lsalar, o'zlari bilan bir necha ko'ylakni olib, mehmonga kelgandan so'ng, vaqti-vaqti bilan almashtirishar edilar. Buxoro va Samarqandda badavlat odamlar orasida ko'ylaklarning soni ettitagacha yetardi. Kiyimning serobligi bilan libosning egasi boyligini ko'rsatishni hohlardi. Buni faqat yosh kelinlar to'ylaridan keyingi dastlabki kunlarda kiyishar edilar.

Ba'zan, ustki ko'ylak ostidan ichki ko'ylak kiyishgan. Ular oq ip matodan qilinardi.

Ko'ylaklarning uzunligi turlicha bo'lgan. Keksa ayollar uzunligi yergacha etadigan, yoshlar - kaltaroq ko'ylaklarni kiyishgandi.

Xorazmda qizlar va yosh ayollar ola chipor matodan tikilgan ko'ylaklarni tikishardi.

O'tgan asrning oxirida ayollar ko'ylaklari ola chipor chitlardan, o'ziga to'q oilalarda esa qizil shoyidan tikilardi. Qirq yoshlardagi ayollar odmiroq, ya'ni ko'k,

zangori, yashil, binafsha rangdagi ko'ylaklarni ma'qul ko'rishardi. Keksa ayollar mahalliy ishlab chiqarilgan oq ip gazlama - bo'z yoki yashil qora mayda xolli va gulli chitdan tikilgan ko'ylaklarni kiyishardi. Boy oilalarda kelinning nikoh ko'ylagi mahalliy ishlab chiqilgan yoki Qo'qon, Buxorodan yoki O'rta Osiyoning boshqa shoyi to'quv markazlaridan keltirilgan shoyilardan tikilardi. Ba'zan, mablag'i yetishmagan oilalarda esa chopon ostidan ko'rinmaydigan ko'ylak bo'laklari boshqa, arzonroq mato, masalan chitdan, qilinardi.

Ayollar kostyumining ikkinchi asosiy qismi - *lozim*. Lozim beldan yuqori qismida o'tqazilgan ishton bog' yordamida ushlab turiladi. Odatda lozimlarni ikki xil matodan: pastki qismini, ya'ni ko'ylakdan ko'rinadigan qismini, ancha qimmat va chiroyli matolardan, yuqori qismini esa, taxminan bo'ksa o'rtasidan beligacha qismini, arzonroq va oddiyroq matodan tikilardi. Ishtonni uchi to'qilgan va kashta qilingan tor tasma "*jiyak*" bilan bezalgan, uning uchlari popukni hosil qilardi. Lozimning uzunligi va kengligi turlicha bo'lgan. Shaharlarda, shahar atroflarida va qishloqlarda asosan uzun lozim kiyishardi.

O'rta Osiyo xalqlariga oid ayollarning ishton bichimi odatdagicha bo'lib, erkaklar ishton bichimiga o'xshash edi. Ishtonlar uzun, asosan, to'pig'igacha bo'lgan. Tepa qismi keng, pastki esa toraygan ishton poylarining orasiga oq tikilardi. Katta romb, kvadrat va uchburchak shaklidagi oq qadam tashlaganda ishtonni kengaytirardi va yurishga hamda otga minib yurishga xalaqit bermasdi.

Qizlar va yosh ayollar mahalliy ishlab chiqilgan oq yo'l-yo'l yoki gulli matodan, kekxa ayollar - asosan oq matodan ishton kiyishardi. Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan matolari O'rta Osiyoga olib kelingandan keyin ular keng qo'llanadigan bo'ldi, chunki ular mahalliy matolardan arzonroq bo'lgan.

Ayollar ustki kiyimiga qavilgan paxtali choponlar kiradi. Ular erkaklar choponidan birmuncha farqlanib, tunikasimon bichimli edi. Ayollar choponlarining yoqa o'mizlari ochiq va keng bo'lgan, ular bahyalanmagan, adipi bir biriga kirmagandi. Erkaklar choponiga qaraganda yenglari bir muncha kaltaroq va kengroq bo'lgan. Xorazmliklarning paxta choponlari o'ziga yarasha juda qiziqarli edi. Qo'lda qavish o'rniga, ular hiylagina mashinada qavishgan. Bilak qismida esa qo'l uchun kesim qilinib, ish qilayotgan paytda iflos bo'lmasligi va xalaqit bermasligi uchun qadalib qo'yilardi.

Paxtali choponlardan tashqari yozda qishloq, asosan Zarafshon vodiysi ayollari, astarsiz chopon "*delegay*"ni kiyishgan. Buxoro va Samarqand viloyatlarida ustki kiyim sifatida yengli, beliga sal yopishib turib, pastiga qarab kengaygan, astarli chopon "*rimcha*"ni kiyar edilar. Rumchaning o'taqazma tor yenglarini uzunligi bilagigacha edi.

Ayollarning mahsus ustki kiyimi bo'lgan chopon "mursak" O'zbekistonda keng tarqalgandi. U Toshkentda - mursak, Samarqandda - munisak, kaltacha, Farg'onada - munisak, munsak, Buxoro va Shaxrisabzda - kaltacha deb ataladi.

Mursak yoniga tikiladigan qiyiqlar yordamida kengayardi, yonlarida esa yeng ostidan ser mayda burmalar qilinardi, etagining yonlarida kesimlar qilinardi. Mursaklar astarli qilinib, qavilardi, qishki mursakka esa yupqa qatlam paxta qo'yilardi.

XIX asr ikkinchi yarmigacha Toshkentda oddiy choponga nisbatan mursak yenglari bir muncha kalta bo'lgan. Keyinchalik mursakning yenglari tirsakkacha qilinib, "tirsak yeng" deb atalardi va uning ostidan ko'ylakning uzun yenglari chiqib turardi.

Samarqandda mursakning tor yenglari qo'lning kaftigacha yetardi; Buxoro va Qashqadaryoda esa yenglari keng bo'lib, tirsakdan tushib turardi, uning ostidan ko'ylak yenglari chiqib turardi. Xorazmda oddiy chopondan mursak faqat yengining shakli bilan farqlanardi, yengi uchiga qarab toraygandi.

XIX asr mobaynida mursak odatdagi bashang kiyim bo'lgan; XX asrni boshlarida uni belbog' bilan bog'lab, faqat dafn marosimlarida kiyishadigan bo'ldi, ammo Samarqandda katta yoshli ayollar mursakni belbog'siz mehmonga yoki to'yga borganda kiyishgan. XX asr boshida Toshkentda mursak kiyilmagandi, biroq u har bir oilada bo'lishi shart edi, chunki u bilan o'lgan ayolning ustini yopishardi.

Rossiyadan O'rta Osiyoga kiyimning yangi turi - "*kamzol*", *kamzur*, *kamzul*, *peshmet* kirib kela boshladi. Bu beliga sal yopishib turgan, kalta va tor o'tqazma yengli, qaytarma yoqali, yonlarida va ko'kragida cho'ntak qilingan ustki kiyim bo'lgan. Ko'pincha kamzollarni tovlanib turuvchi yo'l-yo'l beqasamdan yoki rangli duxoba, baxmal va olib keltirilgan matolardan tikilardi.

Shu davrda kalta yengsiz kiyim "*nimcha*", Toshkentda, va "*kamzur*", Farg'ona vodiya, paydo bo'lgandi. Uni kamzul ostidan yoki ko'ylak ustidan kiyishardi. Nimchani to'q baxmal yoki duxobadan tikishardi, Qizlarniki esa - qora satindan qilinib, etagida kashta tikilardi. Nimcha milliy kostyumning zarur qismlaridan biri bo'ldi.

Shaharlik va boy qishloq ayollari paranjini kiyishardi. U katta va keng chopon bo'lgan, uzun va tor soxta yenglari "*sochvoq*" orqaga tashlanib uchlari bir biri bilan biriktirilgandi. Paranji ayolni jussasini boshidan tovonigacha berkitib turardi, yuzini to'g'ri to'rt burchakli ot qilidan to'qilgan "*chachvon*", "*chimbati*", bilan berkitishardi. Chachvonning chegaralari qora mato bilan tikilardi, ba'zan u zanjir kashta bilan yoki mashinada tikilgan naqsh bilan bezatilardi. Chachvonga esa ko'z tegmaslik maqsadida rangli ko'zmunchoqlarni tikib qo'yishardi.

Paranji so'zi "faradji" so'zidan kelib chiqqan. Fors tilidan tarjima qilganda "faradji" so'zi ko'ylak ma'nosini bildiradi. Faradji Misrda paydo bo'lib Sharq mamlakatlarga tarqalgan. O'rta Osiyoda Shayboniylar davrida XVI asr, faradjini olimlar kiyishgan. Hindistonda va O'rta Osiyoda Temuriy va Bobur davrlarida faradjini olimlar, aslzodalar, davlat amaldorlari va ruhoniylar kiyishgan. Faradji so'zi ham erkak ham ayollar kiyimini anglatardi. O'rta Osiyo paranjisining qadimgi timsoli bor. Feodal davrida vujudga kelib bu boy kiyim yangi shakllar asosida o'zgarib turardi, ammo o'zining qadimgi negizini saqlab qolgandi. Shunday qilib, O'rta Osiyo ayollar paranjisi qadimgi faradjidan kelib chiqib, yopinchoq sifatida kiyilardi. XVI asrga kelib uzun va noqulay yenglari dekorativ detal bo'lib qoldi, XVIII asrda esa ular asosiy vazifasini yo'qotib, haqiqiy yenglarga o'xshab bichilib va tikilib, orqasida biriktirilib uzun dekorativ tasmaga aylandi.

Feodalizm so'nggi davrlarida paranjini qo'llanishi o'zgardi: u ayolni begona ko'zdan berkitishi shart edi.

Chachvon, chimbat, chashm band - ko'z uchun bog'ichning paydo bo'lishi dastlab paraji bilan bog'liq bo'lmagan. Yuzni berkitish Sharqda XV asrda belgilangan, ammo bu odat qadimdan mavjud bo'lgan va qadimiy Mo'g'ul odatlaridan kelib chiqadi.

XIX-XX asrning boshlarida chachvonlarni tayyorlash bilan ko'chmanchi lo'lilar shug'ullanar edi. Qarluq-o'zbek ayollari Surxondaryo viloyati o'zbeklarining jelagiga o'xshash kalta chopon "*kurta*"ni boshiga tashlab yurishgan, Xorazm o'zbeklarning va qoraqalpoqlarning "*jegade*"sini, va turkmanlarning "*chirpi*" va "*yeleg*"ni kiyishgan. Yoqalari kashta bilan bezatilib, kalta yenglarining uchlari jiyak bilan tikilib chiqilardi. Kurtani qizil va pushti rangdagi ip gazmoldan qilishardi.

O'zbek ayollari kiyimini tashkil etuvchi kiyimlardan biri bosh kiyimdir. Eng ana'anaviy bosh kiyim - kvadrat yoki to'g'ri to'rt burchak ro'mol edi, uni turli usullarda o'rash mumkin edi. Buxoroda katta uch burchak ro'mol - "*rido*", Farg'onada - "*qalagay*", Xorazmda - Shoyi "*ro'mol*" kiyishgan.

Ro'mollar asosan chetdan olib kelingandi, Hindiston, Afg'on va Rossiya. Boy ayollar tantana paytda kumush yoki oltin zar iplar bilan to'qilgan ro'mollarni o'rashardi. Kundalikda ayollar boshiga oq doka, ba'zan kashtalangan ro'molni o'rashgan.

Yoshlar do'ppi kiyishardi. Qadimda ayollar do'ppilar o'rniga qalpoqlar kiyib, ularning ustidan ro'mollarni yoki sallani o'rab yurishgan. Ayollar qalpoqi - "*kulta*", "*kiygich*"ni boshiga yopishib turadigan baland, yumshoq gardishi bilan tikilardi. Qalpoqlarning eng cho'qqisida dumaloq teshik qoldirilardi va undan o'rilgan sochlarini chiqarib qo'yar edilar. Xon saroy ayollari va boy oilalarda asosan zardo'zi "*kalta po'shak*" kiyishgan.

XX asr boshlarida kashta qilingan *do'ppilar* tarqala boshladi.

Qadimiy salla asosiy bosh kiyim bo'lgan. XIX asrning O'rtasidan boshlab Samarqanda, XIX asr oxirgi choragidan boshlab Toshkent va Andijon viloyatlarida ayollar sallani kiyimaydigan bo'ldi. Aksariyat ayollar sallani mahsus bosh kiyim "*lachak*"ni ustidan kiyishgan. Lachak yuziga yopishib turib, ko'kragini berkitardi. Lachak qozoq va qoraqolpoq ayollarining bosh kiyimi "*kimeshek*"ka o'xshaydi. Asosan lachak ip gazlama "*karbas*"dan tikilardi. Janubiy Xorazmda lachakni kiyishmasdi, sallani o'raganda bir o'ramini ko'kragiga tushirib, engagini va yuzini o'rarshardi.

Buxoro atrofidagi va Amudaryo quyi qarluq ayollari "*kopodon*", "*kasava*" va "*Shox-boshi*" bosh kiyimlarni kiyishgan.

O'rta Osiyo ayollari taqinchoqlarining turlari xilma-xil bo'lgan. Peshonaga kiyiladigan Toshkent, Buxoro va Farg'ona vodiysida "*tillaqoshlar*", Xorazmda - "*osmaduzi*", Buxoro, Samarqand va Toshkentda - "*tilla bargak*" bo'lgan. Boshqa ayollar taqinchoqlari ham xilma-xil bo'lgan: uzuklar, bilaguzuklar, sirg'alar, buloqlar va xolbindilar; ko'krak bezaklari - zebigardon, nozigardon, bo'yin tumor, qo'ltiq tumor, sinsila, tavq, xafaband, topish va b.; bo'yin bezaklari - tuf,

sochpopuk va boshqalar keng tarqalgan. Bezaklar turlicha materiallardan har xil usulda qilinardi.

Ayollar oyoq kiyimlari turli bo'lgan. Shahar va qishloqlarda, odatdagicha, maxsi kiyilardi. Maxsining qo'ng'i uzun bo'lib, unga ishton kirgizilardi. Maxsilar juda yumshoq, yengil va O'rta Osiyo sharoitiga qulay bo'lgan. Maxsini ustidan kavush kiyilardi. Ular charmdan qilinardi. Boylar odatda iroqi usulida kashtalangan maxsi va kavushni kiyishardi. Qishda O'zbekistonda yog'ochdan yasalgan boshmoq "*xakkar kavush*" va yog'och kavush kiyishgan.

3. Erkaklar kostyumi. Barcha yoshdagi erkaklar kiyimi tunikasimon bo'lgan. Bu erkaklar kiyimining qadimiyligini ifodalaydi. Erkaklar kiyimi ichki va ustki, bel va yelka kiyimlardan iborat.

Qadimdan erkaklarning ichki ko'ylagini uzunligi tizzagacha bo'lgan, keyinroq uni bo'ksasigacha qisqartirishdi. Ko'ylakning yoqasi ikki xil bo'lgan. Farg'ona vodiysida yoqani to'g'ri to'rt burchak shaklda matoni dioganali bo'yicha qirqib, keng tomonlarini biriktirib vertikal yoqa o'miziga tikishgan. Ko'ylakning ikkinchi turida esa, yoqa o'mizi gorizontal qilinardi. Farg'ona vodiysida va Toshkentda uni "*mullavacha*" deb atashardi. Yoqa o'mizining chekkasi jiyak bilan tikib chiqilardi. Ko'ndalang yoqali ko'ylakni Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazmda ham kiyishgan.

Farg'ona va Toshkent viloyatlarida ichki ko'ylak "*yaxtak*" keng tarqalgandi. Uni ip matolardan, chit, bo'z, ipak, tikishardi. Yaxtakni yoshlar va keksalar kiyishgan. Bu yengil va qulay ko'ylakning oldi ochiq bo'lib, uzunligi tizzagacha yoki uzunroq edi. Yoqasi zich choklar bilan qavilardi, ko'kragida bitta tugma va izmaga tugmalanardi.

Ichki bel kiyimi "*ishton*" keng bo'lgan. Uzunligi to'pig'igacha bo'lib, ishton bog' bilan belida mahkamlanardi. Ishtonni ip gazlamadan tikishgan. Sovuq paytda jun yoki qalin ip gazmoldan tikilgan astarli yoki astarsiz "*Shimni*" kiyishardi; chavandozlar namatdan qilingan, ovchilar - mo'yna yoki jundan qilingan astarsiz "*Shalvar*" kiyishardi. Bu shalvarlar O'rta Osiyo erkaklarning qadimiy kiyimi bo'lgan.

Erkaklarning ustki kiyimi turli choponlar edi. Uni ko'ylak ustidan kiyishgan. Choponlarning tunikasimon bichimi ikki turli bo'lgan.

Choponni birinchi turi yaxlit mato parchasidan bichilardi; to'g'ri yoki sal toraygan yenglari gavda qismiga tikilardi; qo'ltig'iga hishtak, lastovitsa, yonlariga qiyiq tomoni bilan uloqlar tikilardi. Choponning ikkinchi turida gavda qismi ikki bo'lak matodan qilinardi.

Choponlarning ikki yonidan kesimlar qilingandi. Yoqasi, etagi va yengining uchiga tasma yoki jiyak, ko'kragida ikkita bog'ich tikilardi.

Choponlar astarsiz, astarli va paxtali qilinardi.

Farg'ona vodiysida, Toshkent va Xorazmda qavilgan choponlar gavdaga yopishib turardi. Ularni qatorida Farg'ona vodiysida astarsiz chopon "*avratun*"ni qavilgan chopon ustidan kiyishardi. Zarchoponlarni asosan amirlar kiyishgan.

Qishda badavlat erkaklar qavilgan chopon ustidan "*chakmon*", "*kebanak*", mo'ynali "*po'stin*"ni kiyishardi. Chakmonning bichimi choponga nisbatan kengroq va erkinroq bo'lgan, yoqasi esa orqada tik bo'lib, oldida torayar edi.

Chakmon qo'y yoki tuya junidan ko'lda to'qilgan matodan qilinardi. Chorvachilik bilan shug'ullangan o'zbeklar jun matodan qilingan chopon "*kebanak*" kiyishgan. O'rta va katta yoshli erkaklar qishda qo'y terisidan qilingan po'stin kiyishgan. Choponlar va po'stinlar ikki bortli bo'lib, chapdan unga o'ralardi va belbog'siz kiyilardi. Ularni chegaralariga mo'yna tikilardi.

Belbog'lar, *belqars*, *chorsi*, *qiyiqcha*, mahalliy matodan kvadrat shaklida qilinib kashtalanardi. Badavlat odamlar va mansabdorlar duxobadan qilingan zar uqali yoki iroqi usulda kashtalangan keng kamarni taqishgan. Kamarlarga sirlangan, qora kumush bilan ishlov berilgan yoki tagnishon, qadama naqsh, qilingan katta tuqaga qadaldardi.

Qishda kiyimni ip yoki ipakdan qilingan, uzunligi 11m gacha, "*o'rama belbog'*" bilan bog'lashardi.

XIX asr o'rtalaridan boshlab, Rossiyadan kelgan "*kamzol*"ni shaharliklar kiyishgan. Bu oldi berk tugmalangan, tik yoqali, orqasida kesimi yo'q, syurtuksimon kiyim bo'lgan. Uni ko'ylak ustidan kiyishar edi, qishda esa ustidan chopon kiyishardi.

XIX asrdan eng keng tarqalgan bosh kiyim do'ppi, *qalpoq*, *kallapush* va b. bo'lgan. U gazmoldan tikilib, odatda, ipak yoki kumush va zar iplar bilan kashtalanardi. Oldin, do'ppining shakli salla o'rashga qulay bo'lishi uchun, cho'qqili qilinardi, gardishi esa keng bo'lgan.

XX asrda kvadrat yoki yumaloq tepali do'ppilar paydo bo'ldi. Farg'ona vodiysida va Toshkentda "*bodom*" va "*qalampir*" naqshli, chust do'ppisiga o'xshash, Qashqadaryoda tutash iroqi kashta qilingan "*gilamdo'ppi*", Surxandaryoda "*piltado'zi*" do'ppilarni kiyishgan.

Kashta qilingan do'ppilar qatorida Toshkentda to'q duxobadan tikilgan kashtasiz do'ppilar keng tarqalgandi.

Do'ppini yana bir turi - "*Shobpush*" - ip gazmoldan qilinib, mashina yoki qo'lda qavilardi. Uni qishda bosh kiyim ostidan yoki kechasi yotganda kiyishardi.

Ruhoniylar va ayrim aslzodalar va qarilar uch yoki to'rt qirrali mato parchalaridan tikilgan baland yumaloq bosh kiyim "*qulox*"ni kiyishgan.

Farg'ona vodiysi qishloq aholisi namatdan qilingan qirg'iz qalpoqini, qishda esa qozoqlarnikiga o'xshash mo'ynadan "*tumoq*" kiyishgan.

Xorazmda uzun mo'ynali qo'y terisidan qilingan katta yumaloq yassi bosh kiyim "*chugurma*"ni kiyishgan.

Qishda do'ppining ustidan mo'ynadan qilingan, astarli, yumaloq bosh kiyim - "*telpak*" kiyishgan. Buxoro vohasida mo'ynadan konussimon shaklli bosh kiyim kiyishgan. Uning tepasi qorako'ldan, chekkasi - qunduz mo'ynasidan va ichi - qo'y mo'ynasidan qilinardi. Farg'ona vodiysida va Toshkentda qalpoqlar duxobadan tikilib, chekkasi tulki, suvsar yoki barra mo'ynasidan qilinardi.

Sallani ip, yarim jun yoki dokadan qilishardi. Aholining har bir ijtimoiy tabaqasi uchun sallani o'rash usuli bo'lgan, Buxoroda esa, sallani o'raydigan mahsus mutaxassislar bo'lgan.

Ishlagan paytda va uyda salla o'rniga boshini chorsi yoki mato parchasi bilan bog'lashardi.

XX asrga qadar sallani o'spirinlar ham kiyishgandi. Qarilar sallasi - oq, o'rta yoshlarniki - kul rang, yoshlarniki - rang - barang bo'lgan.

Erkaklarning asosiy oyoq kiyimi maxsi, kavush bo'lgan. "Amrikon", Amerikadan kelgan, charmdan qilingan oyoq kiyimlari qimmatbaho bo'lgandi. Maxsi va kavushlar qalin charmdan qilinardi. Yozda kavushning o'zini kiyishardi.

Ulardan tashqari erkaklar baland qo'njli va poshnali etik kiyishgan.

Qishloqda oyoq kiyimlar oddiyroq bo'lgan: etik, "choriq'", qo'njsiz oyoq kiyim, kalta etik "mukki", poshnasiz, yumshoq va qattiq teridan tikilgan, yoki "tovuldiriq", yog'ochdan qilingan uch oyoqli, dalada ishlaganda "xom kavush", mol yoki ot xom terisidan ishlangan kiyishgan.

Nazorat savollari

1. Kostyum rivojlanishiga nimalar sabab bo'ldi?
2. Erkaklar ichki va ustki bel kiyimlari.
3. Erkaklar ichki va ustki yelka kiyimlari.
4. Ayollar ichki va ustki bel kiyimlari.
5. Ayollar ichki va ustki yelka kiyimlari.
6. O'rta Osiyo Renessansining va XIX asr kiyimlar orasidagi farqlari.
7. XIX asr kostyumlarida ijtimoiy va mahalliy belgilar nimada namoyon bo'ladi?
8. Yelka va bel kiyimlarining bichimlari.

Ma'ruza № 18 (2 soat).

Mavzu: O'ZBEK MILLIY KOSTYUMIDAGI MINTAQAVIY BELGILAR

Reja

1. Toshkent-Fargona liboslari
2. Samarqand va Buxoro liboslari
3. Qashqadaryo va Surxondaryo liboslari
4. Xorazm liboslari
5. Qoraqalpog' liboslari

Adabiyotlar

1. Sodiqova N. «O'zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar». T: 2004
2. Абдуллаев Т.А., Хасанова С.А. "Одежда узбеков" Т."Фан", 1978 г.
3. Костюм народов Средней Азии (историко-этнографический очерк под ред. Сухаревой О.А.) М. "Наука", 1979 г.
4. Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. М. "Наука", 1989 г.
5. Фахретдинова Д.А. "Декоративно-прикладное искусство Узбекистана" Т. Издательство Литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1981 г.

6. Ундерова Л.В. К характеристике узбекского костюма XIX века. "Общественные науки в Узбекистане", №6, 1985 г.
7. Пугаченкова Г.А. К истории костюма Средней Азии и Ирана XV-первой половины XVI-века по данным книжной миниатюры. Труды САГУ, вып. XXXI.
8. Хасанбаева Г.К., Чурсина В.А. "Костюм тарихи" - Ўзбекистон, 2002.

1. Toshkent azaldan yirik markaz sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, O'rta Osiyo va boshqa qo'shni mamlakatlar, ayniqsa Rossiya bilan savdo- sotiq aloqalarida vositachi rolini bajarib kelgan. Farg'ona vodiysi hamma vaqt mamlakat durdonasi, xomashyo bazasi hisoblangan. Toshkent va Farg'ona vodiysi aholisining turmush tarzi va tartibi, kiyimlari deyarli bir-biridan farqlanmagan.

Qadimdan ayollarning an'anaviy ichki kiyimi tunikasimon ko'ylak va lozimdan iborat edi. Ko'ylakning shakli to'g'ri ba'zan etagi kengaygan bo'lib, uzunligi to'pig'igacha edi. Turmushga chiqqan ayollar esa vertikal kesimli ko'ylaklarni kiyishgan. Ko'ylaklar juda keng bo'lib, yenglari esa g'oyat keng va uzun bo'lib, kaftini berkitib turgan. XIX asr ohirlarida qirqilgan koketkali ko'krak burma ko'ylak paydo bo'ldi. Bu ko'ylak asr davomida tunikasimon bichimning rivojlanishidan kelib chiqdi. Shular qatorida tunikasimon bichimli tik yoqali yenglari manjetli ko'ylaklar ham keng tarqalgan.

Bazan ustki ko'ylak ostidan ichki ko'ylak kiyishgan. Ular oq ip matodan qilingan. Keksa ayollarda ko'ylakning uzunligi yergacha etadigan, yoshlarda esa kaltaroq bo'lgan. Ayollarning choponi Farg'onada munisak, Toshkentda mursak deb atalgan. Ayollarning yana bir ustki kiyimi paranji bo'lib, u ayolni begona ko'zdan berkitish uchun kiyilgan. Uni asosan ko'chmanchi lo'lilar tayyorlash bilan shug'ullangan. Yoqalari kashta bilan bezatilgan, kalta yenglarini uchlari jiyak bilan bezatilgan. Pahtali qavima cho'ponlar ayollar ustki kiyimining bir turi bo'lib, ular erkaklar cho'ponidan farqli o'laroq bichimi uzunroq, yoqasi ochiqroq va kengroq bo'lgan. Ayollarining cho'ponining yenglari erkaklari cho'poni yengiga nisbatan kengroq qilib tikilgan. Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin, o'lkada yangi bir shakildagi kiyim - kamzul (kamzur, kamzuhur, peshmat)rasm bo'la boshldi. Kamzul belga biroz yopishib turadigan kalta, tor yengli, chuqur o'mizli qaytarma yoqali, ba'zan belbantli, yonlarida ba'zan ko'krak qismidan cho'ntagi bo'lgan cho'pondir. Kamzullarni ko'pincha yorqin rangli yo'l-yo'l beqasamdan, rangli bahmaldan, tukli bahmaldan va boshqa hil chetdan keltirilgan gazmollar tikilgan.

Ayollarning kostyumining ikkinchi asosiy qismi lozim bo'lgan. Lozim beldan yuqori qismdan o'tkazilgan ishtonbog' yordamida ushlab turilgan. Ayollar ustki kiyimiga qavilgan paxtali choponlar kiradi. Ayollar choponlarining yoqa o'mizlari ochiq va keng bo'lgan. Ular bahyalanmagan adipi bir biriga kirmagan.

Poyafzallar esa maxsi, boshmoq kabi charmdan qilingan hamda rezinadan qo'yilgan kalishlardan tashkil topgan. Ayollar kiyim – kechagining nafisligi, ularning xilma – xil va go'zal bo'lishiga moxir o'zbek zargarlari tomonidan tayyorlangan zeb – ziynatlar yanada ko'rk qo'shgan.

2. Samarqand va Buxoroning milliy kiyimlari O'zbekistonning boshqa mintaqalari kiyimlaridan serhashamligi noyob zardo'zi kashtalari bilan ajralib turadi. Samarqand va Buxoro viloyatlarida ayollar kiyimida yoqa o'mizining chetlari zarbob tasma "peshkurta" va kashta bilan bezatilgan. Yoqa o'mizi bu yerlarda juda uzun (etagiga sal etmas edi) qilinardi. Ko'ylaklar juda keng bo'lgan, uning yenglari esa keng va uzun bo'lib, kaftni berkitib turgan. Yenglari, ba'zan, boshqa kimmatbaho matodan qilinardi yoki kashta bilan bezatilardi.

Ayollar qo'lini ko'ksiga qo'yib yurishardi va shu bois yengining go'zalligi to'liq ko'rinardi. Samarqand viloyatlarida ustki kiyim sifatida yengli, beliga sal yopishib turib, pastiga qarab kengaygan, astarli chopon "rumcha"ni kiyar edilar. Rumchaning o'tkazma tor yenglarining uzunligi bilagigacha edi. Ayollarning mahsus ustki kiyimi bo'lgan chopon "mursak" O'zbekistonda keng tarqalgandi.

Mursak yoniga tikiladigan qiyiqlar yordamida kengayardi, yonlarida esa yeng ostidan ser mayda burmalar, etagining yonlarida kesimlar qilinardi. Mursaklar astarli qilinib, qavilardi, qishqi mursakka esa yupqa qatlam paxta qo'yilardi. Samarqandcha mursakning tor yenglari qo'lning kaftigacha yetardi. Samarqandda katta yoshli ayollar mursakni belbog'siz mehmonga yoki to'yga borganda kiyishgan.

3. Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari O'zbekistonning janubida joylashgan. Ular iqlimining issiqligi bilan ajralib turadi. Tabiiy shart - sharoitlardan kelib chiqqan holda o'lka aholisining milliy kiyimlari ham tabiat sharoitlariga mos bo'lishi lozim. Kiyimlarning yorqin ochiq bo'yoqlari, erkin bichimi va noyob, turli-tuman kashtalari kishilarning yuqori dididan dalolat beradi. Voxada turli yoshdagi xotin - qizlarning ko'ylaklari xam o'zaro farqlangan. Jumladan, Shaxrisabz tumanining Soybo'yi kishlog'ida qizlar ko'ylagi -«kiftaki», kelinlar ko'ylagi «par - par», o'rta yoshdagi ayollar ko'ylagi -«darvoza yoqa ko'ylak» va keksa momolar ko'ylagi - «bogachi» deyilgan. Yelka yoqa ko'ylaklar yirmochining chekkalariga turli xil jiyak, chiroz, shiroz, tasma yoki turli xil rangdagi ipak iplardan yo'rma usulda kashta tikib chiqilgan. Shuningdek, kiyim shakllari milliy yo'l - yo'l, sidirg'a va gulli matolar bilan moslashgan, oldi, etagi, yeng uchi, yoqasi gulli jiyak bilan joshiyalangan. Surxondaryoda ayollarning "kiygich", "bosh" deb ataladigan bosh kiyimlari faqat ayni Surxondaryodagina xos bo'lib, O'zbekistonning boshqa joylarida uchramaydi.

1. Ayollar boshini issiq, sovuq va shamoldan asragan;
2. Unda ayollar turmushda tez-tez zarur bo'lib turadigan mayda buyumlarni (ip, igna, to'g'nag'ich va taroq) saqlaganlar.

Surxondaryoning ayollari qizil, olcha ranglarni juda yaxshi ko'rganlar. Kiyim uchun yo'l - yo'l, sidirg'a va yirik gulli abrli gazlamalarni tanlaganlar. Kiyimlarga kashtalar faqat go'zallik va estetika uchun tikilgan emas, balki ular diniy asoslarga ham ega bo'lgan, ya'ni ayollar, bolalar va kelinchaklarni yomon ko'zdan asraydi, deb hisoblangan. Har bir millat va elatning kiyimlari o'ziga xos milliy, mahalliy belgilariga ega, biroq barcha an'anaviy kiyimlar umumiy ma'lum bir asosga borib taqaladi. Xalqimizning an'anaviy kiyimlari asrlar davomida shakllangan uzoh davrlilik tarixiy taraqqiyotning mahsuli sanaladi. Kiyimlarda har bir mintaqaning o'ziga xos xususiyati, turmush tarzi, urf-odat va an'analari, e'tiqod

badiiy - estetik didi namoyon bo'ladi. An'anaviy xalq kiyimlari ko'p asrlik tarixga ega. Ayollarning an'anaviy kiyimlari ichida oyoq (kiyimlari ham o'ziga xos jixatlari bilan ajralib turgan. Surxondaryo vohasi ayollarining an'anaviy oyoq kiyimlariga kalish, maxsi, nugay kavush, takaki kavush, takkari kavush, «popush» kirgan. Shu bilan birga, qish faslida teridan mahsus ishlov berib tikilgan etik va maxsilar xam kiyiltan. Qayroqi maxsi echki terisidan tayyorlangan charmdan tikilgan. Ayollar maxsi kiyishdan avval oyoqlariga paytava o'rashgan. Paytava kishda jundan, bahor va yozda esa paxtali matodan tayyorlangan. Ayollarning yengil oyoq kiyimlari voxada «popush», «kovush» nomlari bilan atalgan. Yog'och yoki suyakdan poshna qilingan kovush «xakkari kovush» deb yuritilgan.

4. Vohada asosan ayollar an'anaviy kiyimlari bilan bog'liq marosimlar keng tarqalgan bo'lib, bu marosimlarning ko'pchiligi kiyim bichish va tikish, ayollarning bir yosh darajasidan ikkinchi yosh darajasiga o'tishi (lachak t'yi) hamda nikoh to'yi (ko'shana bichar, po'stin poyando'z, belbog' yechar, chapon palov, galin go'rar marosimlar), dafn marosimlari (kafanlik, chit tashlar, ko'ylak yirtar marosimi) shaklida o'tkazilgan va marosim kiyimlari sifatida XX asr davomida (ko'proq keksalarda) saqlanib qolgan. XX asr boshlarida aholining barcha yoshdagi erkak va ayollari uchun kundalik kiyim hisoblangan jubba go'dak bolalarning kundalik kiyimi sifatida saqlanib qolgan. Ayollarning kiyimlarida, bosh kiyimi va bezaklarida arxaik elementlar ko'proq saqlanib qolgan. Mahalliy ayollarning uy mashg'uloti bilan bandligi, jamiyat hayotidan ajralib qolganligi bunga sabab bo'lgan. Keyinchalik jamiyat hayotida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar (1920-30 - yillarda respublikada "hujum" harakatining o'tkazilishi) va ayollarning jamiyat hayotiga tortilishi oqibatida ularning kiyimlari ham ma'lum o'zgarishlarga uchrab, an'anaviy kiyimlar o'rnini yevropa bichimidagi zamonaviy kiyim va taqinchoqlar egallagan. Bular an'anaviy uzun va keng bichimli ko'ylaklar va hajmi katta an'anaviy zargarlik buyumlaridan ishlash uchun qulay, yengil, ixchamligi bilan ajralib turgan.

Xorazmda erkaklarining o'ziga xos an'anaviy kiyimlari shakllangan bo'lib, bular jumlasiga taqya, telpak, cho'girma kabi bosh kiyimlar, yaktey, cholvir (shim), do'n, astardesh, chopon kabi ustki kiyimlar, turma va madali belbog', chakman, po'stin, adik (etik) kiradi.

Voha kiyimlarining o'ziga xosligi bosh kiyimlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Xorazmda yashovchi o'zbeklar katta dumaloq cho'girma kiyganlar. Cho'girma, uch xil, to'galak cho'girma, sherozi va silkma cho'girmadan iborat bo'lgan.

5. Katta yoshli ayollar libosidagi rang va naqshlar yosh qizlar va kichkina qizlarnikidan farq qiladi. Katta yoshli ayollar ko'ylak va xalati issiq va to'q qizil rangda bo'lsa, yosh va kichina qizlar libosida asosan qizil, olov rang va ko'k ranglardan foydalanishgan. Bu rang qora kuchlardan himoya qiluvchi hisoblangan va shuning uchun ayollarni farzandli bo'lish layoqatining "soqchisi" bo'lgan. Bundan tashqari qizil rang hayot qon va olov timsoli sifatida ham qo'llangan. Shu boisdan ham *jegede* va *qizil kemeshek* kabi bosh kiyimlari qizil rangda bo'lgan. Bu kabi kiyimda qizlar turmushga chiqishgan va qarib tug'ishga layoqatsiz bo'lguncha kiyishgan. So'ng qizil kemeshekning o'rnini *aq kemeshek*, qizil jegede o'rnini esa,

oq ranglisi bosgan. Oq rang keksa, ham ruhiy ham jismoniy poklangan ayol rangi sifatida istemolga kirgan. Ko'k rangli ko'ylak bir tomondan yoshlikdagi go'zallikka tutilgan aza, oila, qizlik burchi bilan xayrlashuvni, boshqa tomondan esa, bu rang osmon, yuqoridagi olam(*Tengri*)ning timsoli bo'lgan. Qizil xalat bilan birgalikda bu ko'ylak yosh ayol siymosining tarkibiy elementi bo'lgan. To'ydan keyin, birinchi farzand tug'ilganicha, yosh ayol o'sha to'y kiyimini kiyib yurgan. Birinchi farzand dunyoga kelganidan keyin kelin libosining rangi o'sha ranglarning nisbatan oddiyroq ko'rinishida o'zgargan. Kelinning nikoh to'yidagi libosining toji- bosh kiyimi *sukele* o'z shakli bilan shlemni eslatadi. Saukelening shakli matriarxat tuzumning juda kuchli an'analari bilan mashhur bo'lgan sak-massagetlar va sarmat-alan qabilalaridagi ayol jangchilarining harbiy bosh kiyimlari bilan bog'liq. Qoraqolpoq ayollar va erkaklar do'ppilari ikkita alomati bilan farqlangan: ayollar doppisida hajmdor popuk va ornamentdagi aylanma chiziqlari bo'lgan, erkaklar do'ppilarida esa, o'sha naqsh siniq chiziqlar bilan ifodalangan. Agar ayol doppisidagi popuk chap tomonida bo'lsa, demak qarshimizda turmushga chiqmagan ayol va agar o'ng tomonda bo'lsa, aksincha. Bolalar doppisi tepasida hajmli popuk bilan bolgan. Qariyalarda esa esa do'ppi yumaloq va oq rangli, teppasida esa siyrak popukli (hayot o'tgani sari popuk tolalari to'kilib kamayib qolgan) bo'lgan.

Mundarija

1	Ma'ruza № 1. Kompozisiya asosiy tushunchalari	3
2	Ma'ruza № 2. Modaning tarkibi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlari	9
3	Ma'ruza № 3. Kompozision kategoriyalar	14
4	Ma'ruza № 4. Kompozision asosiy qonuniyatlari va hususiyatlari.	20
5	Ma'ruza № 5. Proporsiyalar. Metrik va ritmik tuzilishlar	26
6	Ma'ruza № 6. Rangni kostyum kompozitsiyasidagi o'rni. Kostyum shakli va material	29
7	Ma'ruza № 7. Qadimgi dunyo kostyumi	38
8	Ma'ruza № 8. Qadimgi va feodal davri Sharq kostyumi	43
9	Ma'ruza № 9. Yevropa antik davri kostyumi	53
10	Ma'ruza № 10. O'rta asr Uyg'onish davri Yevropa kostyumi	56
11	Ma'ruza № 11. XVII - XVIII asrlar Yevropa kostyumi	60
12	Ma'ruza № 12. XIX asr Yevropa kostyumi	68
13	Ma'ruza № 13. XX asr Yevropa kostyumi	71
14	Ma'ruza № 14. O'rta Osiyo antik va ilk o'rta asrlar kostyumi	76
15	Ma'ruza № 15. O'rta Osiyo kech o'rta asrlar kostyumi	80
16	Ma'ruza № 16. O'zbek milliy kostyumi.	86
17	Ma'ruza № 17. XIX - XX asr boshidagi o'zbek kostyumi	88
18	Ma'ruza № 18. O'zbek milliy kostyumidagi mintaqaviy belgilar	96

